-оилавий корхоналарнинг солиқ тўловлари (X3) ҳам улар фаолиятининг ривожланишига бевосита таъсирга эга. Шу боис, солиқ соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларда солиқ юкини камайтиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Бу эса (X3) омил билан (У) ўзгарувчи ўртасида тескари боғланишни намоён этади. Чунки солиқ ставкасининг пасайиши билан корхона фойдаси ортиб боради (умумий овқатланиш соҳаси оилавий корхоналари учун ягона солиқ 2020 йилда 8%ни ташкил этган);

- оилавий корхоналар томонидан бюджетга тўлайдиган меҳнатга ҳақ тўлаш фондидан ягона ижтимоий тўлови (X4) ҳам корхона учун харажат ҳисобланади. Шу боисдан ушбу омил оилавий корхона соф тушумига тъсир этувчи омил сифатида танланди (оилавий корхоналар учун белгиланган ижтимоий тўлов 2020 йилда 12%ни ташкил этган);

- Ўзбекистон Республикаси “Оилавий тадбиркорлик тўғрисида” (2012 йил 26 апрел) қонунини қабул қилинишидан кўзланган асосий мақсад оилавий корхоналар сонини кўпайтиришга қаратилган эди. Шунинг учун мазкур қонун фиктив омил сифатида танланди. Бунда (X5) омилга 2012 йилгача бўлган даврда 1, 2012 йилдан кейинги даврга 0 га тенг қиймат берилди;

- маълумки, аҳоли даромадларнинг ўсиши турли хил товар ва хизматларга бўлган талабнинг ўсишига пропорционал боғлиқ. Бу эса, оилавий тадбиркорликнинг ривожланишига қулай шарт-шароит яратади. Шундай экан, аҳоли даромадлари (X6) ва оилавий тадбиркорликнинг ривожланиши (У) ўртасида тўғридан-тўғри боғланиш мавжуд. Шу боис ушбу омил танланди (2020 йил 1 январ ҳолатига республика бўйича ўртача аҳолининг жон бошига даромадлари 5668,6 минг.сўм (реал ўсиш – 4,5%)ни ташкил этган);

- “Ҳар бир оила - тадбиркор” дастури доирасида оилавий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш учун ажратилган кредитлар ҳажми (X7) уларнинг ривожланишида муҳим омил сифатида қаралди (2020 йилда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида 6078,5 млрд. сўм ажратилган).

Мазкур омиллардан келиб чиқиб, аҳолининг тадбиркорлик фаоллигини турли мезонларга кўра тадқиқ этиш мумкин. Шулардан бири, “хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши аҳолининг тадбиркорлик фаоллигига боғлиқ” деган гипотезага асосланди. Унга кўра, хизматлар соҳасининг ривожланиши (у) билан аҳолининг тадбиркорлик фаоллиги кўрсаткичлари (х)нинг барча мумкин бўлган қийматлари орасидаги

боғлиқлик чизиқли эканлиги тахмин қилинди. Унинг назарий чизиқли регрессия тенгламаси қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$y = bx + a ; \qquad (1).$$

Юқорида тавсифланган омилларни турли хил вариантларда қўллаш асосида аҳолининг тадбиркорлик фаоллигини оширишга таъсир этувчи омилларнинг ижтимоий-иқтисодий моҳиятини баҳолаш ва уларнинг эконометрик моделларини қуриш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. 2020 йил 13 октябрдаги “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4862-сон.
2. 2021 йил 27 мартдаги “Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5041-сон.
3. OBLOKULOVICH, K. S. (2020). Оилавий тадбиркорлик: ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
5. Мустафакулов Ш. Ҳудудларнинг инвестицион жозибадорлиги: аниқлашнинг услубий жиҳатлари ва таъсир кўрсатадиган омилларнинг таснифий таҳлили //Центр научных публикаций в Узбекистане. – 2019. – С. 22-22.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНФРАТУЗИЛМАСИ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИ

Шавқиев Э. СамИСИ профессори в/б

Мамлакат иқтисодиётининг тадрижий ўсишини таъминлаш – илм-фансиз рўй бермайди. Шу сабабдан, иқтисодиётнинг барча соҳаларида фан-техника ютуқларидан фойдаланиш доимо долзарб ҳисобланади. “Ҳозирги пайтда дунё миқёсида рақобат қандай кескин тус олиб бораётганини ҳаммамиз кўриб турибмиз. Бу шиддатли рақобатга фақат замонавий илм-фан, юқори технологиялар ва инновация ютуқларини кенг жорий этиш орқали муносиб жавоб бера оламиз”[11]

Фан-техника тараққиёти – жуда мураккаб ва кўп қиррали жараёндир. У мавжуд техникани такомиллаштиришни, янги, анча самарали техникани, технологияни, хом ашёни, материалларни яратиш ва жорий қилишни, шунингдек, меҳнатни ва ишлаб чиқаришни ташкил қилишни яхшилашни ўз ичига олади. Фан-техника тараққиёти – ишлаб чиқаришни

[11] Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Тошкент: “O’zbekiston” нашриёти, 2022, 235 бет.

жадаллаштириш ва унинг самарадорлигини оширишнинг ҳал қилувчи йўналишларидан бири ҳисобланади.

Ҳозирги пайтда давлатларнинг иқтисодий ўсиши – кўп жиҳатдан ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларини интеллектуаллаштириш ва фан-техника тараққиёти билан таъминланади. Шу сабабдан ҳам фан-техника тараққиёти мамлакатимиз иқтисодиётининг барча тармоқларига тобора кенг ва чуқур кириб бормоқда.

Фан-техника тараққиёти жамиятда қуйдагиларни таъминлайди:

- меҳнат унумдорлигининг ўсиши, маҳсулот бирлигига меҳнат сарфининг камайиши ва ишлаб чиқаришда банд бўлган ҳар бир киши ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтиришда бош омил вазифасини;
- янги техника ва технология меҳнатни ва ишлаб чиқаришни илғор ташкил қилиш билан уйғунлашган ҳолда ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини оширишга ёрдам беради, бу эса бутун жамиятнинг ва ҳар бир кишининг ортиб бораётган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш имконини яратиш;
- ишлаб чиқариш ускуналари ва бошқа моддий ресурслардан самарали фойдаланиш учун шароит яратиш. Чунки, янги машиналар анча унумдоргина эмас, балки ишлатишда анча чидамли ва бошқарилиши осонлиги;
- инновацион технологияларнинг ишлаб чиқаришга жорий этилиши маҳсулот бирлигига сарфланадиган хом ашё ва материаллар миқдорини қисқартиради, шунингдек, анча арзон хом ашёдан фойдаланиш имконини беради. Бу эса маҳсулот сермеҳнатлилигини камайтириш билан уйғунлашган ҳолда ишлаб чиқариш харажатларининг қисқартирилишига, корхоналар фойдасининг ортишига;
- ишлаб чиқаришни ташкил қилишга ижобий таъсир кўрсатади: хусусан, замонавий техника ва технологиялар ихтисослаштирилган ишлаб чиқариш шароитида энг кўп самаралиги;
- меҳнатни енгиллаштиради ва унинг жозибадорлигини оширади. Фан-техника тараққиёти асосида малакасиз қўл меҳнати ихтисослашган меҳнат томонидан сиқиб чиқарилади.

Фан-техника тараққиётини тавсифловчи инновациялар хилма-хил бўлиб, улардан энг муҳимлари қуйидагилардир:

- энергия (қўёш, шамол энергияси ва бошқалар) янги турлари ва манбаларининг кашф этилиши;
- ишлаб чиқаришни роботлаштириш;
- ишлаб чиқариш, бошқариш, фан-техника тараққиётида ахборот-технологияларидан кенг фойдаланиш;
- табиатда мавжуд бўлмаган материалларни яратиш усуларининг ихтиро ва кашф этилиши;

- ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, меҳнатни илмий ташкил қилишнинг янги технологиялари ва усулларини жорий қилиш ва бошқалар.

Буларнинг барчаси иқтисодий ўсиш учун омил бўлиб ҳисобланади. Иқтисодий ўсиш – бу ялпи маҳсулотнинг маълум вақт даврида сифат ва миқдор жиҳатидан такомиллашуви ва ўсиши, бунинг натижасида, ресурслар чекланганлиги билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг ҳал бўлиши демакдир.

Бугунги кунда ишлаб чиқаришни электрлаштириш фан-техника тараққиётининг асосий йўналишларидан бирига айланди. Электрлаштириш – электр энергиясини етарли миқдорда ишлаб чиқариш, уни керакли жойларга узатиш ва ундан фойдаланиш жараёнидир.

Маълумки, Ўзбекистонда электр энергиясини узатиш мумкин бўлган масофа йилдан-йилга узайиб бормоқда. Электр энергияни узоқ масофага узатиш мумкинлиги, уни ёқилғининг бошқа турларига қараганда афзалроқ қилиб қўймоқда.

Ҳозирги вақтда дунёда ишлаб чиқарилаётган ва истеъмол қилинаётган электр энергиянинг тахминан 70 фоизи органик ёқилғи ёқиш ҳисобига олинади ва 30 фоизи - сув, шамол, қўёш ва ядровий ёқилғилар ҳисобидан олинади.

Мамлакатимизда анъанавий табиийй ресурсларга: табиий газ, кўмир, нефть, сланецлар, уран ва гидроэнергетика бой бўлиб, уран ва сланецлардан ташқари барча энергия ресурсларидан кенг фойдаланилмоқда

Электр энергия баланси таҳлили кўрсатишича уни ишлаб чиқариш учун 84-90 фоиз углеводород ёнилғи ва атиги 10-16 фоиз гидроэнергетика ресурсларига тўғри келади.

ИЭСларнинг асосий хом ашёси – углеводород ёқилғиси ҳисобланади. Улар анча тез ва арзон қурилади.

Аксарият ИЭСларда электр энергия билан бирга иссиқлик энергияси ҳам ишлаб чиқарилади. Бундай электр станциялар иссиқлик электр марказлари (ИЭМ) деб аталади. Уларда электр энергия ишлаб чиқариш вақтида исиган сувни иссиқхоналарни, биноларни иситишга ва ишлаб чиқариш эхтиёжларига юборилади.

Айрим манбаларда келтирилишича Ўзбекистон углеводород ёнилғиси ресурсларининг салмоғи 2,2-5,1 млрд.тн.э. бўлиб, шу жумладан 82-245 млн.тн.э. нефт, 1476-1979 млн.тн.э. табиий газ ва 639-2851 млн.тн.э. кўмирни ташкил этади.

Иқтисодиётнинг тарақиёти натижасида, ушбу заҳиралар, экспертлар фикрича ўртача нефть 10-12, табиий газ – 28-30, кўмир эса – 50 йилдан кўпроқ муддатга етиши мумкин[12].

[12] Ёқилғи ва èниш назарияси асослари. Иссиклик энергиясининг манбалари. https://staff.tiiame.uz› users › presentations

Демак, келажакда мамлакатимиз электр энергия ишлаб чиқаришда муаммоларга дуч келиши тайин. Шу сабабдан, анъанавий углеводород ёқилғиси ўрнини боса оладиган муқобил энергия манбаиларини ишга тушириш зарур бўлади. Ҳар қандай энергия манбаи муқобил энергия воситаси бўлиши мумкин.

Сув билан ишлайдиган электр станцияларда (ГЭС) энергия ишлаб чиқариш – тўхтовсиз оқиб тушадиган сув оқими кучига асосланади. Уларда ишлаб чиқарилган электр энергиянинг таннархи анча паст бўлади.

Ҳозирги пайтда ГЭСларнинг янги тури – гидроаккумулятив электр станциялар (ГАЭС) ҳам қурилмоқда. Уларни қуришга асосий сабаб иккита: биринчиси, энергия тизимларида электр энергиядан нотекис фойдаланиш бўлса, иккинчиси, сув ресурсларидан самарали фойдаланиш имкониятини яратиб беради.

ГАЭСлар бошқа ГЭСлар ишлаб чиқарган энергияни тўплайди (аккумуляция қилади). Улар ГЭСдан юқорида жойлашган хавзага сувни насослар билан кўтариш учун қурилган тизимлардаги ортиқча электр энергиясидан фойдаланади (масалан, тунда). Электр энергияга эхтиёж ошган пайтда бу хавзадаги сув очиб юборилади ва ҳосил бўлган оқим кучи туфайли ГАЭСларда электр энергияси ҳосил қилинади.

Дунёдаги гидроэнергетика ресурсларининг 65 фоизи ривожланаётган мамлакатларга тўғри келади, аммо улардан фойдаланиш даражаси паст. Гидроэнергетика ресурсларидан фойдаланиш даражаси АҚШ, Россия ва Норвегияда жуда юқори. Норвегияда электр энергиянинг 99,5 фоизи ГЭС ларда ишлаб чиқарилади. Бу ерда ГЭСларнинг асосий қисми (200 дан ортиқроғи) ер тагида жойлашган. Жаҳонда ишлаб чиқариладиган электр энергиянинг 20 фоизи ГЭСларда ишлаб чиқарилади[13].

Атом электро станция (АЭС)лар ўзининг энергетика манбаи бўлмаган ва ёқилғи қиммат, аммо электр энергияга эҳтиёжи юқори бўлган млакатларда қурилади. Унинг хом ашёси – уран ҳисобланади. Бу турдаги электр энергияси ишлаб чиқариш бўйича АҚШ, Франция, Япония, Германия ва Россия етакчи давлат сирасига киради. Айрим манбаларда келтирилган маълумотларга кўра жаҳонда ишлаб чиқариладиган электр энергиянинг 15-17 фоизи АЭСларга тўғри келади.

Ўзбекистонда Россия билан ҳамкорликда атом электр станциясини қуришга ҳаракат 2017 йилда бошланди. Бу лойиҳа мамлакатдаги энергия муаммосини ҳал қилиш учун муҳим омил сифатида тақдим этиляпти. Унинг лойиҳа қиймати тахминан 9 млрд доллар атрофида баҳоланган.

Маълумки, АЭС уран қайта ишлангач совитилиши керак. Бу эса сув орқали атроф-муҳитнинг зарарланиш эҳтимолини пайдо қилади. Бундай ҳолатлар амалиётда кузатилган.

[13] Elektr enyergiyasi sanoati. https://uz.wikipedia.org › wiki

Одатда АЭСлар аҳоли пунктларидан узоқда ва сув ҳавзаси мавжуд бўлган ҳудудларда жойлаштирилади. Станцияни қуришда сув объектларига яқинлиги ҳисобга олинади. Шу нуқтаи назардан Айдаркўл – станция учун сув манба бўлади, деб қаралган.

Лондондаги “Марказий Осиё Due Deligence” таҳлил маркази директори Алишер Илҳомовнинг фикрича, Ўзбекистонда АЭС қурилиши бу сув ҳавзаси учун хавфни пайдо қилади. Ўзбекистонда станцияда ишланган уранни дезактивация қилиш нуқтайи назаридан бу жуда хавфли. Бундан ташқари АЭС хавфсизлиги тўлиқ кафолатланса ҳам авариялар, бахтсиз ҳолатлар эҳтимолини нолга тушириш имконсиз. Экспернинг хулосасига кўра, Ўзбекистонда АЭС қуриш иқтисодий ва экологик нуқтаи назардан ҳеч қандай истиқболга эга эмас[14].

Келажакда энергия тақчиллиги туфайли энергия масаласида Ўзбекистоннинг қайсидир давлатга боғлиқ бўлмасликнинг асосий йўналишлари қуйидагилар ҳисобланади:

- энергия ресурларидан (асосан углеводород ёнилғилар қўлланиладиган тизимларда илғор инновацион технологияларни қўллаш, иссиқлик машиналари термик фойдали иш коэффициенти ошириш, замонавий воситалар ва технологик қурилмалардан) самарали фойдаланиш;
- иккиламчи энергия ресурларидан – ишлатилган газлар иссиқлигидан, буғ турбиналари совутиш тизимида қўлланиладиган совутиш агентларидан ва бошқалардан фойдаланиш;
- қайта тикланувчи ва муқобил энергия ресурларидан самарали фойдаланиш.

Ўзбекистонда қайта тикланувчи ва муқобил энергия ресурлари асосан ноанъанавий энергия ресурслари туркумига киради:

- кичик гидроэнергетик ресурслар (10 МВт);
- геотермаль манбалар;
- қуёш энергияси;
- шамол энергияси;
- саноат ва хўжалик чиқиндилари;
- биомассалар ва бошқалар.

Миллий иқтисодиётнининг ҳамма тармоқларида, жумладан, саноат ишлаб чиқаришида кимё соҳасидаги илм ютуқларидан кенг фойдаланиш доимо долзарб бўлган: хусусан, хом ашё ва материалларни қайта ишлашда кимё усуллардан фойдаланиш. Химиялаштириш ёрдами билан олдиндан кутилган кўринишдаги материалларни тайёрлаш мумкин. Масалан, бўёқ ва лаклар, синтетик каучук, синтетик тола, пластмассалар ва ҳоказоларни.

[14] “АЭСнинг истиқболи йўқ” – Алишер Илҳомов билан суҳбат. https:// kun.uz 12:52 /12.01.2023 6806 Улашинг FacebookTwitterTelegram

Мамлакатимизда фан-техника тараққиётининг асосий йўналишларидан яна бири – ахборот технологияларидан иқтисодиётнинг барча соҳаларида фойдаланиш ҳисобланади. Бу ишлаб чиқаришда инсон меҳнатини камайтириш, бошқаришда тезкор ва сифатли ахборот воситаларига эга бўлиш учун, йўл қўйилаётган камчиликларни бартараф этиш каби имкониятларни беради.

Ахборот технологиялари ─ иқтисодиётни ривожлантириш ва инсон ҳаётини яхшилаш борасидаги муҳим қадам ҳисобланади. У жамият ҳаётидаги социал-иқтисодий муаммоларни ечишга IT имкониятларини жалб этилишини, яъни интернет буюмлардан тортиб, электрон ҳукуматгача бўлган тизимларда ахборот технологияларини қўллашни назарда тутади.

Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида амалга оширилаётган ўзгаришлар мулк шаклидан қатъий назар барча хўжалик юритувчи субъектларга, шунингдек, аҳолининг барча қатламларига турли хизматлардан фойдаланишлари учун шарт-шароитлар яратишга қаратилган.

Ривожланган давлатлар тажрибаларининг кўрсатишича, бугунги кунда глобаллашув ва жамиятни ахборотлаштириш шароитида миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ва иқтисодий ўсиши, мамлакатнинг ички ва ташқи инвесторлар учун жозибадорлиги маълум даражада ─ ахборот инфратузилмаси ҳамда ахборот-коммуникация хизматларининг ривожланиш даражасига боғлиқ.

Ўзбекистонда ахборот-коммуникацияларини ривожлантиришга қаратилган ҳуқуқий база шакллантирилган. Бу тармоқ хизматларидан аҳолининг, корхона, ташкилот ва муассасаларнинг кенг фойдаланиши, унинг самарадорлигини оширишга катта имкониятлар яратиб беради.

Иқтисодий тараққиётнинг ҳозирги босқичида – ишлаб чиқаришни роботлаштириш ва чиқиндисиз технологияларни қўллаш кун тартибида турган масалалар сирасига киради.

Ишлаб чиқаришни роботлаштириш – бу қўл меҳнатини камайтиришга асосланган бўлиб, ишлаб чиқариш маданияти ва сифатини ошириш учун хизмат қилади. Кейинги йиллардаги машинасозлик билан боғлиқ қурилаётган корхоналарнинг деярли ҳаммасида бу тадбир амалга оширилмоқда.

Чиқитсиз технологияни жорий қилиш – бу бозор шароитида табиий ресурслар чекланганлигини ҳисобга олган ҳолда, кишилар эҳтиёжини кўпроқ қондириш имкониятини туғдиради.

Умуман олганда иқтисодиётнинг барча тармоқларида замонавий технологияларни қўллаш ижобий натижаларга олиб келиши мумкин. Шу сабабдан ҳам янги технологияни тадбиқ этиш – сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқариш имконини беради деган фикр доимо мавжуд. Аммо ҳар қандай янги технологияни ҳам ишлаб чиқаришга тадбиқ этавериш

иқтисодий жиҳатдан самарали бўлавермаслиги мумкин. Буни аниқлаш учун янги технологияни бironта ишлаб чиқариш корхонасида жорий этиш ва унинг натижасини ҳисоб-китоб қилиши керак бўлади.

Янги технология иқтисодий самарадорликни таъминласагина уни тезда жорий қилиш керак, акс ҳолда эса, янги технологияни жорий қилишдан ҳеч қандай наф бўлмайди. Иқтисодий самарадорлик эса қуйидаги формула билан ҳисобланади:

$$П + = (U2C2) – (U1C1) x A,$$

Бу ерда:

П – иқтисодий самарадорлик (фойда) сўм ҳисобида;

U1C1 – янги техникани қўллашгача ялпи маҳсулотнинг баҳоси ва таннархи

U2C2 –янги техникани қўллашдаги t даврдаги ялпи маҳсулотнинг баҳоси ва таннархи.

A – t даврдаги маҳсулот ҳажми.

Формуладан U2C2 > U1C1 бўлсагина янги технологияни қўллаш, корхона, фирма иқтисодий самара бериши мумкинлиги тушунилади.

Мамлакатимизда илм-фан бевосита ишлаб чиқариш кучига айланиб бормоқда. Илмий изланишлар натижалари – иқтисодий муаммолар ечимига айланади, техника, технология ва материалларнинг янги турларини яратади. Бу, табиийки, иқтисодий ва социал муаммоларни ҳал этиш имкониятини туғдиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисидаги” Қонуни,

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 апрелдаги “Инновацион ғоялар, технологиялар ва лойиҳаларни амалий жорий қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПҚ-3682-сонли Қарори.

3. “АЭСнинг истиқболи йўқ” – Алишер Илҳомов билан суҳбат. https:// kun.uz 12:52 /12.01.2023 6806.

4. Ёқилғи ва èниш назарияси асослари. Иссиклик энергиясининг манбалари. https://staff.tiiame.uz › users › presentations

5. Шавқиев Э.. Саноат иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: “STAP-SEL” MChJ. nashriyot-матбаа бўлими, 2022

6. Elektr enyergiyasi sanoati. https://uz.wikipedia.org › wiki

IQTISODIYOTIDA AXBOROTLASHTIRISHNING MAMLAKAT TUTGAN O'RNI

Jomonqulova E.F. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n +998994499561
e-mail: fazilat_72@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan iqtisodiyot tushunchalari, uning rivojlanishi va mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiy etishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan iqtisodiyot, axborotlashgan jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье освещаются понятия информированной экономики, значение информационных и коммуникационных технологий в развитии и развитии национальной экономики.

Ключевые слова: информационная экономика, информационное общество, информационно-коммуникационные технологии.

Annotation: This article highlights the notions of an informed economy, the importance of information and communication technologies in the development and development of the national economy.

Keywords: Information economy, information society, information and communication technologies.

XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. XXI asr axborotlashtirish va kommunikatsiya asri, deyish an'anaga aylandi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar jamiyatdagi har bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy. Chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin.

Kundalik turmushda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli (audio), rasmli, video va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Har bir turdagi axborot bilan ishlash (yig'ish, saqlash va h.k.) uchun turli texnik harakteristikalarga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi.

Mikroelektronika ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi va zamonaviy protsessorli kompyuterlarning yaratilishi axborotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda axborotlashgan iqtisodiyot tushunchasi keng tarqalmoqda. Shu o'rinda, axborotlashgan iqtisodiyot tushunchasi nma? degan savol tug'ilishi mumkin. Keng ma`noda axborotlashgan iqtisodiyot ilmiy adabiyotlarda axborotlashgan iqtisodiy qarorlarga axborotning ta'sirini o'rganuvchi iqtisodiy bir yo'nalish sifatida qaraladi. M.A.Nikitenkivaning "Axborot tuzilishi" asarida ushbu atamaga quyidagicha ta'rif berilgan:"Axborotlashgan iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish bosqichi bo'lib, unga jamiyat hayotidagi bilimlar va axborotning roli, insonlarning o'zaro samarali axborot almashishi, ularga jahon axborot resurslardan foydalanishga imkon beradigan hamda ularning ijtimoiy va shaxsiy

ehtiyojlarini qondirishni ta’minlab beruvchi global axborot maydonining yaratilishidir”.

Har qanday mamlakatga xos bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham axborotlashgan iqtisodiyotni shakllantirish darajasini oshirish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish va yalpi ichki mahsulotda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi bilan belgilab berish mumkin.Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi 2013-2020-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish dasturi asosida amalga oshiriladi. Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qarori tasdiqlangan. Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo’yicha davlat dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va unda axborotlashgan iqtisodiyotni samarali shakllantirishdir. Axborotlashgan iqtisodiyotning mamlakatlar kesimida qiyosiy tahlili quyidagi tendensiyalarning rivojlanishi bilan bog`liq holda amalga oshiriladi:

- an’anaviy va axborotlashgan iqtisodiyotning farqlanishi;
- axborotlashgan iqtisodiyot va sanoat davri iqtisodiyoti sohalari o‘rtasida ma’lum ziddiyatlarning shakllanishi;
- globallashgan iqtisodiyotga tobora kirib boorish;

M.Kastels, M.Konnorz, U.Martin, A.Norman kabi olimlar axborotlashgan iqtisodiyot mazmunining tahlilini ilmiy ishlarida aks ettirishgan.Lekin, axborotlashgan iqtisodiyot kategoriyasining o‘zi esa fanga 1976-yilda amerikalik iqtisodchi M.Porat tomonidan kiritilgan. Shuningdek, ispan-amerikalik iqtisodchi M.Kastelsning ta’kidlashicha, ”Axborotlashgan jamiyat” atamasi mukammal tushuncha emas,u yangi tizimning barcga o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirmaydi. Aksincha, “Axborotlashgan iqtisodiyot” tushunchasi aniqroq ta’rifga ega bo‘lib, u iqtisodiy mehnat va axborot boyliklar ustuvor bo‘lgan sivilizatsiyaning rivojlanish bosqichidir. Bundan tashqari ushbu atamaga nazariy jihatdan ham ta’rif berish mumkin.Axborotlashgan iqtisodiyot – postindustrial jamiyatning asosi bo‘lib, axborot asosiy ishlab chiqarish resursi bo‘lgan hamda ish bilan bandlar tuzilmasida asosiy o‘rinlarni aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar egallagan iqtisodiyotning o‘ziga xos turini belgilovchi falsafiy-iqtisodiy atama hisoblanadi. Jumladan, M.Kastelning 1996-1668-yillarda chop etilgan “Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat” nomli monografiyasi axborotlashgan iqtisodiyot tushunchasining jamiyatda keng tarqalishiga sabab bo’ldi. Vaqt me’zoni bo’yicha axborotlashgan iqtisodiyotning shakllanishini 3 davrga ajratish mumkin:

1. Axborotlashgan iqtisodiyot paydo bo‘lishi va yangi hodisalarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash (1960-1970-yillar).

2. Ilg‘or mamlakatlarda axborotlashgan iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishi (1980-1990-yillar).

3. Axborotlashgan iqtisodiyot nazariyasini bilimlar iqtisodiyoti bilan bog‘liqlikda o‘rganish (2000-yildan)

Umuman olganda, iqtisodiyot nazariyasida axborotlashgan iqtisodiyotning yagona tushunchasi yoki ta’rifi mavjud bo‘lmay, ilmiy adabiyotlarda unga turli yondashuvlar mavjud. Shunga qaramay, olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlarda axborotlashgan iqtisodiyotga xos bo‘lgan uchta asosiy me’zonlar guruhiga ajratiladi. Birinchi guruhga iqtisodiy me’zonlar kiritilgan bo‘lib, ular jamiyatning axborot sohasida yaratilgan yalpi milliy mahsulot (YaMM) ulushini tavsiflaydi.mazkur yondashuvning asosiy muammosi mamlakatning yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishida axborot sektorining qo‘shgan hissasini aniqlashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelganligi hisoblanadi. Ikkinchi guruhga ijtimoiy me’zonlar kiradi. Ular axborot mahsulotlarini, axborotlashtirish vositalarini ishlab chiqarish hamda axborot xizmatlar ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholi ulushini belgilaydi. Uchinchi guruhga axborotlashgan iqtisodiyotni belgilab beradigan, ya’ni jamiyatda axborot texnologiyalari (AT)ning tarqalishi nuqtai nazaridan ta’rif beruvchi texnologik me’zonlar kiradi.

Ayni damda yangi texnologiyalarning axborot-kommunikarsiya texnologiyalari taraqqiyoti bilan birgalikdagi rivoji masofa va vaqt oralig`iga qaramay, axborot, pul va boshqa resurslarni tez yetkazish va almashish uchun imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birgalikda axborotlashgan iqtisodiyotga o’tish bilan bog‘liq sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar bir qator muammo va ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Misol uchun, bunday muammolarga jamiyatdagi turli sohalarga oid globallashuv va axborotlashtirish tufayli paydo bo‘lgan hamda har tomonlama o‘rganish va yechimi kompleks yondashuvni talab etuvchi, iqtisodiy hayotning o‘zgaruvchanligi va beqarorligini kiritish mumkin. Bulardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim, ilmiy va innovatsion faoliyat turlarining jamiyat, davlat va iqtisodiyotga bo‘lgan ta’sirining kuchayishi hamda ular faoliyatining sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tish darkor. Shuning uchun axborotlashgan iqtisodiyot jamiyat hayotidagi ziddiyatlarga qanday ta’rif berishi va uning nazariy jihatdan mazmun mohiyati jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon bosqichida o‘z aksini topayotganligi axborotlashgan iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish, ayni damda muhim masalalardan biriga aylanmoqda.Shuni ham aytish kerakki, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning barcha yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan va amalga oshirilayotgan Milliy axborot kommunikatsiya tizimini rivojlantirish strategiyasi faol ijobiy o’sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Bu esa axborotlashgan iqtisodiyotning ulushi umumiy holda iqtisodiyotga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatayotganligini bildiradi.

Globallashuv jarayonlarining oxirgi qisqa davrida asosiy harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biri bo‘lgan axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari (AKT) sohasida davr talabiga mos keluvchi yangi yo‘nalishdagi texnologiyalar yaratilmoqda. Bu texnologiyalar kompyuter tarmoqlari klassik modellaridan yetarlicha katta farq qilishi bilan birga, ayrim paytlarda aynan o‘xshash tamoyillar asosida ish yuritadi. Bulutli hisoblash g‘oyasi o‘tgan asrning 60 yillarida paydo bo‘lsada aloqa kanallarining shiddat bilan rivojlanib borishi va foydalanuvchilar talabining uzluksiz o‘sib borishi natijasida 2007 yildan boshlab ommaviylashib, rivojlanish bosqichiga o‘tdi.

Xulosa qilib aytganda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng va faol joriy etish mehnat bozorida tarkibiy nomutanosibliklarga, axborot rolining transformatsiyasiga, bir sohaning faoliyati boshqalarga bog‘liq holda amalga oshirilishining o‘sishiga, iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ilmiy izlanishlar sonining oshishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag`allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig`ilishida: “Men bu haqda birinchi marta Oliy Majlisga Murojaatnomamda gapirdim, ya’ni bizda kambag`allikning ko‘pligi to‘g‘risida.

Ta’bir joiz bo‘lsa, shu vaqtgacha biz odamlarimizga baliq berdik. Bu tajriba o’zini mutlaqo oqlamaydi. Xalqimizga baliq tutishni o‘rgatishimiz lozim “ – deya ta’kidlab o‘tdi.

Buni inobatga olgan holda, axborotlashgan iqtisodiyot ta’sirini hal qilish, O‘zbekistonda keng miqyosda axborotlashgan iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish muhim say-harakatlardan biri ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Porat V. The Information Economy Definition and Measurement. Washington DC: US Dept of Commerce, 1977. P.240.;

2.Тагаров Б. Ж. Современный подходы к определению критериев информационной экономики.// Baikal research journal. – Иркутск, 2012. - №4.С.3.[Электронный ресурс].

3. E.F. Jomonkulova, M.K.Nizomov, N.Sh. Tojiev. Issues On Using Digital Economy In The Service Sector. International Journal of Advanced Science and Technology.Vol. 29, No. 7., (2020), pp. 2015-2019.

4. E.F. Jomonkulova, M.K.Nizomov , The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy, European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 3, Pages 2786-2789 URL.:http://elibrary.ru/download/30837991.pdf.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA XIZMAT INNOVATSIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna – SamISI, "Investitsiya va innovatsiyalar" kafedrasi dotsenti v.b. n.ruzibayeva0507@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada xizmat innovatsiyasi tushunchasi va mohiyati ko'rib chiqiladi, uning ahamiyati va unga kiritilgan xizmatlar ko'rsatilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat innovatsiyasining rivojlanishini o'rganishdir, shuningdek xizmat innovatsiyasi raqamli tus olayotganini ko'rish mumkin.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, xizmat innovatsiyasi, raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiya, qiymat*

Аннотация*. В статье рассматриваются понятие и сущность сервисной инновации, ее значение и входящие в нее услуги. Основная цель исследования – изучить развитие сервисных инноваций в цифровой экономике, и видно, что сервисные инновации принимают цифровую форму*

Ключевые слова*: инновации, сервисные инновации, цифровая экономика, инновационные технологии, стоимость.*

Abstract*. The article discusses the concept and essence of service innovation, its meaning and the services included in it. The main purpose of the study is to study the development of service innovations in the digital economy, and it is clear that service innovations are taking digital form*

Key words*: innovation, service innovation, digital economy, innovative technologies, cost*

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi darajasi ushbu vazifalarni bajarish uchun mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan minimal sarflagan holda asosiy va samarali axborotni to'plash, qayta ishlash va foydalanish joyiga yetkazish mexanizmlarini tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli iqtisodiyotda xizmat innovatsiyalariga bo'lgan e'tiborning ortishi akademik tadqiqotlarda nashrlar sonining ko'payishi va turli tadqiqot fanlaridan qiziqish tufayli namoyon bo'ladi. Biroq, xizmat ko'rsatish innovatsiyasi tushunchasi keng va erkin ta'riflangan bo'lib, uni yanada o'rganish va rivojlantirish kerak. Xizmat innovatsiyasining ta'rifi ayniqsa muammoli, chunki u nima ekanligi va nimani anglatishi haqida umumiy tushuncha mavjud emas.

Xizmat innovatsiyasiga asoslangan nazariya hali ham yangi bo'lib, u asosiy tushunchaning noaniq va tarqoq ta'riflarini tushuntiradi. Misol uchun, bu noaniqlikni yangi xizmatlarni ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish innovatsiyalarini bir-birining o'rnida ishlatishda ko'rish mumkin[1]. Bundan tashqari, xizmat innovatsiyasi atamasi yangi xizmatni, ya'ni bozorga muvaffaqiyatli kiritilmagan ixtironi tan olish uchun ham qo'llaniladi[2]. Bundan tashqari, innovatsiya qanchalik yangi bo'lishi kerakligi va yangilik qiymatini

qanday baholash kerakligi[15] bo'yicha qarama-qarshi qarashlar mavjud. Xizmat innovatsiyasining turli ta'riflari ushbu muammolarni qanday hal qilishini o'rganib, xizmat innovatsiyasi kontseptsiyasining noaniqligini tahlil qilish mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, xizmat innovatsiyasi haqidagi asosiy taxminlardagi farqlarni aniqlash uchun olimlar Coombs va Miles[3]ning mavjud tadqiqotlari uch xil nuqtai nazarga ajratiladi: assimilyatsiya, demarkatsiya va sintez.

Assimilyatsiya nuqtai nazaridan foydalanadigan tadqiqotlar eng ko'p va birinchi tadqiqotlar xizmat innovatsiyasining asosiy drayveri hisoblangan yangi texnologiyalarning ta'siriga qaratilgan[16]. Assimilyatsiya nuqtai nazaridan an'anaviy mahsulot innovatsion tadqiqotlari uchun ishlab chiqilgan bir xil nazariyalar va vositalardan foydalanish va moslashtirish orqali xizmat innovatsiyasini o'rganish va tahlil qilish uchun foydalanish mumkin. Ushbu istiqbolning muhim taxmini shundan iboratki, xizmat ko'rsatish sohasi ko'proq texnologiya va kapital talab qiladigan bo'lib bormoqda. Assimilyatsiya yondashuvini yana bir iqtisodchi olim Pavittning[4] innovatsiyalar bo'yicha sektoral taksonomiyasidan kuzatish mumkin, bunda xizmatlar yetkazib beruvchilar ustunlik qiladi; boshqacha aytganda, xizmat ko'rsatuvchi firmalar boshqa tarmoqlardan innovatsiyalarni passiv qabul qiluvchilardir.

Demarkatsiya nuqtai nazari, aksincha, xizmat innovatsiyasi mahsulot innovatsiyasidan tabiati va xarakteriga ko'ra tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Ushbu nuqtai nazar innovatsiyalarni o'rganishning nazariy asoslarini shubha ostiga qo'yadi[17] va xizmat innovatsiyasini tushunish va tahlil qilish uchun yangi xizmatga xos nazariyalar va tushunchalar haqida bahs yuritadi. Demarkatsiya bo'yicha tadqiqotchilar innovatsiyalar bo'yicha tadqiqotlar xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tan olmadi va xizmatlarning mahsulotlarga qo'shadigan muhim hissasini e'tibordan chetda qoldirdi, deb ta'kidlaydilar[18]. Xususan, demarkatsiya tadqiqotlari oldingi tadqiqotlar e'tibordan chetda qolgan muhim elementlarni yoritadi. Tadqiqotlar xizmatlarning nomoddiy tabiati, mijozlarning integratsiyalashuvi zarurati, tashkiliy bilimlar va texnologik bo'lmagan elementlarning hissasi kabi xizmat ko'rsatish natijalari va jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidladi[5]. Drejer demarkatsiya istiqbolining eng muhim hissalaridan biri yangilik deb hisoblanishi mumkin bo'lgan narsani kengaytirish ekanligini ta'kidladi.

Sintez istiqboli xizmat innovatsiyasining assimilyatsiya va chegaralanish istiqbollarini tanqid qiladi. Ushbu istiqbolning asosiy g'oyasi shundan iboratki,

---

[15] Skålén P., Gummerus J., Koskull C. von, & Magnusson P. R. (2014). Exploring value propositions and service innovation: a service-dominant logic study. *Journal of the Academy of Marketing Science*, 1–22.

[16] Tether, B. S. (2005). Do Services Innovate (Differently)? Insights from the European Innobarometer Survey. *Industry & Innovation*, *12*(2), 153–184.

[17] Drejer I. (2004). Identifying innovation in surveys of services: a Schumpeterian perspective. *Research Policy*, *33*(3), 551–562.

[18] Gadrey J., Gallouj F., & Weinstein O. (1995). New modes of innovation: How services benefit industry. *International Journal of Service Industry Management*, *6*(3), 4–16.

xizmat ko'rsatish innovatsiyasi nazariyalari xizmatlar va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarni qamrab oladigan darajada keng bo'lishi kerak va texnologik innovatsiyalar bilan cheklanib qolmagan integrativ istiqbolni ta'minlashi kerak. Xizmat innovatsiyasining Schumpeter nuqtai nazari[19] iqtisodiy rivojlanish oldingi yechimlarga qaraganda iqtisodiy jihatdan qulayroq bo'lgan yangi kombinatsiyalar (innovatsiyalar) paydo bo'lishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Garchi bu barcha istiqbollar xizmat innovatsiyasining keng tadqiqot sohasini rivojlantirishga aniq hissa qo'shsa ham, kontseptsiyani aniqlash va xizmat innovatsiyasi nima ekanligini tushunishdagi farqlar chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

MacInnisning[20] marketingga kontseptual hissa qo'shish tizimiga muvofiq, tahlil xizmat innovatsiyalari istiqbollarini farqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tafovut xizmatlar innovatsiyasining turli istiqbollarining asosiy asosiy xususiyatlarini ochib berish orqali ob'ektlar (ta'riflar va maqolalar) qanday farqlanishini ko'rsatadigan tipologik asosni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot nafaqat uchta istiqbolning o'ziga xosligini, balki ularning umumiy jihatlari va xizmat innovatsiyasining yangi istiqbollarini aniqlash mumkinligini ham o'rganadi.

Assimilyatsiya nuqtai nazaridan, xizmat innovatsiyasini ta'riflagan ko'pgina maqolalarda "innovatsiya" atamasi ishlatilgan. Bu mahsulot innovatsiyasidan tushunchalar va ta'riflarni olish va ulardan xizmat ko'rsatish tadqiqotlarida foydalanish an'analariga mos keladi. Ushbu yondashuvni qo'llagan tadqiqotchilar xizmatni alohida toifa sifatida tan olishmadi; aksincha, ular mahsulot, xizmatlar va jarayonlar uchun "innovatsiya" atamasini ishlatishgan.

Xizmat innovatsiyasiga yangi xizmat (taklif) sifatida qarash assimilyatsiya, demarkatsiya va sintezning uchta istiqbolini kesib tashlaydi. Assimilyatsiya nuqtai nazaridan, "yangi" va "xizmat" to'liq matnli tahlilda eng yuqori markaziy o'lchovlarga ega. Demarkatsiya va sintez uchun "yangi" va "xizmat" ta'riflarda (to'liq matn tahlili emas) eng markaziy belgilar sifatida chiqadi. Qizig'i shundaki, "yangi" so'zi har bir ta'rifda o'rtacha bir necha marta ishlatilgan. Ko'rinishidan, xizmat innovatsiyasini "yangi xizmat" sifatida oddiygina ta'riflash eng keng tarqalgan talqin bo'lib, har bir firma ma'lum darajada innovatsion va xizmat innovatsiyalarini rivojlantiradi.

Biroq, xizmat innovatsiyasini yangi xizmat sifatida ko'rish muammosiz emas, chunki "yangi" nisbiy tushunchadir. Yangilikka ko'proq e'tibor berish radikal xizmat innovatsiyasini anglatadi va yangilik firma uchun yangi, bozorda yangi yoki dunyo uchun yangi degan ma'noni anglatadi. Xizmat innovatsiyasining kontseptualizatsiyasi firma uchun yangi xizmat doirasidan

[19] Flikkema M., Jansen P., & Van Der Sluis, L. (2007). Identifying Neo-Schumpeterian Innovation in Service Firms: A Conceptual Essay with a Novel Classification. *Economics of Innovation & New Technology*, *16*(7), 541–558.

[20] MacInnis D.J. (2011). A Framework for Conceptual Contributions in Marketing. *Journal of Marketing*, *75*(4), 136–154.

tashqariga chiqishi va xarakterli "yangi"ning haqiqiy ma'nosini qo'yishi kerak. Yangilikni ta'kidlab, tadqiqotchilar va menejerlar xizmat ko'rsatish sohasidagi tub innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qanday tashkiliy tadbirlar zarurligini aniqlashlari mumkin.

Xizmat innovatsiyasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish xizmat innovatsiyasi nima ekanligini tushunishga hissa qo'shadi. Xizmat innovatsiyasi bo'yicha oldingi adabiyotlarni ko'rib chiqishlar yangi xizmatlarni ishlab chiqish bo'yicha adabiyotlarni o'z ichiga olgan sifatli yoki tavsiflovchi[21] tahlillarni o'tkazgan. Tarmoq tahlili va matnni to‘liq o‘rganishdan foydalangan holda xizmat innovatsiyasini nazariy tushunishga bir qator muhim hissa qo'shadi, ya’ni:

birinchidan, xizmat ko'rsatish innovatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati asosiy tushunchani aniqlay olmadi. Garchi ma'lum darajada "yangi xizmat" sifatida xizmat ko'rsatish innovatsiyasiga umumiy nuqtai nazar mavjud bo'lsa-da, bu yetarli ta'rif emas, bu barcha firmalar xizmat ko'rsatish innovatsiyalarini ishlab chiqishlarini ko'rsatadi. Nazariy, amaliy yoki siyosat nuqtai nazaridan foydalanib, barcha firmalar innovatorlar deb da'vo qilish unumli emas, chunki bu bizga innovatsiyalar brendlar, firmalar yoki jamiyatlarni qurishda qanday yordam berishi mumkinligini tushunishga yordam bermaydi. Masalan, assimilyatsiya nuqtai nazaridan innovatsiya ko'pincha "radikal texnik innovatsiya" degan ma'noni anglatadi; demarkatsiya nuqtai nazaridan ko'pincha firma uchun "kichik jarayonga moslashish" degan ma'noni anglatadi; sintez nuqtai nazaridan, u ko'pincha yangi xizmatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ishora qiladi. Xizmat innovatsiyasining umumiy ko'rinishini baham ko'rish, keyingi empirik tadqiqotlarda xizmat innovatsiyasini yaxshiroq ishlatish uchun nazariyani yaratish va tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi;

ikkinchidan, ushbu tadqiqot har bir nuqtai nazardan xizmat ko'rsatish innovatsiyasining ta'riflarida asosiy xususiyatlarni aniqlaydi. Mahsulot va jarayon har uch nuqtai nazar bo'yicha ta'riflarda mavjud, ammo xizmat innovatsiyasini tushunish uchun yetarli emasligi isbotlangan. Bundan tashqari, har bir nuqtai nazardan xizmat ko'rsatish innovatsiyasining ta'riflari o'ziga xos asosiy xususiyatlarni ham ta'kidlaydi. Demarkatsiya nuqtai nazaridagi ta'riflar firma va mijozlar dixotomiyasini kiritdi, sintez nuqtai nazaridagi ta'riflar esa qiymatga urg'u bera boshladi. Xizmat innovatsiyasini ta'riflashda yangi asosiy xususiyatlarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sohasidagi tadqiqotlar innovatsiyani tashkil etuvchi narsaga nisbatan kengaytirilgan istiqbolga hissa qo'shdi;

uchinchidan, Shumpeter innovatsiyalarning rivojlanish jarayoni, natijasi va tijoratlashuvi o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatdi. Biroq, bu farq hozirgi

[21] Biemans W.G., Griffin A., & Moenaert R.K. (2015). New Service Development: How the Field Developed, Its Current Status and Recommendations for Moving the Field Forward. *Journal of Product Innovation Management*

tadqiqotlarda xizmat innovatsiyasi bo'yicha chegaralanish yoki sintez nuqtai nazaridan keyin yo'qolgan ko'rinadi. Bu ikki istiqbol ko'pincha xizmat innovatsiyasi kontseptsiyasini belgilovchi rivojlanish jarayonini o'z ichiga oladi; Fokusni ayirboshlash qiymatidan foydalanish qiymatiga o'zgartirish orqali tijoratlashtirish jarayoni e'tiborga olinmaydi. Garchi bu xizmat tadqiqotchilariga xizmat innovatsiyasining yangi xususiyatlarini aniqlash imkonini bersa-da, bu keyingi nazariy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, chunki bu ba'zi yangi xizmatlarning nima uchun muvaffaqiyatli bo'lishini tushuntirishga yordam bermaydi va boshqalar.

Xizmat innovatsiyasining turli istiqbollari turli xil innovatsiyalarning mazmuni va paydo bo'lishini tushuntirishi mumkin. Kompaniyalar o'zlarining innovatsion sa'y-harakatlarini muvozanatlashlari kerak. Ushbu klassik dilemmada kompaniyalar, agar ular omon qolishni xohlasalar, ekspluatatsiya va izlanishlar yoki bosqichma-bosqich va radikal innovatsiyalar o'rtasida kelishuvga erishishlari kerak. Xizmat innovatsiyasi muvozanatlash harakatlariga yangi o'lchov qo'shadi va yuqorida ko'rib chiqilganidek, xizmat innovatsiyasi bilan qanday muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tushunish uchun bir nechta istiqbollar zarur.

Raqamli iqtisodiyot innovatsion rivojlanish, tovarlar, xizmatlar va mehnat bozori, moliyaviy aktivlar va to‘lov tizimlarini innovatsion asosda tashkil etish uchun ulkan salohiyatdir. Raqamlashtirish barqaror iqtisodiy o‘sish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari va innovatsion tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish, aholi turmush sifatini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi, shuningdek, mamlakatimizga jahon reytingida yuqori o‘rinlarni egallash imkonini beradi. Bu texnologik va xizmat ko'rsatish innovatsiyalarining kombinatsiyasini talab qiladi, chunki innovatsion xizmat ko'rsatish tizimlari ushbu muammolarning asosini tashkil etadi. Xizmat innovatsiyasi hashamat yoki bo'rttirilgan ehtiyoj emas, bu bizning ijtimoiy, iqtisodiy farovonligimizning asosidir. Natijada, xizmatdagi yangi g'oyalar sohaning har tomonlama rivojlanishini, uning jozibadorligi va rentabelligini rag'batlantiradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalar xizmat ko‘rsatuvchi iste’molchilar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida tajriba almashishni ham kengaytirishga, ham cheklashga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Menor L.J., Tatikonda M.V., & Sampson S.E. (2002). New service development: areas for exploitation and exploration. *Journal of Operations Management, 20*(2), 135–157.

2. Schumpeter, J. (1934). Theories of economic development. *Cambridge, MA*.

3. Coombs R., & Miles I. (2000). Innovation, Measurement and Services: The New Problematique. In J.S. Metcalfe & I. Miles (Eds.), *Innovation Systems in the Service Economy* (pp. 85–103). Springer US.

4. Pavitt K. (1984). Sectoral patterns of technical change: Towards a taxonomy and a theory. Research Policy, 13(6), 343–373.

5. Hipp C., & Grupp H. (2005). Innovation in the service sector: The demand for service-specific innovation measurement concepts and typologies. Research Policy, 34(4), 517–535.

THE IMPORTANCE OF TEACHING VOCABULARY

Mohichehra Rustamovna Akramova teacher of the Department of "Languages" of Samarkand branch of Tashkent University of Information Technologies m.akramova05@gmail.com (+998883935151)

Аннотация: В данной статье рассматриваются важность словарного запаса в обучении. Словарный запас представляет собой один из наиболее важных навыков, необходимых для преподавания и изучения иностранного языка.

Ключевые слова: словарь, иностранный язык, лингвистические материалы, современная тенденция, словообразование.

To know a language means to master its structure and words. Thus, vocabulary is one of the aspects of the language to be taught in school. The problem is what words and idioms pupils should retain. It is evident that the number of words should be limited because pupils have only 2-4 periods a week; the size of the group is not small enough to provide each pupil with practice in speaking; schools are not yet equipped with special laboratories for individual language learning. The number of words pupils should acquire in school depends wholly on the syllabus requirements. The latter are determined by the conditions and method used. For example, experiments have proved that the use of programmed instruction for vocabulary learning allows us to increase the number of words to be learned since pupils are able to assimilate them while working independently with the programme.

The vocabulary, therefore, must be carefully selected in accordance with the principles of selecting linguistic material, the conditions of teaching and learning a foreign language in school.

Scientific principles of selecting vocabulary have been worked out. The words selected should be (1) frequently used in the language (the frequently of the word may be determined of mathematically by means of statistic data); (2) easily combined (*nice room, nice weather*); (3) unlimited from the point of view style (*oral written*); (4) included in the topics word- building (*use, used, useful, useless, usefully, user, usage*).

The first principle, word frequency, is an example of a purely linguistic approach to word selection. It is claimed to be the soundest criterion because it is completely objective. It is derived by counting the number of occurrences of

words appearing in representative printed material comprising novels, essays, plays, poems, newspapers, textbooks, and magazines.

Modern tendency is to apply this principle depending on the language activities to be developed. For developing reading skills pupils need “reading vocabulary”, thus various printed texts are analysed from the point of view of word frequency. For developing speaking skills pupils need “speaking vocabulary”. In this case the material for analysis is the spoken language recorded. The occurrences of words are counted in it and the words more frequently used in speaking are selected.

The other principles are of didactic value, they serve teaching aims. The words selected may be grouped under the following two classes.

1. Words that we talk with or form (structural) words which make up the form (structure) of the language.

2. Words that we talk about or content words. In teaching vocabulary for practical needs both structural words and content words are of great importance. That is why they are included in the vocabulary minimum.

The number of words and phraseological units the syllabus sets for a pupil to assimilate is 1.200. They are distributed in the following way: 800 word in the eight-year school, the rest in the ten-year school. The textbooks now in use contain more word units than the syllabi set.

The selection of the vocabulary although important is not the teacher’s chief concern; it is only “what” of teaching and is usually prescribed for him by textbooks and study guides he uses. The teacher’s concern is “how” to get his pupils to assimilate the vocabulary prescribed. This is difficult and it is still in the process of being solved.

It is generally known that school leaver’s vocabulary is poor. They have trouble with hearing, speaking, reading, and writing. One of the reasons is poor teaching of vocabulary.

The teacher should bear in mind that a word is considered to be learned when: (1) it is spontaneously recognized while auding and reading; (2) it is correctly used in speech, i.e., the right word in the right place.

Learning the words of a foreign language is not an easy business since every word has its form, meaning and usage and each of these aspects of the word may have its difficulties. Indeed, some words are difficult in form (daughter, busy, bury, woman, women) and easy in usage; other words are easy in form (enter, get, happen) and difficult in usage. Consequently, words may be classified according to the difficulties pupils find in assimilation. In Methodology some attempts allows us to distinguish the following groups of words: concrete, abstract, and structural. Words denoting concrete things (book, big, good) are easier to learn than words denoting abstract notions (word, home, believe, promise, honest). Structural words are the most difficult for Russian-speaking pupils. In teaching pupils a foreign language the teacher should bear this in mind when preparing for the vocabulary work during the lesson.

Words denoting concrete things (book, street, sky), actions (walk, dance, read), and qualities (long, big, good) are easier to learn than words denoting abstract notions (word, home, believe, promise, honest). Structural words are the most difficult for Russian-speaking pupils.

Words are elements of the language used in the act of communication. They are single units, and as such cannot provide the act of communication by themselves; they can provide it only when they are combined in a certain way. Sometimes separate words may be used in the act of communication, however, for example:

___ You have relatives, haven't you?

___ Yes, a grandmother.

The word grandmother is used instead of the sentence pattern. Yes, I have a grandmother.

Charles Fries says: "It is not the meaning of the words themselves but an intricate system of formal features which makes possible the grasp of what we generally call *meaning*. Train, boy, house, take-conveys no meaning. '*They boy takes a train to his house*' is full of meaning." He concludes, the meaning is not in the words themselves but in the words as a pattern".

Presentation of new words. Since every word has its form, meaning, and usage to present a word means to introduce to pupils its forms (phonetic, graphic, structural, and grammatical), and to explain its meaning, and usage.

The techniques of teaching pupils the pronunciation and spelling of a word are as follows: (1) pure or conscious imitation; (2) analogy; (3) transcription; (4) rules of reading. Since a word consists of sounds if heard or spoken and letters if read or written the teacher shows the pupils how to pronounce, to read, and write it. However the approach may vary depending on the task set (the latter depends on the age of pupils, their progress in the language, the type of words,) For example, if the teacher wants his pupils to learn the word orally first, he instructs them to recognize it when hearing and to articulate the word as an isolated element (a book) and in a sentences pattern or sentence patterns alongside with other words. (*This is a book. Give me the book. Take the book. Put the book on the table*).

As far as the form is concerned the pupils have put two difficulties to overcome: to learn how to pronounce the world both separately and in speech; and to recognize it in sentence patterns pronounced by the teacher, by his classmates, or by a speaker in case the tape recorder is used.

If the teacher wants his pupils to learn the word during the same lesson not only for hearing and speaking but for reading and writing as well, he shows them how to write and read it after they perform oral exercises and can recognize and pronounce the word. The teacher writes down the word on the blackboard (let it be spoon) and invites some pupils to read it. The pupils read the word and put it dawn in their notebooks. In this case the pupils have two more difficulties to overcome: to learn how to write and how to read the word;

the latter is connected with their ability to associate letters with sounds in a proper way. Later when pupils have learned the English alphabet and acquired some skills in spelling and reading they may be told to copy the new words into their exercises-books and read and write them independently; this work being done mainly as homework. The teacher then has his pupils perform various oral exercises during the lesson; he makes every pupil pronounce the new words in sentence patterns and use them in speech. Since this is the most difficult part of work in vocabulary assimilation it can and must be done during the lesson and under the teacher's supervision.

There are two methods of conveying the meaning of words: direct method and translation. The direct methods of presenting the words of a foreign language brings the learner into direct contact with them, the mother tongue does not come in between, it establishes links between a foreign word and the thing or the concept directly. The direct method of conveying the meaning of foreign words is usually used when the words denote things, objects, their qualities, sometimes gestures and movements, which can be shown to and seen by pupils, for example: a computer, a table, black, small, take, stand up, etc. The teacher should connect the English word he presents with the object, the notion it denotes directly, without the use of pupils' mother tongue.

In conclusion, according to my point of view, vocabulary is the most important skill when learning/teaching a foreign language. It is on vocabulary that all the other skills like reading; writing, speaking, and listening are based and developed. This has shown why it is important to learn new words.

References

1. Brooks N. Language and Language Learning. N.Y., 1960.

2. Bruner J. S. The Process of Education. Cambridge, 1965.

3. Carroll J. Research on Teaching Foreign Language. Tunis, March, 1967.

4. Carroll J. The study of Language. Cambridge Harvard Univ.press, 1955.

5. French F. G. The Teaching of English Abroad. London, 1961.

6. Fries Ch. C. The Structure of English. Longmans, London, 1957.

7. Gurrey P. Teaching English as a Foreign Language. Longmans,London, 1963.

8. Huebener Th. How to Teach Foreign Language Effectively. N. Y., 1959.

9. Moon A. R. Practical Exercises in English. London, 1963.

10. Pooley R. C. Linguistics and the Teaching of the English Language. N. Y. 1967.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ИННОВАЦИОН АСОСДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аҳтамова М.Э. - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти Менежмент кафедраси в.б доценти, PhD, mohigulahtamova8@gmail.com

Annotatsiya: raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm boshqaruv tizimini jadal rivojlantirishda jahon sayohat innovatsion xaritasiga mos sayohlik industriyasining eng yaxshi tendentsiyalari ilmiy asoslanildi.

Tayanch so'zlar: raqamli iqtisodiyot, turizm boshqaruv, jahon sayohat innovatsion xaritasiga, innovatsiya, sayohlik industriyasi.

Аннотация: В условиях стремительного развития системы управления туризмом в условиях цифровой экономики научно обоснованы лучшие тенденции туристической отрасли, соответствующие мировой карте инноваций в сфере туризма.

Ключевые слова: цифровая экономика, менеджмент туризма, карта мировых туристических инноваций, инновации, туристическая индустрия.

Abstract: In the context of the rapid development of the tourism management system in the digital economy, the best trends in the tourism industry are scientifically substantiated, corresponding to the world map of innovations in the field of tourism.

Key words: digital economy, tourism management, map of world tourism innovations, innovations, tourism industry.

Рақамли иқтисодиёт шароитида туризм соҳаси бошқарув тизимини жадал ривожлантириш, айниқса туристик хизматларни диверсификация қилиш сифатли бошқарувга эришиш, туризм инфратузилмасини бошқарув жараёнларини ривожлантиришни ҳисобга олган ҳолда тараққий эттириш устувор вазифалардан ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни ривожлантириш тўғрисида”ги қарори алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу қарорнинг ижросини таъминлаш учун рақамли иқтисодиётнинг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2023-йилга бориб икки баравар, электрон давлат хизматлари улушини эса 2022-йилгача 60 фоизга етказиш режалаштирилган.

Республикамизда туризм бошқарув тизимини инновацион асосда ривожлантиришнинг биринчи шарти унга инвестицион жозибадорлиги ва фаоллигини ошириш бўлса, иккинчи шарти эса туризм сохаси тараққиёт асосида янги иш ўринларини яратиш ҳисобланади. Жахонда Саёҳат инновацион харитасига асосланиб сайёҳлик индустриясининг туризм бошқарув тизимига мос 9 та энг яхши тенденциялари таъсири илмий асосланилди. Жумладан:

1. Сунъий интеллект
2. Иммерсив туризм
3. Нарсалар интернети
4. Контактсиз саёҳат
5. Катта маълумотлар ва таҳлиллар
6. Пандемиядан кейинги туризм
7. Турни премиумлаштириш
8. Экотуризм
9. Блокчейн

Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб сайёҳлик индустриясининг энг яхши тенденцияларидан бири сифатида сунъий интелект тадқиқ этилди. Туризмда сунъий интеллектдан фойдаланиш саёҳатни муаммосиз режалаштиришни таъминлайди, сайёҳларга турли жойлар ва экскурсияларга деярли ташриф буюриш имконини беради. Туризм индустрияси операцияларининг кўринишини оширади ва йўловчиларга ўз юкларини янада самарали кузатиш имконини беради. Бундан ташқари, шахсийлаштирилган ва ҳашаматли саёҳатларга талаб ортиб бормоқда. Бир нечта стартаплар космосда дам олиш учун саёҳат қилиш имконини беради ва йўловчиларга барқарор саёҳат имкониятларини таклиф қилади.

Шу билан бирга жаҳондаги сайёҳат харитасидаги иммерсив туризм сайёҳлик индустирияси муҳим ҳисобланади. Таҳлиллар шуни кўрсатадики иммерсив туризм саёҳатчилар орасида мазмунли тажрибага ортиб бораётган талабни ҳал қилади. У саёҳат тажрибасини яхшилаш ва ҳатто виртуал саёҳатларни тақдим этиш учун фойдаланади. Иммерсив туризм компьютер томонидан яратилган муҳит орқали асл жойларнинг симуляциясини яратади, бу сайёҳларга саёҳат қилишдан олдин йўналишларга виртуал ташриф буюриш имконини беради. Шунингдек, у саёҳатчиларга диққатга сазовор жойларга 360 градуслик саёҳатни таклиф қилади. Бошқа томондан, навигация хариталари ва рекламалар каби интерактив элементлар орқали саёҳат тажрибасини яхшилайди.

Сайёҳлик туризм тенденцияларидан нарсалар интернети алоҳида аҳамиятга эга. Унга кўра нарсалар интернети айёҳлик компаниялари кейинги ташрифларида хизматларни шахсийлаштириш учун фойдаланадиган кўплаб маълумотларни яратади. Меҳмонхоналар хона ёритилиши, ҳарорат ва атмосферани бошқаришни автоматлаштирадиган, меҳмонларнинг қулайлигини оширадиган ақлли хоналарни ёқиш учун НИ сенсорларидан фойдаланади. Ушбу сенсорлар жиҳозларни созлаш ва энергияни тежаш учун бўш хоналарни ҳам аниқлайди. Бу қурилиш углерод изи ва энергия харажатларини камайтиради. Бундан ташқари, стартаплар мижозларга жойлашувга оид маълумотларни юбориш учун нарсалар интернетидан фойдаланадилар. Бунга багажни кузатиш ва ўғирлик ёки нотўғри жойлашиш ҳолатлари ҳақида саёҳатчиларни огоҳлантириш киради.

Яна бир мухим сайёҳлик индустриясининг тенденциялари сифатида контактсиз саёҳат устивор аҳамиятга эга. Унга кўра, контактсиз саёҳат дастлаб сайёҳлар учун қулай тажрибани тақдим эта бошлаган бўлса-да, пандемия саёҳатчилар хавфсизлигини таъминлаш учун зарурат туғдирмоқда. Тўр пардани сканерлаш каби контактсиз таниш технологиялари паспорт ва бошқа саёҳат ҳужжатлари ўрнини эгаллайди. Бу йўловчиларни идентификациялашни тезлаштиради ва аэропортда узун навбатларнинг олдини олади. Сайёҳлик компаниялари сайёҳларга ўзларининг мобил қурилмаларида қизиқтирган маълумотларга киришлари учун QR кодларини таклиф қилишади, бу эса фаолликни оширади. Бундан ташқари, меҳмонхоналар ташриф буюрувчиларга келишидан олдин хизматларни тақдим этиш имконини берувчи контакциз ўз-ўзини рўйхатдан ўтказишни осонлаштиради. Меҳмонхоналар ва ресторанлар ҳам тез ва хавфсиз транзакцияларни амалга ошириш учун ташриф буюрувчиларга контакциз тўлов усулларини таклиф этади.

Жаҳон сайёҳат инновацион харитасига асосланган катта маълумотлар ва таҳлиллар сайёҳлик индустриясининг тури алоҳида тадқиқотни талаб этади. Мазкур катта маълумотлар сайёҳлик компанияларига стратегик маркетинг учун мижозлар тенденциялари билан ёрдам беради. Меҳмонхоналар, таксилар, рейслар ёки чипталарни брон қилиш учун мослаштирилган тавсиялар бериш учун саёҳатчиларнинг хатти-ҳаракатларини таҳлил қилади. Катта ма’лумотлар ва таҳлилий ечимлар келажакдаги талабни ҳам башорат қилиб, меҳмонхоналар ва авиакомпанияларга юқори талаб даврларини аниқлаш ва даромадни максимал даражада ошириш имконини беради. Катта маълумотлардан яна бир фойдаланиш - транзакция маълумотларини илғор таҳлил қилиш орқали кибер фирибгарликни аниқлаш. Шундай қилиб, сайёҳлик компаниялари кредит карта маълумотлари ва биометрик маълумотлар каби нозик мижозлар маълумотларининг хавфсизлигини таъминлайди.

Тадқиқотдаги пандемиядан кейинги туризм саёҳат чекловлари юмшатилгани сабабли, компаниялар мижозлар ишончини тиклаш учун саёҳатчиларнинг хавфсизлиги ва гигиенасини таъминламоқда. Масалан, меҳмонхоналар никоб кийиш, ижтимоий масофани сақлаш, хоналарни дезинфекция қилиш ва бошқалар каби ҳимоя чораларига риоя қилишади. Саёҳат компаниялари, шунингдек, рақамли соғлиқни сақлаш паспортлари ёрдамида йўловчиларнинг соғлиғи ҳақидаги маълумотларни текширадилар. Бундан ташқари, COVID-19 нинг бошланиши кўпчиликни уйдан ишлашга мажбур қилди. Бинобарин, пандемиядан кейинги саёҳат тенденциялари масофавий ишлашни туризм билан уйғунлаштиришнинг ўсишига гувоҳлик беради. Стартаплар, шунингдек, изчил иш тажрибаси учун интернетга уланиш ва сокин муҳит каби имкониятларни таклиф қилишади.

Сайёҳлик индустриясининг энг яхши тенденцияларидан бири ҳисобланган “турни мукофотлаш” нихоятда муҳим ҳисобланади. Маълумки, саёҳатда гиперперсоналлаштиришга талаб ортиб бормоқда. Сайёҳлар янги тажрибаларни излайдилар ва турли маданиятларни ўрганадилар. Тур премиумизацияси ҳашаматли саёҳатчиларга интуитив хизматлар билан мослаштирилган тажрибани таклиф қилади. Саломатликни мустаҳкамловчи дам олиш масканлари, шунингдек, детоксификация учун тўйимли озиқ-овқат таклиф қилади. Бундан ташқари, космик туризм одамларга космосга дам олиш ёки илмий тадқиқотлар учун саёҳат қилиш имконини беради. Ниҳоят, стартаплар мижозларнинг содиқлигини ошириш ва мижозлар билан яқин муносабатларни ривожлантириш учун саёҳатга аъзолик ёки обуна моделларидан фойдаланади.

Жахонда туризм инновацион харитасини шакллантиришда ҳамда сайёҳлик индустриясида энг муҳим туризм тенденцияси бу экотуризмдан иборатлигидир. Маълумки бундай туризм натижасида масъулиятли саёҳат туризмнинг атроф-муҳитга салбий таъсирини камайтиради ва маҳаллий ҳамжамиятларнинг фаровонлигини қўллаб-қувватлайди. Экотуристлар саёҳат пайтида углерод изларини минималлаштиришга фаол интилишади. Бунга ёрдам бериш учун кўплаб стартаплар барқарор транспорт усуллари, экология ва қуёш энергиясидан фойдаланадиган курортларни ишлаб чиқади. Бундан ташқари, авиакомпания йўловчилари рейсларни брон қилишда углерод чиқиндиларини қоплашади. Маҳаллий туризм кичик бизнесни иқтисодий жиҳатдан ривожлантиради ва кўпроқ иш ўринлари яратади. Шунингдек, у энг кам ахлатга эътибор беради, бу эса ифлосланишни ва тозалашга сарфланган вақтни камайтиради.

Саёҳат саноатини блокчейн тенденцияси операцион шаффофлик ва хавфсизлик билан таъминлайди. Блокчейннинг асосий қўлланмаларидан бири, айниқса халқаро саёҳатларда кузатилиши мумкин бўлган тўловларни таъминлашдир. Бу битим тузаётган томонлар ўртасидаги ишонч даражасини оширади. Кўпгина сайёҳлик фирмалари мижозларнинг содиқлик дастурларини яратадилар, бу эрда саёҳатчилар ўз балларини крипто валютасига алмаштирадилар. Блокчейн шунингдек, маълумотларнинг сизиб чиқишини юмшатиб, маълумотларни сақлаш хавфсизлигини оширади.

Умуман, юқоридагилардан келиб чиқиб туризм бошқарув тизимини инновацион асосда ривожланитиришда жаҳон сайёхат инновацион харитасига асосланган сайёҳлик индустриясини энг яхши тенденциялари рақамли иқтисодиёт шароитига мос иқтисодий тараққиётнинг янги имкониятларини очиб беради.

Адабиётлар руйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори 2022 йили 28 апрел ПҚ-3549-сон;

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Фармони, 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон;

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”даги 2018 йил 14 майдаги ПҚ-3724-сон қарори;

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Рақамли иқтисодиётни жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар, электрон ҳукумат, шунингдек, давлат бошқарувидаги ахборот тизимлари Ўзбекистон Республикаси” тўғрисида”ги 2018 йил 13 декабрдаги ПФ-5598-сонли Фармони;

5. https://www.startus-insights.com/innovators-guide/travel-trends-innovation

АГРОСЕРВИС СОҲАСИДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ АҲАМИЯТИ

Юлдашова Нилуфар Зиябаевна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси ассистенти

Аннотация: мақолада агросервис соҳасининг рақамли иқтисодиётда аҳамияти, самарадор технологияларнинг агросервисга кириб келиши, ҳамда сервис хизматларининг ривожлантириш йўналишлари кўрсатилган.

Калит сўзлар: агросервис хизматлари, рақамли иқтисодиёт, “ақилли қишлоқ хўжалиги”, инновацион иқтисодиёт, замонавий ахборот коммуникациялари.

Ҳозирги глобаллашув ва юқори даражадаги ахборот алмашинуви даврида аграр секторда ахборот-технологияларининг ҳаётимизда тутган ўрни юқоридир. Ушбу технологиялар иқтисодий жараёнларга фаол кириб келди ва “рақамли иқтисодиёт” терминининг пайдо бўлишига сабаб бўлди. Рақамли иқтисодиёт – бу замонавий ахборотлардан самарали фойдаланиш орқали иқтисодий жараёнларнинг барча қатнашчилари эҳтиёжларини максимал даражада қондиришга қаратилган иқтисодиётдир. Яна шуни айтишимиз мумкинки, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши кўплаб иқтисодий имкониятларни яратади.

Аграр соҳадаги хизмат кўрсатиш жараёнларининг мураккаблашуви, кўрсатилаётган хизматлар илмий кўрсаткичларининг ўсиши, ҳар қандай вазиятда ҳам хизмат кўрсатувчиларнинг барқарорлиги ва молиявий

мустақиллигини сақлаб қолиш имконини берувчи бошқарувнинг самарали услубларига бўлган талабни шакллантиради.

Агросервис хизматларининг ривожлантириш йўналишларини ва янги инновацион ўзгаришлар билан боғлиқ илмий-тадқиқот ишлари билан хорижда ва мамлакатимизда бир нечта олимлар шуғулланишган бўлиб, яъни А.Фишер, Ф.Котлер, Д.Н.Саидова, И.Б.Рустамова, Ш.А.Турсунов, У.Умурзаков, У. Сангирова, М.Қ.Пардаев, Қ.Ж.Мирзаев, О.Муртазаев, А.Н.Холиқулов каби олимлар ўз ҳиссаларини қўшган.

Ҳозирги даврда рақамли иқтисодиёт ва у билан боғлиқ бўлган бир қанча самарадор технологиялар ҳаётимизга шиддат билан кириб келди. Шунинг учун ҳам мамлакатимиз раҳбарияти давлат ва жамият тараққиётини янада жадаллаштириш мақсадида бир нечта қарорларни қабул қилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 3-июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832 сонли қарорида рақамли иқтисодиётнинг мақсад ва вазифаларини белгилаб берилган. 2019 йил 23 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853 сонли фармони қабул қилинди. Ушбу фармон асосида мамлакатимизда “ақлли қишлоқ хўжалиги”ни ривожлантириш давлат дастурини ишлаб чиқиш вазифаси белгилаб берилган. Дунё миқёсида агросервис соҳасида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Ҳозирги вақтда аграр соҳада “ақлли қишлоқ хўжалиги” тушунчаси ҳам пайдо бўлди ва ушбу тушунча қишлоқ хўжалигини, шу жумладан агросервисни замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш орқали ривожлантиришга қаратилган янгича ёндошувидир; ва у ўз навбатида электрон аграр тармоқда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг инновацион усулларини ишлаб чиқиш ва қўллашни ўз ичига олади. Республикамизда 2024 йилдан бошшлаб 2030 йилларгача давлат иқтисодиёти ва ижтимоий тармоқнинг барча соҳалари тўлиқ рақамлаштиришни амалга оширишни режалаштирмоқда. Аграр сектордаги сервис соҳасини оладиган бўлсак, рақамли технологияларни ривожлантириш ва жорий этишнинг босқичлари амага оширилди.

Маълумки, мамлакатлар иқтисодиёти тури ва ривожланиш даражасига қараб, индустриал иқтисодиёт, хом-ашё ишлаб чиқаришга ихтисослашган иқтисодиёт, аралаш иқтисодиёт ва инновацион иқтисодиётига асосланган мамлакатларга бўлинади, ва ўз навбатида, инновацион иқтисодиёт энг юқори ривожланган тури ҳисобланади.

Ҳозирги кунда, рақамли иқтисодиёт шароитида, фан-техника ютуқларини кенг жорий этиш ва улардан самарали фойдаланиш учун турли механизмлар ва институционал тузилмалар, яъни инновацион тизим шаклланмоқда. Аграр секторни барқарорлаштиришда агросервисда хизмат кўрсатувчи корхоналарни технологик жиҳатдан модернизация қилиш устувор йўналишлардан биридир.

Ҳозирги рақамли иқтисодиёт шароитида хизматлар соҳасини ривожлантиришдан нафақат ривожланаётган мамлакатлар, балки ривожланган мамлакатлар манфаатдордир. Масалан, АҚШ кўриб ўтадиган бўлсак- 2020 йилда хизматлар соҳасининг ЯИМдаги улуши 78,8 фоизни ташкил қилган, Германияда – 78 фоиз, Буюк Британияда – 70 фоиз, Кореяда-56 фоизни ташкил қилади. Буларни хулоса қиладиган бўлсак, мамлакатнинг иқтисодиёти ривожланган сари, хизматлар соҳасига талаб ҳам ортиб боради.

Энди МДҲ давлатларини кўриб ўтадиган бўлсак, Белоруссияда бу кўрсаткич 48,8 фоизни ташкил этган, Қозоғистонда 55,5 - фоиз, Қирғизистонда – 50,2 фоизни ташкил этмоқда. Ушбу кўрсаткичлар шундан далолат берадики, МДХ давлатлари барча соҳаларни шакллантириш ва ривожлантиришда хизматлар соҳасини жадал суръатларда ўсишни таъминлаш муҳим аҳамиятга эга, шу жумладан аграр секторда агросервис соҳаси ҳам. Мамлакатимизда эса бу кўрсаткич бу даражада юқори эмас – хизматлар соҳасининг ЯИМдаги улуши 36,3 фоизга тенг.

Шундай бўлишига қарамай, республикамизда агросервис соҳасига катта эътибор қаратилиши натижаси ўлароқ, ушбу соҳанинг таркиби йилдан-йилга шаклланиб, ривожланиб бормоқда. Сўнгги 2010-2022 йилларда хизмат кўрсатиш соҳасининг ялпи ички маҳсулотга нисбатан жадал ўсиб келмоқда, шу билан биргаликда мазкур соҳанинг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улуши ортиб бориши кузатилмоқда. Агар 2010 йилда хизмат кўрсатиш соҳасининг ЯИМдаги улуши 46,9 фоизни ташкил этган бўлса, 2015 йилда 48,7 фоизни ташкил этди, 2020 йилга келиб 36,3 фоизни ташкил этди, яъни хизмат кўрсатиш соҳаси 2022 йилда ўтган йилга қараганда паст даражада ривожланган бўлиб, ўсиш суръати 102,3 фоизни ташкил этди (2020 йилда хизмат соҳасининг ЯИМдаги улуши 35,5 фоизни ташкил этган). Бунинг асосий сабаби мамлакатимизда короновирус пандемияси билан боғлиқ бўлган карантин чекловлари билан боғлиқ.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги ПФ-6159-сонли “Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизими ҳамда замонавий хизматлар кўрсатишни янада ривожлантириш тўғрисида”ги фармон имзоланди; ушбу фармон билан Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизимини 2021-2025 йилларда устувор

ривожлантириш концепцияси тасдиқланди. Концепциянинг асосий мазмуни шундан иборатки, аграр соҳадаги корхоналарни, шу жумладан агросервис корхоналарини истиқболли ривожланишининг мустаҳкам тенденцияларини шакллантириш зарурияти, инновацияларни бошқариш методлари ва уларни мамлакатимиз шароитига мослаштиришга бўлган қизиқишни белгилаб берди.

Аграр секторни ислоҳ қилиш, замонавий технологияларни жорий этиш, агросервисни такомиллаштириш ҳамда хўжаликларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида, қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулоти ҳажми 2022 йилда 2010 йилга нисбатан 9,4 баравар ошиб, 194400 млрд сўмни ташкил этди; 2010-2022 йилларда қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотининг мамлакат ЯИМдаги салмоғи 32,8 дан 27,9, қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотнинг ўтган йилларга нисбатан йиллик ўсиш суръатлари 6,3 дан 3,0 фоизгача пасайган бўлсада, аграр сектор ҳамон мамлакат иқтисодиётининг йирик тармоқларидан бири бўлиб қолмоқда (1-жадвал). 2022 йил якунларига кўра, қишлоқ хўжалигида ижобий ўсиш қайд этилди (чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг 2022 йилда 4,8 фоизга ўсиш ва деҳқончилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг 2022 йилда 4,8 фоизга ўсиш қайд этилди.

1-жадвал

Мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги ривожланишининг динамикаси

Кўрсаткичлар	2010 йил	2015 йил	2022 йил
Қишлоқ хўжалигининг ялпи ички маҳсулотда улуши, фоизда	32,8	34,1	27,9
Қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотининг йиллик ўсиш суръатлари, ўтган йилга нисбатан , фоизда	106,3	106,1	103,0

Аграр секторни модернизация қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш, агросервисда хизмат кўрсатувчи корхоналарини ривожлантириш, уларнинг тури ва сифатини ошириш хорижий инвестицияларни жалб этмасдан, халқаро молия институтларини ва банк тузилмаларининг ёрдами ва қўллаб-қувватлашига таянмасдан туриб эришиб бўлмайди.

Халқаро қишлоқ хўжалигини ривожлантириш фонди, Осиё тараққиёт банки, Жаҳон банки, Ислом тараққиёт банки, Глобал экологик фонд, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг қишлоқ хўжалиги ташкилоти каби бошқа институтлар, шунингдек, хорижий мамлакатлар ҳукуматлари агентликларининг шу борада кўрсатаётган ёрдами катта бўлди. Хусусан, грант лойиҳаларини ошириш учун 2021 йилда 1,1 миллиард доллардан

ортиқ маблағ ва юздан ортиқ инвестиция жалб этилди. Ушбу ажратилган молиявий маблағлар билан бирга, илғор агротехнологияларини жалб этиш, қишлоқ хўжалиги инфратузилмаси, хусусан агросервисда хизмат кўрсатувчи корхоналарни ривожлантириш, маркетинг ва жаҳон бозорларига чиқиш бўйича янги технологияларни жорий қилиш борасида амалий ёрдам ва ҳамкорлик кўрсатган. Ўзбекистон билан БМТнинг аграр соҳасидаги асосий молиявий институти бўлмиш Ҳалқаро қишлоқ хўжалигини ривожлантириш фонди ўртасида ҳамкорлик ўрнатилган бўлиб, асосий вазифаларидан бири юқори самарадорликка эга бўлган аграр секторни тизимини шакллантириш бўйича ёндашувларини амалга оширишдан иборатдир. Ўзбекистон ва Осиё тараққиёт банки ўртасида аграр соҳасининг ўзида умумий қиймати 400 млн доллардан зиёд олтита лойиҳани амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда аграр соҳасида бугунги кунгача Хитой, Жанубий Корея, Италия, Испания, Германия, Голландия ва бошқа мамлакатлардан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилган ҳолда, 400 га яқин корхона ташкил қилинди. Ушбу корхоналар янги маҳсулот етиштиришдан тортиб маҳаллий хомашёни чуқур қайта ишлаш асосида тайёр озиқ-овқат товарларни ишлаб чиқаришг, консалтинг хизматларини кўрсатиш ва бошқа сервис йўналишларда фаолият олиб бормоқда.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, Ўзбекистонда бугунги кунда қулай шарт-шароитлар ва имкониятлар ҳисобга олган ҳолда, агросервис соҳасида рақамли иқтисодиётни шакллантириш ва уни янада такомиллаштириш учун ушбу соҳага қуйидаги таклифларни киритиш мумкин:

-агросервис соҳасига инвестицияларни жалб этишни жадаллаштириш;

-агросервисга АКТларни қўллаш бўйича амалга оширилаётган илмий тадқиқотларни янада жадаллаштириш;

-соҳада замонавий рақамли технологияларни қўллаш учун зарур бўлган инфратузилмани шакллантириш, жумладан агросервис корхоналарини ва уларни ривожлантириб бориш;

-агросервис соҳасининг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда ушбу йўналишда кадрларни тайёрлаш;

-аграр соҳада лизинг муносабатлари, дилерлик, механизация ва техника воситаларига сервис хизматларини доимий такомиллаштириб бориш;

-қишлоқ хўжалиги машинасозлиги заводидан бошлаб, механизация хизмати кўрсатувчи корхоналар ва қишлоқ хўжалиги корхонасигача модернизация имкониятларини ишга солиш;

-аграр соҳада инновацион хизмат кўрсатувчи, яъни консалтинг фирмаларни шакллантириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 3 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832 сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрда “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853 сонли фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги ПФ-6159-сонли “Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизими ҳамда замонавий хизматлар кўрсатишни янада ривожлантириш тўғрисида”ги фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Статистик тўплам. -Т.: 2020 й.

5. Д.Н.Саидова, И.Б.Рустамова, Ш.А.Турсунов “Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги” Ўқув қўлланма. Т.: “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси асосий кутубхонаси” босмахонаси нашриёти, 2016.-78 б.

6. У.Умурзаков, У.Сангирова “Экономика АПК” Учебное пособие,-Т.:ТМИИИМСХ, 2019.-101 стр

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAISHIY XIZMAT KO’RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI

Bozorov Dadaxon Berdimurodovich
SamDU mustaqil tadqiqotchisi
bozorov2040@mail.ru

Annotatsiya. Maqola iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida zamonaviy maishiy xizmatlar turlariga talabning oshishi va bu borada vujudga keladigan qiyinchiliklarni yoritishga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar. Yalpi ichi mahsulot, mehnat samaradorligi, maishiy xizmat, ishchi kuchi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. Статья посвящена вопросам увеличения спроса на современные бытовые услуги в условиях инновационного развития экономики и трудностям, возникающим в связи с этим.

Ключевые слова. Валовой внутренний продукт, производительность труда, бытовые услуги, рабочая сила, цифровая экономика.

Xizmatlar sohasi har qanday iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo‘lganlar soni bo‘yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, umumiy bandlarning 70,0 %dan ortig‘i va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmining 40,0 % xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta’minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kamaytiradi vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish ayni paytda yuqori sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi. Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog‘liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o‘z ichiga oladi va ushbu iqtisodiyot sharoitida xizmat ko’rsatish sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir.

Xizmat ko‘rsatish sohasida maishiy xizmatlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu soha asosan xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik yordamida rivojlanadi. Uning ahamiyati, birinchi navbatda, sohada qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi turmush darajasini oshirish, zamonaviy maishiy xizmat turlari safini kengaytirish orqali maishiy xizmat ko‘rsatish bozorini kengaytirish, qo‘shimcha daromad olish evaziga uning bir qismini qilingan to‘lovlar orqali davlat budjetining daromadini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Bunda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish omillari va shart-sharoitlarini tadqiq etish hamda sohada mavjud muammolarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida maishiy xizmatlarning miqdori va sifatiga qo‘yilayotgan talablar muntazam oshib bormoqda. Raqamli xizmatlar ko‘rsatishning rivojlanib borishi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida ham zamonaviy xizmat turlariga talabning o‘sishiga sabab bo‘ldi. Ushbu omil iste’mol bozori tuzilmasidagi muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, aholi ayrim qatlamlari turmush darajasining oshishi natijasida iste’molchilarning hayotiy qulayliklarga ega har xil turdagi zamonaviy maishiy xizmatlarga talabining oshishi yuzaga kelmoqda. Shunga ko‘ra, ko‘pchilik maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘z faoliyatlarini aholining aynan shu talablari, ehtiyojlarini qondirishga qaratmoqdalar.

Aholiga xizmat ko‘rsatishning tasniflagichiga ko‘ra, maishiy xizmatlar kategoriyasiga quyidagilar kiradi:

- poyabzallarni ta’mirlash, bo‘yash va tikish;

- kiyim-kechak, bosh kiyimlar, mo‘yna va charm mahsulotlari, to‘qimachilik galantereya mahsulotlarini ta’mirlash va tikish, tikish va trikotaj, trikotaj buyumlarini ta’mirlash;

- maishiy radioelektronika asbob-uskunalari, maishiy mashinalar va maishiy texnikalarni ta’mirlash, ularga xizmat ko‘rsatish, metall buyumlarni ta’mirlash va ishlab chiqarish;

- mebel ishlab chiqarish va ta’mirlash; quruq tozalash va bo‘yash;

- kir yuvish xizmatlari;

- uy-joy va boshqa binolarni ta’mirlash va qurish;

- transport vositalari, mashinalar va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash;

- fotostudiya, foto va kino laboratoriyalari xizmatlari;

- transport va ekspeditorlik xizmatlari;

- hammom va dush xizmatlari;

- sartaroshlik xizmatlari;

- ijara kompaniyalari xizmatlari;

- marosim va marosim xizmatlari.

Bizning fikrimizcha, aholiga maishiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi:

- nomoddiy ishlab chiqarishning turli shakllari sifatida, shuningdek individual yo‘naltirilgan moddiy ishlab chiqarish hamda iste’mol xususiyatlarini tiklash shakllarida namoyon bo‘ladi;

- ijtimoiy yo‘naltirilganligi, iqtisodiy nafliligi va milliy boylik shaklida ekanligi bilan ijtimoiy sohaning muhim elementlaridan biri sifatida olib qaraladi;

- ijtimoiy ishlab chiqarish sohasining muhim tarmog‘i sifatida xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek aholiga xizmat ko‘rsatishning mustaqil tarmog‘i sifatida olib qaralishi mumkin.

Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi quyidagilarga yo‘naltirilgan:

1. Aholining turli maishiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini maksimal qondirish;

2. Uy xo‘jaliklari mehnat sarflarining kamayishini ta’minlash;

3. Turmush sharoiti va hayot faoliyatini yaxshilash imkonini beradi;

4. Predmet va buyumlarning iste’mol qiymatini yanada oshirish hamda ularni tiklashga imkon beradi;

5. Ishchi kuchini takror hosil qilishda ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maishiy xizmatlar

ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning to‘laqonli tarmog‘i hisoblanib iste’ mol qilish emas, balki bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish sohasi hamdir.

Maishiy xizmatlarga har qanday davrlarda ham zarurat sezilgan bo‘lsada, bozor munosabatlari sharoitida u yanada dolzarb tus oladi. Shunga ko‘ra, biz tomondan tadqiq qilinayotgan sohaning kelgusida samarali rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur, zero, qo‘llab quvvatlamasdan turib,

xizmatlar sohasini rivojlantirish, bu orqali aholining turmush darajasini oshirish va farovonligini ta’minlash imkonsizdir.

Bizningcha, mamlakatimizda bugungi kunda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

- sohani mahalliy va respublika darajasida me’yoriy-huquqiy tartibga solish tizimining yetarli emasligi;
- mahalliy boshqaruv organlari tomonidan maishiy xizmatlar ko‘rsatish sohasini tartibga solish va muvofiqlashtirishning yetarli emasligi;
- aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar va korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi;
- aholining ko‘rsatilayotgan maishiy xizmatlar sifatidan qoniqmasligi;
- aholining kam daromadli qatlamlariga maishiy xizmat ko‘rsatish jarayonida narx bilan bog‘liq to‘siqlarning mavjudligi;
- maishiy xizmatlar ko‘rsatish jarayoni va xizmatlar sifatining yetarli emasligi;
- aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan maishiy xizmatlar majmuining mavjud emasligi;
- maishiy xizmat ko‘rsatish subyektlarining hududiy jihatdan notekis taqsimlanganligi;
- maishiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida malakali kadrlar (ayniqsa, kiyimlarni bichish, etikdo‘zlik, murakkab elektronika va zamonaviy maishiy texnika buyumlarini ta’mirlash ustasi)ning yetishmasligi;
- maishiy xizmat ko‘rsatish subyektlari uchun sanitariya-gigiyenik talablarga javob beruvchi xizmat maydonlarining yetarli emasligi;
- maishiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha investitsion resurslar va kredit mablag‘larini jalb etish imkoniyatining yetarli emasligi;
- maishiy xizmatlar sohasida norasmiy faoliyat yuritishning yuqoriligi bois bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini hisobga olishning murakkabligi;
- aholining maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi va turlari bo‘yicha yetarlicha ma’lumotning yo‘qligi;
- maishiy xizmatlar sohasiga oid statistik hisobning yetarlicha yuritilmasligi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik, II qism T.: «Fan va texnologiya». 2008y.

2. Ахинов Г.А. Основы экономики общественного сектора. Курс лекций. Экономический факультет МГУ, ТЭИС, 2003;

3. Максютов В.С., Чуйков А.И. Бытовые услуги потребительской кооперации. Уфимская государственная академия экономики и сервиса, Башкирский кооперативный институт (филиал) РУК. - Уфа: РИО РУНМЦМО РБ, 2007. – С. 67.

ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИК ТУШУНЧАСИ ТАЪРИФИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ташназарова Нафиса – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти

Аннотация: ушбу мақолада иқтисодчи олимларнинг иқтисодий самарадорлик тушунчасига берган таърифлари ўрганилган. Берилган таърифлар мазмун ва моҳиятига кўра учта ёндашувга ажратилган. Хорижлик олимлар ва халқаро стандартлар талаблари ўрганилган. Тадқиқот натижалари асосида иқтисодий самарадорлик тушунчасининг такомиллашган таърифи ишлаб чиқилган.

Калитли сўзлар: иқтисодий самарадорлик, иқтисодий ресурслар, харажатлар, фойдаланилган ресурслар, активлар.

Аннотация: в данной статье рассматриваются определения, данные экономистами понятию экономической эффективности. Данные определения делятся на три подхода по содержанию и сущности. Изучены требования зарубежных ученых и международные стандарты. По результатам исследования разработано уточненное определение понятия экономической эффективности.

Ключевые слова: экономическая эффективность, экономические ресурсы, затраты, используемые ресурсы, активы.

Abstract: this article examines the definitions given by economists to the concept of economic efficiency. The given definitions are divided into three approaches according to content and essence. The requirements of foreign scientists and international standards have been studied. Based on the results of the research, an improved definition of the concept of economic efficiency was developed.

Key words: economic efficiency, economic resources, costs, used resources, assets.

2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида **“Иқтисодиётни электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш ҳамда «Яшил иқтисодиёт» технологияларини барча соҳаларга фаол жорий этиш, иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини 20 фоизга ошириш”**[22] **вазифасининг қўйилиши иқтисодий ресурслардан самарали фойдаланишни тақозо этади.**

Иқтисодий самарадорлик иқтисодий категориядир. Иқтисодиёт фани ва амалий иқтисодиётнинг асосий мақсади ҳам иқтисодий самарадорликка эришиш ҳисобланади. Иқтисодиёт фани вужудга келгандан буён иқтисодий самарадорлик масалалари ўрганилган. Иқтисодиётнинг глабаллашуви, инновацион иқтисодиёт, рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида ҳамда илғор хорижий тажрибалардан самарали фойдаланиш,

[22] 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси //https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

халқаро стандартларни жорий қилиш иқтисодий самарадорликни янгича тавсифлашни зарурият қилиб қўймоқда.

Иқтисодий самарадорлик кўрсаткичи бу кўп қиррали, мараккаб иқтисодий категория бўлиб, бугунги кунда ушбу категориянинг барча томондан якдиллик билан қабул қилинган ягона таърифи мавжуд эмас. Шу боис, мукаммал таърифни яратишга бўлган тадқиқотлар албатта керак.

Биз тадқиқотлар жараёнида "иқтисодий самарадорлик" тушунчасига берилган таърифларни ўрганиб, бир қанча ёндашувлар мавжуд эканлигини эътироф этишимиз мумкин.

Биринчи ёндашувдаги олимлар ишлари ва меъёрий ҳужжатларда иқтисодий самарадорлик натижа (самара) ёки олинган фойда билан ўлчанилади, соф фойда қанчалик катта бўлса самарадорлик ҳам шунча катта бўлади деб эътироф этишади. Жумладан:

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида "Самара бу натижа, оқибат, меваси, деб қаралади. Самарадор тушунчаси эса кутилган ёки ундан ортиқ самара берадиган, самарали, сермаҳсул" [23] деб тавсифланган.

Ўзбекнефтгаз иқтисодчи мутахассисларининг корхона фаолиятига берган хулсаси бўйича "Иқтисодий самарадорлик деганда бир йил давомида амалга оширилган тадбирлар тизими билан боғлиқ бўлган харажатларни улар натижасида олинган соф фойда билан таққослаш тушунилади. Сарфланган харажатлар эвазига олинган соф фойда қанча кўп бўлса, иқтисодий самарадорлик даражаси ҳам ошган ҳисобланади"[24] деб таъриф берилган.

Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев томонидан эса: "…самарадорлик - бу содир бўлаётган бирор иқтисодий жараённинг қандай натижа билан якунланганини ифодалайди"[25] деб изоҳ берилади.

С.А.Абдуҳамидов туризм самарадорлиги бўйича тадқиқотлар асосида "Туризм соҳасида иқтисодий самарадорлик – бу, туристик хизматлар кўрсатиш натижаси бўлиб, унинг асосий кўрсаткичи фойда ҳисобланади. Бу тушунчани кенгроқ маънода қуйидагича тушунишимиз мумкин: Туризмда иқтисодий самарадорлик – бу туристик хизматлар яратиш билан боғлиқ бўлган харажатлар ва туристларга кўрсатилган хизматлардан олинган натижанинг таққосланишини, яъни қанча сарфлаб нимага эришганини билдиради"[26] деб тавсифлайди.

Ушбу йўналишдаги таърифларнинг ижобий томони шундан иборатки, албатта самара фойда билан тавсифланади, агар фойда бўлмаса самарадорлик ҳам бўлмайди. Бизнинг фикримизча, фақат олинган натижа, яъни фойда самарадорлини белгиловчи ягона омил эмас. Қанча харажат ва ресурсларни жалб қилиб бу натижага эришганимизни баҳолаш муҳим

[23] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М.:русский язык 1981-17 б.
[24] https://teletype.in/@sgcc_uzb/slUfjMD9FWt
[25] Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. "Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили". - С., 2007. - 154 б.
[26] С.А.Абдуҳамидов. Туризм корхоналарида иқтисодий самарадорликни аниқлаш усуллари. Диссертация. //http://library.navoiy-uni.uz/files/turizm_korxonalarida__iqtisodij_samaradorlikni_aniqlash_usullari.pdf

аҳамият касб этади. Баъзан амалиётда, барча ресурслардан максимал фойдаланмаган ҳолда ҳам фойда олиш мумкин, чунки мувофиқлик тамойилига асосан фойда даромадлардан шу даромадларни олиш учун ҳисобланган харажатларни чегириш орқали топилади. Фойданинг ушбу методикада аниқланишидан келиб чиқиб, айтиш мумкинки кам фойда олинган ҳолларда иқтисодий ресурслардан самарали фойдаланилди, деб баҳолаб бўлмайди.

Иккинчи ёндашувга киритган олимларимиз иқтисодий самарадорликни олинган натижанинг харажатлар (сарфлар) ва ресурсларга нисбати сифатида тавсифлайди. Бу йўналишдаги олимлар кўпчиликни ташкил этади. Уларнинг тавсифларини қуйида келтирамиз:

Қомусда "**ишлаб чиқариш самарадорлиги** – корхона миқёсида иқтисодий фаолият, иқтисодий дастурлар ва тадбирларнинг фойдали натижалар бериши, олинган иқтисодий самаранинг муайян қийматга эга бўлган ресурсларни қўллаган ҳолда энг юқори ишлаб чиқариш ҳажмига эришишга сабаб бўлган ишлаб чиқариш омиллари, ресурслар сарфларига нисбати билан тавсифланади. Ишлаб чиқариш самарадорлиги корхона фаолиятининг якуний натижасини кўрсатади."[27]

Қ.Х.Абдураҳмонов томонидан қуйидагича таъриф берилади: "Самарадорлик тушунчаси ниҳоятда кенг тушунчадир, у олинган самаранинг сарфларга нисбатини акс эттиради"[28]

А.Ўлмасов, А.Ваҳобов "Самарадорлик ресурс сарфлари билан ишлаб чиқаришдан олинган натижанинг таққосланишини билдиради, яъни бу нима сарфлаб нимага эришганлигини кўрсатади."[29]

Ш.Ш. Шодмонов ва Б.Э. Мамарахимовларнинг фикрига кўра, "фойда олиш мақсадидан келиб чиққан ҳолда олинган фойда (F) ишлаб чиқаришга сарфланган ресурс харажатларига (IX) бўлинганлигига тенг"[30].

С.Д. Предыбайло "иқтисодий самарадорлик натижавийлик, ресурслардан фойдаланиш даражаси ва харажатларнинг қайтимини англатади, қайсики эришилган натижаларнинг ва фойдаланилган ресурслар ёки ишлаб чиқаришга қилинган харажатлар нисбати сифатида аниқланади, яъни ишлаб чиқариш иқтисодий самарадорлиги нисбий миқдор билан тавсифланади."[31]

Артем Моисенко "Иқтисодий самарадорлик – бу кўрсаткич, қайсики иқтисодий натижалар ва харажатлар нисбати сифатида аниқланадиган ҳамда оқибатда ушбу натижани (самара) юзага келтиради. Айтиш

[27] https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-samaradorligi-uz/
[28] Абдураҳмонов Қ.Х. "Меҳнат иқтисодиёти". - Т.: "Меҳнат", 2004. - 398 б.
[29] Ўлмасов А., Вахобов А. "Иқтисодиёт назарияси" (Дарслик) (тўлдирилган ва қайта ишланган нашри). - Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 41-43 б. 14.
[30] Шодмонов Ш.Ш., Б.Э.Мамарахимов "Иқтисодиёт назарияси". Иқтисод-молия 2016 йил. 65-бет.
[31] С.Д.Предыбайло ЛЕКЦИИ по дисциплине «Экономика организации (предприятия)» Гомель 2015 https://core.ac.uk/download/pdf/76000883.pdf 2 стр.

мумкинки, иқтисодий самарадорлик бу натижаларнинг харажатларга нисбатига тенг”[32] деб тавсифлайди.

Ушбу йўналишдаги олимларнинг иқтисодий самарадорликка берган таърифларини баҳолашда рус олими О.Е. Оборинанинг қуйидаги фикрини келтирамиз: “Хорижий ва россиялик муаллифларнинг берган таърифларини солиштириш натижасида хулоса қилиш мумкинки, “иқтисодий самарадорлик” тушунчаси ягона бўлган таърифи мавжуд эмас, бу шуни англатадики, бир томондан иқтисодий самарадорлик категориясининг кўп қирралигини, бошқа томондан эса унинг кўрсаткичларда ва ўлчовларда акс эттиришнинг қийинлиги билан белгиланади. Бироқ, кўпчилик муаллифлар иқтисодий самарадорлик бу охирги самаранинг ушбу самарани олиш учун сарфланган ресурсларга нисбати эканлигини эътироф этишади”[33]

Келтирилган таърифлар албатта муҳим назарий ва методологик аҳамият касб этади. О.Е.Оборинанинг фикрига қўшилган ҳолда таъкидлашимиз лозимки, албатта самарадорлик олинган натижанинг сарфланган ресурларга нисбати билан баҳоланади, меҳнат ресурсларини ҳам инобатга олиниши талаб этилади. Айрим олимларимиз, натижаларнинг харажатларга нисбати сифатида қарайди. Бу фикрлар албатта тўғри. Лекин юқорида таъкидлаганимиздек, натижа бўлсаю, лекин бу натижа мавжуд ресурслар ва сарфларга нисбатан етарли даражада бўлмаса, эришишимиз мумкин бўлган натижалардан паст бўлса, иқтисодий самарадорликка эришдик деб баҳолаш мумкин бўлмай қолади.

Учинчи ёндашувдаги талқинда самарадорлик ресурсларнинг оптимал тақсимоти эканлиги, шу боис самарадорликка комплекс ёндашиб, уни кўрсаткичлар тизими билан ифодалаш ва сўнгра самарадорлик тўғрисида хулоса чиқариш кераклигини таъкидлашади. Масалан, Давлат активларини бошқариш агентлиги томонидан хориж тажрибасидаги KPI кўрсаткичлар тизимини жорий қилиш мақсадига “Самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари (СМК) кузатув кенгаши, у мавжуд бўлмаганда эса - юқори бошқарув органи ёки муассис (давлат корхоналари учун) қарори била тасдиқланади ва унда **соф тушум, соф фойда, таннархни камайтириш, молиявий барқарорлик, тўлов қобилияти, ишлаб чиқариш қувватларидан фойдаланиш, экспорт-импорт, маҳаллийлаштириш ва инвестиция дастурлари бажарилиши, энергосамарадорлик ва самарадорликнинг бошқа кўрсаткичлари** белгиланади ҳамда ҳар чорак якуни бўйича ҳисоблади”[34] деб тавсиф берилган.

---

[32] Артем Моисенко Как рассчитать экономическую эффективность внедрения ECM-систем https://blogic.ru/blog/kak-rasschitat-ekonomicheskuyu-effektivnost-vnedreniya-esm-sistem/

[33] Оборина, О. Е. Экономическая эффективность: понятие и сущность / О. Е. Оборина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 23 (313). — С. 427-429. — URL: https://moluch.ru/archive/313/71251/ (дата обращения: 16.09.2023).

[34] https://kpi.davaktiv.uz/site/ru/kpi

Иқтисодчи олим Dheeraj Vaidya (CFA, FRM) томонидан берилган таърифда ҳам, айнан оптимал тақсимлашга аҳамият қаратади: “Макроиқтисодиётда иқтисодий самарадорлик деганда, ресурсларнинг оптимал тақсимланиши, маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқариш учун минимал харажат ва максимал натижа намаён бўладиган ҳолат тушунилади.”[35] Хориж манбаларида самарадорликнинг бир қанча турлари келтирилган, жумладан тақсимлаш самарадорлиги, динамик самарадорлик, маҳсулот самарадорлиги, ижтимоий таъминот самарадорлиги, техник самарадорлик ва Х-самарадорлик.

B. Jovanovic ўзининг иқтисодий ўсишга бағишлаган мақоласида “Ресурсларни тақсимлашда ишлаб чиқариш имкониятларининг чегаравий ёндашуви иқтисодий самарадорликнинг икки турдаги самарадорликдан иборат бўлишини тақозо этади: тақсимлаш ва техник самарадорлик. Тақсимлаш самарадорлиги максимал маҳсулот ишлаб чиқариш ресурсларини жалб қилишга боғлиқдир, яъни қўшимча русурсларни жалб қилиш (кириши орқали) йўли билан ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтиришнинг иложи йўқ. Шу боис, самарадорликка барча киримлар бўйича қўшимча маблағлардан фойда олиш учун маржинал имкониятларни тенглаштириш йўли билан эришилади. Техник самарадорлик эса маълум миқдорда фойдаланиш билан боғлиқ бўлиб, максимал маҳсулот ишлаб чиқариш учун киримларнинг комбинациясига боғлиқ бўлади”[36] деб тавсифлайди.

Бизнинг фикримизча, мамлакатимиз олимлари ҳамда хорижий адабиётларда келтирилган таърифларни тадқиқ қилиш асосида такомиллаштирилган таърифни ишлаб чиқишга зарурият мавжуд. Иқтисодий самарадорлик деганда аввалombор иқтисодий ресурслар самарадорлиги нуқтаи назаридан ёндашиш керак деб ҳисоблаймиз.

Молиявий ҳисоботнинг концептуал асосларда иқтисодий ресурсларга қуйидагича таъриф келтирилган: Иқтисодий ресурс – бу ҳуқуқ бўлиб, қайсики иқтисодий наф яратиш потенциалига эга бўлади[37]. Иқтисодий ресурларнинг амалда намаён бўлиши корхоналарнинг активлари сифатида амалга ошади. Актив – олдинги ҳодисалар натижасида ташкилот томонидан назорат қилинадиган мавжуд иқтисодий ресурс.

Юқоридаги таърифларни ўрганиш асосида биз иқтисодий самарадорлик тушунчасига қуйидагича такомиллашган муаллифлик таърифни келтирамиз.

Иқтисодий самарадорлик деганда юқори даромад олиш, иқтисодий ресурсларни оптимал тақсимлаш, маҳсулотлар ишлаб чиқариш, иш бажариш ва хизматлар кўрсатиш харажатларини оптималлаштириш,

[35] Dheeraj Vaidya (CFA, FRM) Economic Efficiency Definition// https://www.wallstreetmojo.com/economic-efficiency/

[36] B. Jovanovic. Economic Growth https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B0080430767023093

[37] 1-сон БҲХС “Молиявий ҳисоботни тақдим этиш” стандарти. 2018 й.

ортиқча чиқимлар ва йўқатишларни минималлаштиришга эришиш ҳамда ресурслар кирими ва фойдаланилишининг оқилона комбинацияси, шунингдек самарали бошқарувни ташкил этиш, инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш орқали сарфланган ресурслар ва харажатларнинг пул бирлига тўғри келадиган натижа (фойда ёки самара)ларни ҳамда самарадорик кўрсаткичлари тизимининг меъёрида ва ундан ортиқ бўлишини таъминлашга айтилади.

Ушбу таъриф бир қанча хусусиятларга эга. **Биринчидан**, таърифда юқори даромадликни таъминлаш эътироф этилган. Бунинг учун эса максимал ишлаб чиқариш ҳажмини ташкил этиш, маҳсулотларни сотиш жараёнини оптимал ташкил этиш, нархларни оптималлаштириш, одатдаги фаолиятидан ташқари даромадлар олишга эътиборни қаратишни англатади. Даромадларнинг максимал кўпайтиришнинг барча имкониятлари йўлга қўйилиши керак. **Иккинчидан**, юқори самарадорликка эришиш учун харажатларни минималлаштириш керак. Стандартдан ортиқча харажатларга йўл қўймаслик керак. Бундан ташқари материалларнинг бузилиши ва бошқа йўқотишларни камайтириш керак. Уларни меъёрида бўлишини таъминлаш лозим. **Учинчидан**, русурслардан оқилона фойдаланиш тизимини йўлга қўйиш, жумладан мавжуд бинолар, машина ва асбоб-ускуналар ва бошқа активлардан самарали фойдаланиш керак. Икки смена ишни ташкил қилиш мақсадга мувофиқ. Бўш турган бино, станок, машина ва асбоб-ускуна бўлмаслиги керак. **Тўртинчидан**, инсон ресурслари ва интеллиектуал мулкдан самарали фойдаланишни йўлга қўйиш орқали юқори меҳнат унумдорлигига эришиш лозим. Меҳнат унумдорлиги – иқтисодий самарадорликни таъминлашнинг бош омилидир. **Бешинчидан**, юқорида санаб ўтилган ресурслар ҳамда харажатлар ва меҳнат русурсларидан самарали фойдаланиш албатта сарфланган ресурслар ва харажатларлар бирлигига тўғри келадиган фойда суммаси ва самарадорликнинг комплекс кўрсаткичларини меъёрда ва ундан ортиқ бўлишини таъминлашга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, иқтисодий самарадорликка берилган таърифларни учта ёндашувга ажратилди. Тадқиқотда иқтисодий ресурсларга таъриф берилди, халқаро стандартларни ўрганиш асосида иқтисодий ресурс иқтисодий наф яратиш потенциалига эга бўлган ҳуқуқ сифатида тавсифланади. Иқтисодий ресурсларда мужассамлашган активларнинг таркибий қисмлари келтирилди. Иқтисодий самарадорликнинг такомиллашган муаллифлик таърифи ишлаб чиқилди. Ушбу муаллифлик таърифи иқтисодий адабиётларни такомиллаштиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси //https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М. :русский язык 1981-17 б.

3. https://teletype.in/@sgcc_uzb/slUfjMD9FWt

4. Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. “Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили”. - С., 2007. - 154 б.

5. С.А.Абдуҳамидов. Туризм корхоналарида иқтисодий самарадорликни аниқлаш усуллари. Диссертация. //http://library.navoiy-uni.uz/files/turizm_korxonalarida__iqtisodij_samaradorlikni_aniqlash_usullari.pdf

6. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-samaradorligi-uz/

7. Абдураҳмонов Қ.Х. “Меҳнат иқтисодиёти”. - Т.: “Меҳнат”, 2004. - 398 б.

8. Ўлмасов А., Вахобов А. “Иқтисодиёт назарияси” (Дарслик) (тўлдирилган ва қайта ишланган нашри). - Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 41-43 б. 14.

9. Шодмонов Ш.Ш., Б.Э.Мамарахимов “Иқтисодиёт назарияси”. Иқтисод-молия 2016 йил. 65-бет.

10. С.Д.Предыбайло ЛЕКЦИИ по дисциплине «Экономика организации (предприятия)» Гомель 2015 https://core.ac.uk/download/pdf/76000883.pdf 2 стр.

11. Артем Моисенко Как рассчитать экономическую эффективность внедрения ECM-систем https://blogic.ru/blog/kak-rasschitat-ekonomicheskuyu-effektivnost-vnedreniya-esm-sistem/

12. Оборина, О. Е. Экономическая эффективность: понятие и сущность / О. Е. Оборина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 23 (313). — С. 427-429. — URL: https://moluch.ru/archive/313/71251/ (дата обращения: 16.09.2023).

13. https://kpi.davaktiv.uz/site/ru/kpi

14. Dheeraj Vaidya (CFA, FRM) Economic Efficiency Definition// https://www.wallstreetmojo.com/economic-efficiency/

15. B. Jovanovic. Economic Growth https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B0080430767023093

16. 1-сон БҲХС “Молиявий ҳисоботни тақдим этиш” стандарти. 2018 й.

KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI INNOVATSION MOHIYATI

Boboqulov S.B. SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v/b, i.f.f.d. +998941891989, ferdu_www@mail.ru

Annotatsiya: raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitida aholiga ko’rsatiladigan kommunal xizmatlarni innovatsion rivojlantirish bilan bog’liq qarashlar o’rganilgan bo’lib, kerakli xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: kommunal, xizmat, servis, samaradorlik, innovatsiya, raqamlashtirish.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlarning pirovard natijasi sifatida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Milliy iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan rivojlantirayotgan, aholi turmush darajasi xamda sifatini yaxshilashda yuqori samara berayotgan ushbu soha ijtimoiy va xalqaro mexnat taqsimotining, iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yuqori sur’atlarda rivojlantirishni ta’minlamoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, “...xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”[38] ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalardan kelib chiqib kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilish, xodimlar malakasini oshirish hamda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida kommunal xizmatining ahamiyatini baholab bo‘lmaydi. Bu yoki boshqa mamlakatning har bir fuqarosi har kuni kommunal xizmat sohasi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanish darajasi va samaradorligi aholining turmush darajasi va sifatiga, uning hayotining sanitariya-gigiena sharoitlariga, mehnat unumdorligiga va haqiqiy yerkinlik darajasiga ta’sir qiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi, xususan, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini aniqlash muammosiga turli uslubiy yondashuvlar mavjud.

[38] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». – www.lex.uz

Ba’zilar xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishning mohiyati aholi yehtiyojlarini yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish madaniyati bilan maksimal darajada qondirish, davlat mablag‘lari va ishchi kuchiga nisbatan ancha past xarajatlar bilan va xizmatlardan oqilona foydalanish bilan ta’minlashdir, deb hisoblashadi.

Masalan, V.Z.Chernnyak. uy-joy kommunal xizmatlarning samaradorligini nafaqat moliyalashtirishni oshirish va moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga qo‘shimcha mablag‘larni kiritishda, balki uy-joy kommunal xizmatlari ishlab chiqarish sifati darajasini saqlab qolish yoki oshirishda xarajatlarni tejashda ham ko‘radi[39].

Simionov Yu.F. uy-joy kommunal xo‘jaligini iqtisodiy tahlil qilish vazifalaridan biri mehnat, moddiy-texnika va moliyaviy resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, so‘ngra faoliyat samaradorligini oshirish va undan foydalanish uchun ichki resurslarni aniqlash yekanligini ko‘rsatdi. tashkilotning resurslari[40].

Shunday qilib, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligi, erishilgan natijalar va jamiyat ixtiyoridagi turli xil resurslar xarajatlari o‘rtasidagi nisbat bilan tavsiflanadi, degan umumiy qabul qilingan fikr juda o‘rinli.

Bizning fikrimizcha, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligi jamiyat manfaatlari uchun ishlab chiqarish vositalari va mehnatning minimal hajmi bilan maksimal natijalarga yerishish bilan belgilanadi. Ammo, shu bilan birga, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi samaradorligini faqat taqdim etilayotgan xizmatlarning o‘sishi va xarajatlarning pasayishi bilan bog‘lash mumkin emas. Effektivlikni aniqlashda ijtimoiy oqibatlar muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, resurslardan foydalanishning katta samarasi ham, agar u ishchilarning mehnat sharoitlarining yomonlashuvi bilan birga bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni anglatmaydi. Ikkinchidan, ko‘rsatilayotgan aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sonining ko‘payishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga bajarilgan ishlar mavjud ehtiyojlarga mos kelishi kerak. Agar u mavjud ehtiyojlarni qondirmasa, u holda jamiyat uchun aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligining oshishi deyarli yuz bermaydi va faqat foydasiz xarajatlar kelib chiqadi.

Xususan, o‘zbek olimlaridan kommunal xizmat kategoriyasiga yetarlicha tarif berishmagan, asosan, “kommunal xo‘jalik”, kommunal xizmat ko‘rsatishni infratuzilmasi yoki kommunal xizmatlarni turlari bo‘yicha tariflar ishlab chiqishgan. Masalan, iqtisodchi olim X.M.Mamatqulovning maxsus izohli lug‘atida “Kommunal xo‘jalik- mahalliy hokimliklarning shahar hayoti bilan

[39] .; Черняк В.З. Жилищно-коммунальное хозяйство: развитие, управление, экономика. –М.: КНОРУС, 2007. –183 с.

[40] Экономика жилищно-коммунального хозяйства/ под ред. Ю.Ф.Симионова. –М.: ИКЦ «МарТ», 2004. – 211 с.

bog‘liq xo‘jalik tarmoqlari uy-joy, transport, elektr, vodoprovod, hammom hamda obodonlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim”[41] degan tarifni bergan. Mazkur tarifda kommunal xo‘jalik faoliyati yoritilgan bo‘lib kommunal xizmatlarni o‘zida ifoda etmaydi, chunki bu tarif ko‘proq kommunal xo‘jalikni izohini o‘z ichiga olgan. Bu borada aniq izoh bergan olimlardan biri Q.J.Mirzaev, M.Q.Pardaevlardir. Ular “Kommunal xizmatlar deyilganda, mahalliy hudud hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan uy-joy, transport, elektr ta’minoti, gaz, suv kabi aholining yashashi yaxshilash bilan bog‘liq xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tamonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tushiniladi”[42] degan fikrni bergan. Kommunal xo‘jalik kategoriyasiga o‘zbek olimlaridan V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunovlar “Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi – bu murakkab iqtisodiy tizim bo‘lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlar tamonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo‘lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o‘rinlari bilan taminlaydi”[43] degan tarifni bergan. Bu yerda ko‘proq kommunal xo‘jaligiga oid tarif berilgan bo‘lib kommunal xizmat ko‘rsatishgacha bo‘ladigan ya’ni ishlab chiqarish jarayonini o‘zida aks ettirgan bo‘lib “kommunal xizmat” kategoriyasini yoritmaydi.

Fikrimizcha, “kommunal xizmat” kategoriyasiga tarif berishda bir qator omillarni inobatga olish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Masalan, kommunal xizmat ko‘rsatishda ishlab chiqarish omili bilan xizmat ko‘rsatish omilini inobatga olish shart. Xizmat ko‘rsatish aholini nomoddiy ehtiyojlarini qondirsa, ishlab chiqarish asosan moddiy ehtiyojlarini qondiradi. Shunday ekan, **kommunal xizmat** – bu yuridik va jismoniy shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida kommunal xo‘jalik tamonidan yetkazib beriladigan xizmatlar bo‘lib aholini turmush farovonligi va darajasini oshiruvchi nomoddiy xizmat hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, kommunal xizmat ishtirokchilarining innovatsion va texnologik rivojlantirish sharoitida o‘zaro ta’sir mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar sharoitida, iste’molchilar uchun energiya xizmatlari va innovatsion axborot xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimining raqobatbardoshligini va samaradorligini oshiradigan qo‘shimcha xizmatlarning potensiali hisoblanadi.

---

[41] Х.М.Маматқулов “Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар луғати”-Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010 йил.-126-127 б.

[42] Қ.Ж.Мирзаев, М.Қ.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма.Т.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил 186 б.

[43] В.У.Ёдгоров, Д.Я.Бутунов Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви. Дарслик. Тошкент. 2012 йил. 38 б.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. .Сидякин, А.Чибис. “Азбука для потребителей услуг ЖКХ” Учебник. Москва. 2015 год.
2. В.Ёдгаров, Д.Бутунов “Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви” Дарслик.Тошкент. “Ношир” нашриёти. 2012 йил, 88-бет.
3. Қ.Ж.Мирзаев, М.Қ.Пардаев, О.М.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма. “IQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил. 384-б.
4. М. Х. Холмурадов, К.Д. Абдуллаэва, Н.З. Талипова “Уй-жой коммунал хўжалиги ва сервис асослари” Ўқув қўлланма. Тошкент. 2014 йил. 80 б.
5. Нифонтов А. И., Тюфякова О. П. Формирование бюджетов филиалов-шахт угольной компании. Новокузнецк, 2005. 44 с.

OLIY TA’LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARG‘IB QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Musayev Bekjon Shukurillayevich
SamISI, “Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning bugungi kundagi ahamiyati va zaruriyatini olimlarning ilmiy asarlarida keltirilgan nazariy qarashlar asosida yoritib berilgan hamda nazariy va amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, ta’lim xizmatlari, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, marketing, internet marketing, raqamli marketing, targ‘ib qilish, haqiqiy iste’molchi, potensial iste’molchi, SMM, chat-bot.

Bugungi kunda inson hayotini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bormoqda va bundan ta’lim tizimi ham mustasno emas. Raqamli texnologiyalardan ta’lim xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni, ta’lim xizmatlarini moliyalashtirishni, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va resurs ta’minotini aniqlash maqsadida keng foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim muhitini innovatsion faoliyatga asoslangan holda tashkil etishni taqozo etadi. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishdan asosiy maqsad yuqori malakali moslashuvchan potensialga ega, zamonaviy axborot makonida harakat qila oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, o‘zini-o‘zi boshqara oladigan faol ijodkor kadrlarni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday sharoitda foydalanuvchilar barcha o‘quv-uslubiy materiallaridan (uslubiy ishlanmalar, darsliklar, ish daftarlari), ilmiy va ijodiy materiallaridan elektron, onlayn shaklda foydalanish imkoniyatlari yaratilgan bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda V.N.Mininaning o‘z tadqiqotlarida keltirgan mana bu: “oliy ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish deganda katta hajmdagi axborotni qog‘oz bo‘lmagan tashuvchilarda yaratish,

qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalarini joriy etish hisobiga oliy ta’lim tizimida ta’lim va boshqaruv jarayonini, kundalik ijtimoiy amaliyotni o‘zgartirish tushuniladi. Raqamlashtirish ta’limning axborot resurslari bilan integratsiyalashuvini o‘z ichiga oladi” [3] degan fikrlari o‘rinlidir.

Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish, bu so‘nggi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim xizmatlarini haqiqiy iste’molchilar (talabalar, ularning ota-onalari, professor-o‘qituvchilar, boshqaruv xodimlari va boshqa hamkorlar)ga hamda potensial iste’molchilar (abituriyentlar, ularning ota-onalari, ish beruvchilar va b.q.)ga internet marketing va raqamli marketing imkoniyatlaridan foydalangan holda axborot ma’lumotlarni real rejim vaqtida yetkazishdir.

Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish masalasiga bugungi kunga qadar ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tganlar. Jumladan, Yu.V.Sharonin o‘z tadqiqotlarida internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilish yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirib yuborayotganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha “Ta’lim xizmatlarini internet makonida targ‘ib qilishda oliy ta’limning veb-sayti, maqsadli va konteksli reklama, qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), e-mail marketing, ijtimoiy media marketing orqali amalga oshiriladi” [6]. Haqiqatdan ham axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda oliy ta’lim xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni veb-saytlarga jozibador qilib joylashtirish va internet marketing imkoniyatlaridan unimli foydalanilish - bu targ‘ib qilishning eng asosiy va zamonaviy vositalaridan hisoblanadi.

Shuningdek, G.B.Polovinaning fikriga ko‘ra, so‘ngi yillarda ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ta’lim xizmatlarini raqamlashtirishda matn, grafik, audio va videoni birlashtirgan interaktiv axborot texnologiyalaridan foydalaniladi” [5]. Albatta foydalanuvchilari diqqatini jalb qilish uchun rang-baranglik zarurdir.

Rossiyalik mutaxassislardan biri Ye.A.Neretinaning fikricha “...ijtimoiy tarmoqlarning kommunikatsiya salohiyati marketing kommunikatsiyalarini amalga oshirish uchun munosabatlar marketingida yangi yo‘nalish – Ijtimoiy Media Marketing (Social Media Marketing (SMM)) paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa, OTM to‘g‘risida ijtimoiy fikrlarni shakllantirish va OTM brendini targ‘ib qilish, ta’lim xizmatlarini ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilish imkoniyatlari yaratildi. SMMning asosiy vazifasi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining e’tiborini OTM brendi va ta’lim xizmatlariga qaratishdan iboratdir” [4]. Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda ko‘pgina davlat oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuritishda xavaskor mutaxassislar xizmatidan foydalanib kelmoqda. Vaholangki, bu masalada xususiy oliy ta’lim muassasalari ancha ilgarilab ketgan bo‘lib, ular ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuritishda professional mutaxassislar xizmatidan keng foydalanmoqdalar.

Xorijiy tadqiqotchilar Biknell-Xolms T. va Ellison DiEnnlar fikricha, “sun’iy intellektga asoslangan raqamli texnologiyalar, masalan, chat-botlar ham o‘quv jarayonini tashkil etishda juda qo‘l kelmoqda. Oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari faoliyatida chat-botlardan keng foydalanilmoqda. Talabalar kutubxonaga borishmasdan kerakli adabiyotlarni yoki o‘z savollariga javobni tezroq olishadi. Savollar kutubxonachiga emas, balki, chat-botga beriladi. Chat-botlar imkoniyatlaridan faqat oliy ta’lim muassasalarining kutubxona faoliyatida ishlatmasdan, bugungi kunda talabalar fikrini o‘rganishda, talabalarning ota-onalari bilan bog‘lanishda, ularning savollariga javob berishda ham keng foydalanilmoqda” [2], [1]. Shu o‘rinda aytish kerakki, mamlakatimizdagi aksariyat davlat OTMlarida chat-botlar imkoniyatlaridan foydalanilmaydi.

Bugungi zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilish va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Raqamlashtirish to‘plangan tajriba va bilimlarni almashish imkoniyatini beradi. Bu esa, insonlarga ko‘proq ma’lumot olish va kundalik hayotida ko‘proq asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim xizmatlarini raqamlashtirish bilan bog‘liq qadamlar tashlangan va bu sohada ham katta o‘zgarishlar yuz berishi kutilmoqda. Elektron ta’lim tizimi yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Asosiy imkoniyatlarga ta’limning ochiqligi, muammolarini tezda hal qilish mumkinligi, ta’lim shaklini tanlash imkoniyatlarining kengayganligi, bilimlarni uzatish vositalarining xilma-xilligi, ta’lim xizmatlari diversifikatsiya qilinayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish bo‘yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Oliy ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilishda oliy ta’lim muassasalarini targ‘ib qilish bo‘yicha mas’ul bo‘limlari ya’ni, marketing bo‘limi, raqamli ta’lim texnologiyalari markazi, xalqaro aloqalar bo‘limi hamda matbuot xizmati xodimlari tomonidan internet marketing va raqamli marketing imkoniyatlaridan keng foydalanishga ustuvorliklar berishlari lozim.
- Oliy ta’lim muassasalarida chat-botlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Ya’ni, oliy ta’lim xizmatlarining haqiqiy iste’molchilari (talabalar, ularning ota-onalari) hamda potensial iste’molchilari (abituriyentlar, ularning ota-onalari, ish beruvchilar) fikrlarini o‘rganishda, ular bilan interaktiv aloqa o‘rnatishda va ularning savollariga javob berishda chat-botlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.
- Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda oliy ta’lim xizmatlarini internet marketing imkoniyatlaridan foydalanib targ‘ib qilishda, ya’ni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuritishda professional mutaxassislarning intelektual mehnatidan foydalanish lozim. Chunki, oliy ta’lim xizmatlari iste’molchilari (talabalar, ularning ota-onalari) va potensial iste’molchilari (abituriyentlar, ularning ota-onalari, ish beruvchilar)ning ongi,

fikrlashi rivojlanib hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalardan foydalanish tajribasi borgan sari ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allison DeeAnn. Chatbots in the Library: is it time? // Faculty Publications, UNL Libraries. 2011. № 280. URL: https://digitalcommons.unl.edu/libraryscience/280 (дата обращения: 22.10.2019).

2. Bicknell-Holmes Tr. Chat & Instant Messaging for Reference Services: a Selected Bibliography. Fac_ulty Publications, UNL Libraries. 2008. № 151. URL: https://digitalcommons.unl.edu/libraryscience/151 (дата обращения: 22.10.2019).

3. Минина В.Н. Цифровизация высшего образования и ее социальные ре_зультаты // Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология. 2020. Т. 13. Вып. 1. С. 84–101. https://doi.org/10.21638/spbu12.2020.106

4. Неретина Е.А., Макарец А.Б. Возможности и ограничения использования маркетинга в социальных медиа для продвижения образовательных услуг вуза//Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. 2013. № 1 (25). С.126-135.

5. Половина Г.Б. Интеграция мультимедийных технологий с традиционными учебными дисциплинами в системе повышения квалификации учителей-предметников // Информатика и образование. 2009. № 5.

6. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов / Ю.В. Шаронин // Современные проблемы науки и образования. - 2019. -№ 1.

XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Erdonov Mukhammadamin Erdon o’gli
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:erdonovmuhammad@gmail.com Tel: +998 94 245 24 74

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati tushunchasi, mohiyati va uning tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Korxona, daromad, xarajat, foyda, samaradorlik, salohiyat potensial, tarkib, tizimli, iqtisodiy-strategik, potensial.

Iqtisodiy salohiyatni tahlil qilishning dastlabki manbalarini haqli ravishda milliy boylik va raqobatbardoshlik kabi iqtisodiy kategoriyalarini tadqiq

qilishdan boshlash mumkin, ularni o'rganish "iqtisodiy salohiyat" tushunchasining mohiyatini tushunish uchun juda ko'p qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Milliy boylikning dastlabki hisob-kitoblari 17-asrga to‘g‘ri keladi (V.Petti), 18-asrdayoq asosiy tushunchalar A.Smit va A.Turgoning klassik asarlarida shakllantirilgan[44]. 19-asrda D.Mill, F.Kene, A.Marshall asarlarida iqtisodiy salohiyatga ta’luqli ko'plab muhim mavzular tadqiq qilingan, ammo ko'plab iqtisodchilarning asosiy tadqiqotlari rivojlangan kapitalistik mamlakatlar milliy boyliklarining aniq hisob-kitoblariga bag'ishlangan.

Raqobatbardoshlik kontseptsiyasi siyosiy iqtisod klassiklari tomonidan ham ishlab chiqilgan bo'lib, 18-asrdan boshlab A.Smit ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarishda, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etuvchi mamlakatlardan birining mutlaq ustunligi tushunchasini kiritdi. D.Rikardo bu g'oyalarni qiyosiy ustunliklar nazariyasidan foydalangan holda ishlab chiqdi. Qiyosiy xarajatlar nazariyasi haqiqatda xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasining rivojlanishini belgilab berdi. 20-asrda ishlab chiqarish funktsiyalari apparati asosida E.Xeksher va B.Olinlar ishlab chiqarish omillari xarajatlaridagi farqlar qiyosiy xarajatlarni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qilishini matematik shaklda ko'rsatdilar. Shu bilan birga, nazariy nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotlarning barchasi xalqaro va ichki mehnat taqsimotini korxonalar bo'yicha emas, balki butun sanoat bo'yicha tahlil qilish uchun ishlatilardi.

Raqobatbardoshlik strategiyasi haqida keng tushunchani Garvard maktabi professori Maykl Porterning[45] asarlaridan olish mumkin, u ushbu konsepsiyaning eng e’tiborga munosib mualliflaridan biri hisoblanadi. U “raqobatbardosh romb” deb nomlangan raqobatdosh ustunlik determinantlari tizimini ishlab chiqdi. Bu tizimdan kelib chiqadiki, ishlab chiqarish omillariga moddiy boyliklar, axborotlar, huquqiy tizim, shuningdek, ilmiy-tadqiqot vositalari kiradi va unumdorlikni oshirish uchun muayyan hududlarda ishlab chiqarish omillari samaradorligi, sifati va ixtisoslik darajasiga nisbatan yaxshilanishi kerak deb ta’kidlaydi.

Milliy boylik va raqobatbardoshlikdan farqli o'laroq, iqtisodiy salohiyat nafaqat iqtisodiy rivojlanishning erishilgan darajasini baholash, balki kelajak uchun real imkoniyatlarni aks ettirish imkonini beradi.

MDH davlatlarida bu kotegoriya 70-yillarda, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar murakkablashgan, ishlab chiqarishning sarf-xarajatlari oshgan, samarali ishlab chiqarishni ko'paytirish muammosining keskinligi tobora kuchayib borgan vaqtda, ishlab chiqarish resurslari rentabelligining pasayishi, ulardagi xarajatlar hajmi va ulardan olingan natijalar o'rtasidagi tafovutning ortishi natijasida vujudga keldi. Ushbu salbiy holatni o'zgartirish zarurati ishlab chiqarish resurslarini o'rganishga kompleks yondashuvni talab qildi. Iqtisodchilar oldida korxonalarning iqtisodiy o'sishi

[44] Гловели Г.Д. История экономических учений: Учеб. пособие. – М.: ИД Юрайт, 2011. – 742 с.
[45] Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. – 715 с.

uchun real imkoniyatlariga umumlashtirilgan baho berish vazifasi qo'yildi. Bunday baholash ilmiy ishlarda, keyin esa amaliyotda “iqtisodiy salohiyat” tushunchasi orqali ifodalana boshlandi[46].

Yuqoridagilarni umumlashtirish Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini barpo etish davrida iqtisodiy salohiyatni o‘rganish zarur degan xulosani beradi. Iqtisodiy salohiyat deganda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ulardan foydalanish iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradigan mavjud resurslar turlari to‘plami tushuniladi. U korxona va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyatining asosidir. Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasi savdo tashkilotining tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishiga ta'sir qiladi.

Demak, resurs salohiyati xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy salohiyatining asosi bo‘lib, korxona salohiyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyat iqtisodiy samaraga erishishda ifodalangan potentsial imkoniyatlarni amalga oshirishni ham nazarda tutadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Артамонов Б.В. Основные принципы формирования конкурентных стратегий / Научный вестник МГТУ, 2009. – №143. – С. 11-16, с. 14.

2. Байков Е.А. Организация стратегического планирования на предприятиях сферы услуг в условиях нестабильности // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехни-ческого университета. Экономические науки. – 2013. – № 3(173). – С. 98–102. 3, с. 99.

3. Гловели Г.Д. История экономических учений: Учеб. пособие. – М.: ИД Юрайт, 2011. – 742 с.

4. Портер М. Конкурентное преимущество. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. – 715 с

5. Авдеенко В.Н., Котлов В.А. Производственный потенциал промышленного предприятия – М.: Экономика, 1989. – 239 с.

XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARIDA SAMARADORLIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY – IQTISODIY MAZMUNI

Umurova Mohira Askarboy qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko’rsatish korxonalari samaradorligini oshirish, boshqaruv faoliyatini to’g’ri tashkil, qilish xizmat ko’rsatish tarmoqlarini innovatsion boshqarish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiy resurslardan foydalanish mehanizmlarini takomillashtirish

[46] Авдеенко В.Н., Котлов В.А. Производственный потенциал промышленного предприятия – М.: Экономика, 1989. – 239 с.

mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, iste'molchilar ehtiyojini maksimal darajada qondirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Globallashuv davrida respublikamizning iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini innovatsion boshqarish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiy resurslardan foydalanish mehanizmlarini takomillashtirish oldimizga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Ushbu jarayonni amalga oshirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini rivojlantirish, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, iste'molchilar ehtiyojini maksimal darajada qondirish sohaning o'ziga xos muammolaridan biridir.

Biz bilamizki xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va ularda samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish ham ijtimoiy ham iqtisodiy boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish bilan belgilanadi. Bugungi iqtisodiy islohotlar davrida iqtisodiy resurslardan tejab foydalanish davr talabi hisoblanadi. Bu hech qachon eskirmaydigan muammo bo'lib, iqtisodiy resurslar taqchilligi har bir mamlakat oldida turgan dolzarb masaladir. Shu boisdan ham bu masala haligacha olimlar va mutaxassislarni o'ylantirib kelmoqda. Bizning fikrimizcha iqtisodiy samaradorlik aniq ko'rsatkichlarga ega bo'lib uni to'g'ri boshqarish, ma'lum darajada yaqqol ko'rinib turadi. Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash ularni bartaraf etish xo'jalik korxonalari faoliyatining asosiy vazifalaridir. Ijtimoiy samaradorlikni ta'minlash bu insonlarning hayot tarzini yaxshi tomonga o'zgarib borishi hisoblanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, shu tarmoqda faoliyat ko'rsatadigan kadrlarning raqobatbardoshligiga bog'liq. Shu sababdan ham sohadagi ishchi xodimlarning bilim salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga ega masaladir. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning raqobatbardoshligi ko'plab omillar asosida aniqlanadi. Bularga fizilogik, kasbiy malaka, o'z-o'zini namoyon qilish, ijtimoiy –psixologik, g'oyaviy, ma'naviy yuksalish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki barcha xizmat turlari bo'yicha fan texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlarini mehnat jarayoniga tadbiq etish bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega emas, bu esa o'z navbatida samaradorlik ko'rsatkichlariga yetarlicha o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan umumiy ovqatlanish bilan bog'liq subektiv harakterga ega xizmatlar standartlashtirish va texnikalashga unchalik ham mos kelmasligi mumkin. Bu ko'rinishdagi xizmatlar FTT yutuqlarini jadallik bilan o'zlariga qabul qilsalarda tezda yuqori natijaga, samaradorlikka erisha olmaydilar chunki bu kabi faoliyatda iste'molchining xohish istagi, talabi, ehtiyoji va xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liqdir. Agar ular past darajada bo'lsa bu jarayon xizmat ko'rsatish samaradorligining o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni aytish joizki xizmatning bu turlarida unumdorlik darajasini oshirishga axborot texnologiyalari unchalik ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

1-jadval



Servis sohasini rivojlantirishda ijtimoiy mezonlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Har qanday jarayonni uzliksiz va sifatli ishlashi u yerda faoliyat ko’rsatayotgan xodimlar malakasiga, bilim darajasiga bog’liq. Xizmat sifatini oshorish, iste’molchi talabini qondirishni sifat samaradorligiga erishishda boshqaruv funksiyalarini to’g’ri qo’llay olish rahbar boshqaruvining asosiy e’tibor qaratadigan jabhasidir.

Xizmat ko’rsatish faoliyati murakkab va ko’p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon korxona xodimlarini va resurslarini yaxshi boshqarish, xizmatlar ko’rsatish standartlariga rioya qilish, ko’rsatilayotgan xizmatlarning iste’molchilar talablariga mos kelishi ehtiyojlarini qondirish orqali ta’minlab boriladi.

2-jadval

Xizmat ko’rsatish korxonalarida samaradorlik boshqaruvini takomillashtirishning iqtisodiy mezonlari



Shu bilan bir qatorda N. G. Fedkoning fikriga qo’shilgan holda servis faoliyatini rivojlanishi bilan yuzaga keladigan samarali iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi xususiyatlarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin.

1. Servis iqtisodiyotida xo’jalik yurituvchi subyektlar birinchi o’rinda ijtimoiy- iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, ya’ni har bir iste’molchining xususiy talablarini to’liqroq qondirishga e’tibor beradilar. Industrial iqtisodiyotda esa asosiy e’tibor tovar maxsulotlarini maksimal darajada ishlab chiqarishga yo’naltiriladi.

2. Xizmatlar sohasida natijadorlik tushunchasi tovarlarda foydalanish tavsifi bilan bir xil bo’lib, bunda moddiy ne’matlar va xizmatlar tizimining qanchalik darajada modernizatsiyalashganini aniqlab beradi. Industrial iqtisodiyotda esa faqat tovar maxsulotining moddiy tomoni e’tiborga olinadi.

Xulosa. Xizmat ko’rsatish tarmoqlarida sifat mezoni asosida ishlab chiqaruvchining iste’molchini to’laqonli ehtiyojini qondirishga bo’lgan talabini doimo nazorat qilish va belgilash qobiliyati nazarda tutiladi. Ishlab chiqarish sohasida esa sifat mezoni asosida faqat faoliyat yurituvchining o’z ishini sifatli bajarish harakteri e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Qudratov. G’. H., Pardayev.M.Q., Abdukarimov.B.A., servis rivoji aholining bandligini ta’minlash va faravonligini oshirish omili. Risola –T.: Fan-texnologiya, 2007.- 28bet.

2. Aminov. Z. Yu. Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash yo’llari. Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati. SamISI - 2009y.

3. Ochilov.I.S. Xizmat ko’rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo’llari. Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati SamISI- 2010y.

4. Q.J. Mirzayev, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, G’.S.Mustafoyev, E.S.Fayziyev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” darslik 2022y

TURZIM SOHASINING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Jabborova Zuhra Qarshi davlat universiteti doktoranti
zuhrajabborova94@gmail.com
+998 91 221 54 09

Annotatsiya: Ushbu maqolada turzim sohasining mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, iqtisodiyot, qaror, farmon, rivojlanish, infratuzilma

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Turizmga dastlab aholining sayohati va dam olishini ta’minlovchi infratuzilma sifatida qaralgan bo‘lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i sifatida shakllanib, uni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko‘plab sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o‘ziga xos katalizatori sifatida transport-kommunikatsiya, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, jumladan, imkon qadar qulayliklar yaratish, sohaning raqobatbardoshligini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozoriga faol olib chiqish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tizimli ishlar natijasida sayyohlar oqimini ko‘paytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, viza rejimini liberallashtirish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Masalan, 2019-yilda eng erkin viza rejimlari reytingida O‘zbekiston MDH davlatlari orasida ikkinchi o‘rinni egalladi.

Mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini yuksaltirishga befarq bo‘lmagan sayyohlar uchun oilaviy mehmon uylari va kamida besh xil turdagi xizmatlar tashkil etishda “Turizm mahallasi”, “Turizm shaharchasi” yoki “Turizm xo‘jaligi” maqomi berilishi to‘g‘risida qarorlr e’lon qilindi. Shu bilan birga mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga katta hissa qo‘shgan jamoat tashkilotlari vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarga “Turizm sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifni qo‘llab-quvvatlandi Bu O‘zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochishda muhim omil bo‘lishi shubhasiz.

Mamlakatning ulkan turistik salohiyatiga qaramay, turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va darajasi, shuningdek, tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga javob bermaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashga qo‘shayotgan hissasi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ortda qolmoqda, deyiladi farmonga berilgan rasmiy izohda. Farmonda turizm sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni nazarda tutuvchi mazkur sohani tubdan isloh qilish bo‘yicha misli ko‘rilmagan chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, quyidagi asosiy maqsadli vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan:

• turizm industriyasi subektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, turizmni rivojlantirish yo‘lidagi barcha to‘siq va illatlarni bartaraf etish, viza va ro‘yxatdan o‘tish, pasport va bojxona nazorati tartiblarini soddalashtirish;

• turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursionistlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• turizmning yangi salohiyatli turlari – ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, ishlab chiqarish, biznes, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;

• turizm sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar, yirik xorijiy brend va kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm xizmatlari ko‘rsatishning ilg‘or jahon sifat standartlarini joriy etish;

• respublika hududlarida turizm infratuzilmasining zamonaviy obektlarini, birinchi navbatda, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

• raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, hududlarda yangi turistik yo‘nalishlarni yaratish, ularni jahon turizm bozorlariga olib chiqish;

• turizm sohasi uchun malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish.

Har qanday sharoitda, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Deyarli barcha mamlakatlar o‘z milliy iqtisodiyotida turizm industriyasining ahamiyatini oshirishga harakat qilmoqda. Chunki turizm milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi ustuvor vazifalarga ega:

- mahalliy ishchi kuchini malakali mehnat va turmush sharoiti bilan ta’minlash manbai;
- bozorni shakllantirish va kapital qo‘yilmalar oqimi mexanizmi;
- qurilish (mehmonxonalar, kempinglar, motellar), aloqa (uyali, tele va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro standartlardagi temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi

(yoqilg'i quyish shoxobchalari) yangi texnologiyalarni joriy etish vositalari va bunday sohalarda nou-xau;

- milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari;
- mamlakat va mintaqadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish omillari;
- tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni saqlash usullari;
- davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari.

Umuman olganda, davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun o‘zining huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqdi, viza tizimini soddalashtirdi, turistik mahsulotlar va an’anaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirdi.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish haqida gapirganda, mamlakatning asosiy turizm mintaqalariga bo‘linishiga to‘xtalib o‘tish zarur. Bugungi kunda respublikada to‘rtta asosiy turistik hudud mavjud bo‘lib, ular Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm viloyatlaridir. Farg‘ona turizm mintaqasiga Farg‘ona vodiysi kiradi. Uning turistik resurslari arxeologik qazishmalar va 10 ta me’moriy yodgorliklar, qulay tabiiy sharoit, an’anaviy xalq hunarmandchiligi va san’ati mahsulotlari, sanoat va agrar majmualardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo‘llarning keng tarmog‘ining mavjudligi ham Farg‘ona viloyatidan turizm maqsadlarida foydalanish, uning butun hududida turizm bazalari, dam olish maskanlarini joylashtirish imkonini bermoqda. Toshkent turizm hududi kelajakda turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga ega. Ushbu sayyohlik hududidagi madaniy yodgorliklar, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, bunyodkorlik ishlari, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, hudud tabiati, boy landshafti, rang-barang o‘simlik va hayvonot dunyosi uni jozibali qilishda muhim omil bo‘lmoqda.

Ma’lumki, mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar oddiy taomlardan tortib, qimmatbaho suvenirlargacha ma’lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni talab qiladi. Bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan kichik va xususiy tadbirkorlik subektlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga keng yo‘l ochib berishi tabiiy. Sayyohlar turadigan mehmonxonalarda fermerlar toza mahsulotlar yetishtirmoqda, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida faoliyat yuritayotgan kichik va xususiy korxonalarda yotoqxona mebellari, xalat va turistlar uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar, kosmetika sanoati korxonalarida shampun, sovun va dezodorantlar ishlab chiqarilmoqda. Hunarmandchilik ustaxonalari va an'anaviy milliy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham sayyohlar uchun buyurtma tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-;

2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-7820.htm; www.uzbektourism.uz

3. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Конкурс, 2006. – 193 с., 14 - с.;

4. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. 4-5-betlar.

5. Jabborova Zukhra, Jabborova Fotima” Tourism is a Strategic Network of Tourism” – Global research network. https://global researchnet work.us/ index.php/ajebm/article/view/2008

6. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova The importance of innovative activity in tourism European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562 https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/ 663/554

САВДО КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР

Сайдуллаев Шохжаҳон Зариф ўғли
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти стажер-тадиқотчиси.
+998 99 776 31 67: kamail_uz@mail.ru

Аннотация: Мақолада савдо корхоналари рақобатбардошлигини корхонанинг техник даражаси, меҳнатни ташкил етиш даражаси, маҳсулот ассортиментини баҳолаш, бошқарув самарадорлиги, меҳнат ресурсларининг ҳолати ва малакасини баҳолаш мезонлари ва кўрсаткичлари асосида баҳолаш услубияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: *савдо корхонаси, савдо хизмати, рақобатбардошлик, рақобат устунлиги,баҳолаш мезони, конкордация коэффициенти*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация:В статье анализируется методология оценки конкурентоспособности коммерческих предприятий на основе технического уровня предприятия, уровня организации труда, оценки ассортимента, эффективности управления, состояния и квалификации трудовых ресурсов.

Ключевие слова: *коммерческое предприятие, торговие услуги, конкурентоспособность, конкурентное преимушество, критерии оценки, коэффициент конкордации.*

THEORETICAL APPROACHES TO ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF COMMERCIAL ENTERPRISES

Article: The article analyzes the methodology for assessing the competitiveness of commercial enterprises based on the technical level of the

enterprise, the level of labor organization, assessment of the range, management efficiency, the state and qualifications of labor resources.

Key words: *commercial enterprise, trade services, competitiveness, competitive advantage, assessment criteria, concordance coefficient.*

Тадқиқот мавзусининг долзарблиги. Иқтисодий муносабатларнинг глобаллашуви, ташқи савдо фаолиятининг кенгайиб бориши, шу билан бирга ички бозорларда ҳам истеъмолчиларнинг товар ва хизматлар сифатига бўлган қўшимча талаблари савдо хизматлари соҳасида ҳам рақобат курашининг кучайишига олиб келмоқда. Республикамизда ҳам савдо механизмларини янада такомиллаштириш, товарлар бозорида соғлом рақобат муҳитини ривожлантириш, шунингдек, тадбиркорлик субъектлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва ҳаражатларини камайтириш, улар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун шарт-шароитлар яратилмоқда. Шу билан бирга рақобатбардошликнинг ўзига хос жиҳатлари, таъсир даражаси, ҳарактери, бошқа тармоқларга нисбатан турлича эканлиги[47], бозор фаолияти самарадорлик кўрсаткичларга комплекс таъсир кўрсатишини назарда тутилганда ҳамда савдо соҳасида фаолият юритувчи субъектларининг рақобатбардошлик омилларини тадқиқ этиш улар учун нафақат ташқи бозорда, балки ички бозорда ҳам рақобатбардошлик даражасини баҳолаш ва оширишнинг долзарб масалалардан бири сифатида ўрганилиш заруратини келтириб чиқаради.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. М.Портер (1998) саноат тармоқларининг рақобатбардошлигига алоҳида эътибор қаратган ҳолда уларнинг энг аввало ресурс ва технологик рақобат афзалликларига эга бўлишини таъкидлаб ўтади[48].

Ф.Б.Абдукаримов илмий ишларида “...савдонинг асосий вазифаларидан бири истеъмолчиларга хизмат қилиш ва аҳоли ҳаётини таъминлайдиган алоҳида хизмат соҳасидир”[49] деб изоҳланган.

Б.А.Абдукаримов “савдо хизмати” тушунчасига кенг маънода, “савдо – хизматнинг алоҳида тури бўлиб у бир томондан ишлаб чиқарувчиларга хизмат қилади, иккинчи томондан истеъмолчиларга, учинчи томондан Давлатга хизмат қилади ва тўртинчидан у бошқа иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига ҳам хизмат кўрсатади, уларни

[47] И.Б.Шарипов, З.А.Хакимов. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини баҳолаш услубларини такомиллаштириш // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил.

[48] 2.Портер, М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер ; пер. с англ. – 2-е изд. – М. : Альпина Бизнес Букс, 2006. – 454 с

[49] Ф.Б. Абдукаримов. Савдода бозор механизмини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш йўллари (Самарқанд вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: СамИСИ, 2011, 156 б

хизматларидан истеъмолчи сифатида фойдаланади ва улар билан алоқада бўлади”[50] деб таъкидлаган.

К.М.Ибодов тадқиқотларида “Корхона ёки тадбиркорлик субъектларининг рақобатбардошлиги – иқтисодий категория бўлиб, корхоналарнинг ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали фойдаланиши, фойда олиш ва жамият эҳтиёжларини қондириш мақсадидаги бошқа устунликлари ҳамда узоқ давр мобайнида ўз капиталини ошириб бориш имконияти” - деб изоҳланган[51].

Илмий адабиётларда корхоналарнинг ишлаб чиқараётган маҳсулоти, фаолият тури, иқтисодий фаолияти самарадорлигига ёки маркетинг фаолиятини қай даражада йўлга қуйганлигига кўра рақобатбардошлигини баҳолаш услублари кенг тарқалган. Мамлакатимиз олимлари томонидан ҳам рақобатбардошликнинг турли таърифлари келтирилган бўлиб, аксарият иқтисодий рақобат субъекти учун афзалликлар яратадиган хусусиятларга эга бўлиш сифатида тушунилади. Шу билан бир қаторда чакана савдо корхонаси рақобатбардошлигини баҳолашнинг тўлақонли услубиятини ишлаб чиқиш борасида бир қатор илмий тадқиқотлар мавжуд бўлиб, бироқ бу борада ҳали бир тўхтамга келинмаган.

Муаммони ҳал қилиш йўллари. Савдо хизматлари соҳаси республикамиз иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан бири ҳисобланиб, соҳанинг барқарор ривожланиши учун ўзига хос қулай тадбиркорлик муҳити шаклланганлиги билан ажралиб туради. Рақобат устунликлари ҳар хил турдаги маҳсулотлар, корхоналар ва ташкилотлар ёки уларнинг гуруҳлари, иқтисодий муносабатларнинг турли соҳаларидаги етакчилик ва ниҳоят, алоҳида мамлакатлар ёки уларнинг бирлашмалари (минтақавий, сиёсий, этник-маданий) бўлиши мумкин.

Объектлар рақобатбардошлиги маълум бир бозорга ёки бозорни стратегик сегменлашнинг белгиларига кўра шаклланган маълум истеъмолчилар гуруҳига нисбатан белгиланади.

Бозор муносабатларининг бугунги шароитида рақобатбардошлик иқтисодий фаолиятнин муваффақият омилларидан бири ҳисобланади.

Корхонанинг рақобатбардошлиги унинг ажралмас хусусияти сифатида қуйидаги таркибий қисмларини ажратиб кўрсатиш тавсия этилади:

- корхона бозор таклифнинг рақобатбардошлиги;
- корхона ресурсларининг рақобатбардошлиги;
- бошқарувнинг рақобатбардошлиги;
- тадбиркорлик ғоясининг рақобатбардошлиги.

[50] Абдукаримов Б.А. ва бошқ. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма.-Т.: Иқтисод-молия, 2016, 504 б.

[51] К.М.Ибодов. Монополияга қарши бошқарув назарияси. Ўқув қўлланма.Т:, “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2020 йил. – 308 бет

Рақобатбардошликнинг асосий жиҳати – кўрсаткичларнинг нисбийлик ва динамик хусусиятдир. Нисбийлик шундан далолат берадики, корхона ва рақобатчиларни солиштириш у ёки бу томонга нисбатан рақобатбардош устунликлар ҳақида гапиришга имкон беради. Рақобатбардошликнинг динамик хусусияти унинг доимий ўзгариб туришини белгилаб беради.

Бозорда рақобатбардош объектга эришиш ва уни доимий равишда қўллаб-қувватлаш учун қўлга киритилган рақобатбардош устунликларни сақлаб қолиш, янгиларини излаш ва амалга ошириш керак.

Савдо корхонасининг рақобатбардошлигини турли нуқтаи назардан келиб чиққан ҳолда изоҳланиши мумкин:

– истеъмолчилар учун савдо корхонаси томонидан реализатсия қилинаётган товар ва хизматлар орқали уларнинг эҳтиёжларини рақиб корхоналарга нисбатан қанчалик қондира олиш имкониятидир. Яъни бунда рақобатбардошлик товар рақобатбардошлиги орқали ифодаланади;

– рақобатчи корхоналар учун ички ташқи бозор талабларига жавоб бера оладиган товар ва хизматлар сотувини йўлга қўйиш ва рақобат устунлигини мунтазам равишда ривожлантириб бориш салоҳияти билан ифодаланади;

– инвесторлар учун савдо корхонасининг мавжуд моддий ва иқтисодий ресурслардан қай даражада самарали фойдалана олиши ва келгусида бозор қийматини ошириб бориш имконияти орқали ифодаланади;

– бозор субъектлари учун корхонанинг рақобатбардош маҳсулотлар реализатсия қилиши ва мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда инноватсион ўсиш суратлари ва омилларини намоён қилиш салоҳиятидир.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда биз К.М.Ибодов томонидан изоҳланган *корхона рақобатбардошлигига таъриф беришда умумтан олинган "рақобатбардошлик" категориясидан четга чиқмаслик мақсадга мувофиқ ҳисоблаймиз. Шунга кўра ҳар қандай шароитда ҳам рақобатбардошлик танлаб олинган объект (бизнес, товар, корхона, ҳудуд, мамлакат)га нисбатан қўлланилади. Савдо корхонаси рақобатбардошлиги деганда унинг рақиб корхоналарга нисбатан товарлар ва хизматлар бозоридаги ҳолати, рақобат курашига бардош бера олиш имконияти ҳамда ушбу ҳолат ва имкониятларнинг барқарорлиги билан изоҳланувчи нисбий кўрсаткич тушунилад" деган фикрини тўлиқ маъқуллаймиз.* Шу асосда савдо корхонасининг рақобат устунлиги - бу узоқ вақт давомида қўллаб-қувватлаб туриладиган рақобатбардошлик даражасидир.

Бизнинг фикримизча, рақобатбардошликни ички омилларга асосланган рақобатбардошлик ҳамда ташқи омилларга асосиланган рақобатбардошлик кўрсаткичлари сифатида таснифлаш мақсадга мувофиқ. Мазкур тасниф келгусида савдо хизматлари кўрсатувчи

субъектларнинг рақобат устунликларидан фойдаланиш ҳамда унга эришиш имконини беради (1-жадвал).

1-жадвал

Корхонанинг рақобатбардошлик омиллари таснифи[52]

Имтиёзлар тури	**Имтиёзлар яратишга ёндашувлар**
Ташқи омиллар гуруҳи	Мижозлар билан алоқалар; содиқ мижозлар сонининг кўпайиши
	Ҳуқуқий жиҳатлар
	Янги рақобатчиларнинг бозорга киришига тўсқинлик қилувчи маҳаллий қонунлар
	Солиқ имтиёзлари
	Манзил
	Етказиб берувчилар
ички омиллар гуруҳи	ҳамлорлик муносабатлари
	Эксклюзив маҳсулот
	миқёс самараси туфайли арзон нархлар; ассортимент кенглиги; Қулай ҳарид шартлари
	Паст нархлар
	савдо ҳажмининг кенглиги

Рақобатбардошликни баҳолашнинг энг муҳим мақсади корхонанинг иқтисодий самарадорлигини оширишдир. Рақобатбардош корхоналарнинг бозордаги фаолияти ва мустаҳкам мавқега эга бўлиши муҳим аҳамиятга эга.

Савдо корхонасининг рақобатбардошлигини тавсифловчи мезонлар қуйидаларга асосланиши лозим:

– корхона хўжалик фаолиятининг якуний мақсадли натижаларини акс эттириши;

– белгиланган мақсадларга эришиш учун корхона ҳаражатлари даражасини белгилаш;

– бошқа корхоналарнинг шу каби мезонлари билан шзаро таққосланиши;

– таҳлили кўрсаткичларнинг келгусида янада деталлашган кўрсаткичларга ажратилиш имкониятига эга бўлиши;

– вақт омилини ҳисобга олиши.

Савдо корхонасининг рақобатбардошлиги бир вақтнинг ўзида бир нечта мезонлар ёрдамида баҳоланиши мумкин.

Рақамли иқтисодий муносабатларнинг жадаллашуви шароитида савдо корхонасининг рақобатбардошлигини қуйидаги 2-жадвалда мезонлар ва кўрсаткичлар асосида тўлдиришни таклиф қиламиз.

[52] Муаллиф томонидан таклиф қилинган

2-жадвал

Савдо корхонаси рақобатбардошлигини баҳолаш мезонлари ва кўрсаткичлари[53]

Рақобатбардошлик мезонлари	**Рақобатбардошлик кўрсаткичлари**
Корхонанинг техник даражасини баҳолаш мезонлари	савдо фаолиятини автоматлаштириш ва рақамли технологияларни жорий этилиш даражаси
меҳнатни ташкил этиш даражаси мезонлари	меҳнатнинг илмий ташкил этилиши ва иш жойларининг рақамли технологиялар билан жиҳозланиши
Товарлар ассортиментини баҳолаш мезонлари	корхонанинг бозор улуши ҳолати ва динамикаси
Талабни рағбатлантириш самарадорлиги мезонлари	корхонанинг сотиш ҳажми ва динамикаси
Бошқарув самарадорлиги мезонлари	бошқарув ҳаражатларининг ҳажми ва минималлашуви даражаси
Меҳнат ресурсларининг ҳолати ва малакаси мезонлари	савдо ходимларининг касбий малакаси; ходимларни рағбатлантириш тизимининг самарадорлиги; ишлаб чиқариш фаолиятида менежерлар ва техник ходимларнинг иштирок даражаси; ходимлар мотиватсияси ва ишдан қониқиш даражаси.

Рақобатбардошликнинг санаб ўтилган мезонлари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Уларнинг ҳар бирининг кўрсаткичининг ўзгариши бошқа кўрсаткичларнинг муқаррар ўзгаришига олиб келади. Ушбу ҳолат савдо корхонасининг ташқи муҳит шароитларига мослашуви учун ўзгаришларни амалга оширишда корхона раҳбарияти томонидан ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқ. Шу билан бирга, аксарият иқтисодчи олимлар томонидан рақобатбардошликнинг кўпинча сўров натижаларига асосланган ҳолда эксперт усулда баҳоланиши, амалиётда кенг қўлланиладиган рентабеллик ва иқтисодий салоҳият кўрсаткичлари эса корхонанинг молиявий ҳужжатларини таҳлил қилишга асосланиши ҳамда тижорат сири билан боғлиқ жабҳалари мустақил тадқиқотлар олиб боришга тўсқинлик қилишини эътиборга олган ҳолда ушбу таклиф этилаётган савдо корхонасининг хизматлар сифати ва мижозлар нуқтаи назаридан рақобатбардошлигини баҳолашда самарали қўлланилиши мумкин.

Биз томонимиздан таклиф этилаётган рақобатбардошлик мезонлари ва кўрсаткичлари савдо корхоналарида хизматлар сифатини такомиллаштириш асосида рақобат устунлигига эришиш учун энг самарали чора-тадбирларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Таклиф ва тавсиялар.

Рақобатбардошликни баҳолашнинг ўзига хос жиҳатлари, таъсир даражаси, ҳарактери, бошқа тармоқларга нисбатан турлича ҳамда бозор

[53] Муаллиф томонидан таклиф қилинган.

фаолиятининг самарадорлик кўрсаткичларга комплекс таъсир кўрсатади. Савдо соҳасида фаолият юритувчи субъектларининг рақобатбардошлик омилларини тадқиқ этиш уларга учун нафақат ташқи бозорда, балки ички бозорда ҳам рақобатбардошлик даражасини баҳолаш ва оширишнинг долзарб масалалардан бири сифатида қаралмоқда.

Савдо корхоналарининг рақобатбардошлигини оширишда қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

– савдо фаолиятининг автоматлаштирилиши ва рақамли технологиялардан фойдаланиш даражасини ошириш;

– сотиш ҳажмининг динамикасини барқарор сақлаб қолиш. Бунинг учун сотишнинг замонавий усулларидан фойдаланиш ва самарали маркетинг технологияларини кенг жорий этиш;

– бошқарув ҳаражатларининг мунтазам равишда пасайиб боришига эришиш орқали маблағларнинг такрор ҳосил бўлишини тезлаштириш;

– савдо ходимларини рағбатлантиришнинг самарали тизимини ишлаб чиқиш.

Ушбу таклифларнинг амалиётда жорий этилиши савдо корхоналарининг рақобатбардошлигини таъминлашга ва келгуси истиқболдаги барқарорлигини сақлаб қолишга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И.Б.Шарипов, З.А.Хакимов. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини баҳолаш услубларини такомиллаштириш // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил.

2. Портер, М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер ; пер. с англ. – 2-е изд. – М. : Альпина Бизнес Букс, 2006. – 454 с

3. Ф.Б. Абдукаримов. Савдода бозор механизмини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш йўллари (Самарқанд вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд: СамИСИ, 2011, 156 б

4. Абдукаримов Б.А. ва бошқ. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма.-Т.: Иқтисод-молия, 2016, 504 б.

5. К.М.Ибодов. Монополияга қарши бошқарув назарияси. Ўқув қўлланма.Т:, “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2020 йил. – 308 бет

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ “МАҲАЛЛАБАЙ” ИШЛАШ ТИЗИМИ ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ

Михлиев Жасур Мамасадикович
Инсон ресурсларини бошқариш факультетининг, “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси 2-босқич таянч докторанти

Аннотация ушбу мақолада хизмат кўрсатиш соҳасини ривожланишида оилавий тадбиркорликни ролини баҳолашга алоҳида эътибор қаратилган. Ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳаси ва оилавий тадбиркорликнинг ривожланиши ўртасидаги боғлиқликни ўрганиш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: оилавий тадбиркорлик, “маҳаллабай” ишлаш, хизмат кўрсатиш, хизматлар соҳаси, бозор хизматлари, оилавий корхона.

Аннотация Данная статья посвящена оценке роли семейного предпринимательства в развитии сферы услуг. Даны предложения и рекомендации по изучению взаимосвязи сферы услуг и развития семейного бизнеса в социально-экономическом развитии регионов.

Ключевые слова: семейный бизнес, «соседская» работа, оказание услуг, сфера услуг, рынок услуг, семейное предприятие.

Abstract This article is devoted to assessing the role of family entrepreneurship in the development of the service sector. Suggestions and recommendations are given for studying the relationship between the service sector and the development of family businesses in the socio-economic development of regions.

Key words: family business, “neighborhood” work, provision of services, service sector, service market, family enterprise.

Хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланган мамлакатларни юксак даражада ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим ўрин тутди ва миллий иқтисодиётининг асосий соҳасига айланди. Айниқса, табиий ресурслар чекланган шароитда хизмат кўрсатиш соҳаси имкониятларидан фойдаланиш янада кенгайди. Шу сабабли жаҳон иқтисодиётида унинг ялпи махсулотидаги улуши қарийб 60 фоизни ташкил этди. 2021 - 2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантириш дастурини амалга ошириш натижасида 2021 йилда хизматлар кўрсатиш ҳажми қарийб 20 фоизга ўсди. Шу билан бирга, хизматлар соҳасини ривожлантиришга янгича ёндашувларни жорий этиш орқали бозор хизматлари ҳажмини 2022 йилда 1,5 бараварга ошириш ҳамда қўшимча 1,5 миллион янги иш ўринларини яратиш имкониятлари яратилди.

Ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, алоҳида ёндашувлар асосида хизматлар соҳасини ривожлантириш, тадбиркорлик субъектларини молиявий ресурслар ва инфратузилма билан таъминлаш ҳамда уларга қулай солиқ режимини жорий этиш ишлари кенг жорий этилди.

Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тадбиркорликни "махаллабай" ишлаш тизими асосида ривожлантиришга доир Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 июндаги ПҚ-4752 сонли "хизматлар соҳасани қуллаб - қувватлаш чора тадбирлари тўғрисида" 2019 йил 7 мартдан ПҚ-4231 сонли, 2019 йил 24 октябрдаги ПҚ-4498, 2021 йил ПҚ-5041 сонли "Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастури доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора - тадбирлар туғрисидаги қарорлари ҳамда Ўзбекистан Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2021 йил 19 мартдаги 152-сонли "маҳаллабай" ишлаш тизимини амалётга жорий этиш ва аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини янада қуллаб - қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарорлари ҳамда 2021 йил 3 декабрдаги "Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш буйича ПФ-29 сон фармонига мувофиқ хоким ёрдамчилари фаолияти ташкил этилди хоким ёрдамчилари ҳар бир маҳаллада Онлайн Маҳалла Платформаси орқали онлайн Оилавий тадбиркорлик аризаларини кўриб ўрганишлари ва ушбу ўрганишлари натижалари бўйича тавсиялар бериб, маниторинглар ўтказишлари учун дастур яратилди. Ушбу дастурлар ёрдамида оилавий тадбиркорликни Маҳаллабай ишлаш тизими орқали ривожлантиришни йўлга қуйилди.

Хизматлар соҳасида оилавий тадбиркорликни "маҳаллабай" ишлаш тизими орқали ривожланишни такомиллаштиришни бугунги куннинг долзарб мавзуларидан биридир. Оилавий тадбиркорлик бўйича мамлакатимизда бир қанча таниқли олимларимиз томонидан илмий ишлар олиб борилмоқда. Б.А Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, Г.М.Шодиева, Ш.О.Қувондиқов ва бошқа олимларнинг илмий ишларини киритишимиз мумкин.

Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожланишида оилавий тадбиркорликни ролини баҳолаш борасида ҳам методика шакллантирилса мақсадага мувофиқ булар эди. Бундан кўзланган мақсад "ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳаси ва оилавий тадбиркорликнинг ривожланиши ўртасидаги боғлиқлик мавжуд" деган гипотезани асослашимиз учун асосий манба бўлиб хизмат қилади.

Ушбу манба асосида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожланишида оилавий тадбиркорликни роли баҳоланиб борилса мақсадга мувофиқ булар эди:

- ҳудудда фаолият кўрсатаётган оилавий корхоналар сони (бирлик);

- ҳудудда ҳар 100 та оилага тўғри келадиган оилавий корхоналар сони, (бирлик);
- ҳудудда фаолият кўрсатаётган оилавий корхоналар сонида хизматлар соҳасидаги оилавий корхоналарнинг улуши, (фоиз).

Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тадбиркорликни маҳаллабай ишлаш тиими асосида ривожлантириш ва шу асосида камбағалликни қисқартириш асосий мавзулардан бири экан. Бунинг учун албатта оилавий тадбиркорликни "маҳаллабай" ишлаш тизимини тўғри ва самарали йўлга қўйиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

[1] Гретченко А. И. и др. Показатели оценки потенциала саморазвития территории // Вестник Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова. – 2013. – № 12, с. 70-74.

[2] Khidirova, G. (2018) "The methods of identify impact of leading idustry on social-economicaldevelopment,"International Finance and Accounting: Vol. 2018: Iss. 4, Article 15. Available t:https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss4/1; [3] Каримов Д.А. Республика ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилишда рейтинг баҳолаш тизимининг моҳияти ва афзалликлари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнал. №5, сентябр-октябр, 2020 й.

[4] Мустафакулов Ш. Ҳудудларнинг инвестицион жозибадорлиги: аниқлашнинг услубий жиҳатлари ва таъсир кўрсатадиган омилларнинг таснифий таҳлили //Центр научных публикаций в Узбекистане. – 2019. – С. 22-22.

[5] Жиянова Н. Э, Умарова А. И. Ўзбекистон республикаси ҳудудларининг инновацион ривожланишини такомиллаштириш йўллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-ududlarining-innovatsion-rivozhlanishini-takomil-lashtirish-y-llari (дата обращения: 28.08.2020).;

RAQAMLI IQTISODIYOTDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Ulug’murodov F.F. SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistent stajyori
Ismoilov K.B. SamISI, IK-422-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Raqamli iqtisodiyotda Bulutli texnologiyalarni qo‘llashning mukammal yo‘llari, Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ularni rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, Bulutli hisoblash, Integratsiya, Big data, Axborot texnologiyalari, Cloud, IT(Information technology), Onedrive

Abstract: This article focuses on Cloud Technologies in the Digital Economy perfect ways to use them, their place in the economy of our country Conclusions and proposals for development are highlighted

Key words: Digital economy, Cloud computing, Integration, Big data, Information technology, Cloud, IT (Information technology), Onedrive,

Bugun hech bir sohani kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Axborotlashtirish va kompyuterizatsiyalash davrida sayyohlik sohasida axborotni sotish va uni uzatish bo‘yicha yangicha yondoshuvlarga olib keldi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan har bir muassasa uchun zamonaviy bo‘lgan Bulutli texnologiya bu ommabop texnologiya bo‘lib unda foydalanuvchilar Internet-platformada IT(Information technology) ma’lumot-resurslarda ma’lumot kiritish yoki olish uchun ishlatadilar. Bu texnologiya malumotlar va resurlarni onlayn-serverda saqlaydigan va foydalanuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri komputerning qattiq diskiga saqlash o‘rniga xavfsiz foydalanish uchun ishlatiladi.

Bulutli texnologiyalarning yana bir yaxshi tarafi bu onlayn serverlardan dunyoning xohlagan nuqtasidan turib ma’lumotlarni kiritish yoki qabul qilish mumkin.

Xususan O‘zbekistonda Raqamli iqtisodiyot sharoitida bulutli xizmatlardan samarali foydalanish va iqtisodiyotni raqamlashtirish borasida ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. Shu maqsadda 05.10.2020 yildagi PF-6079-son “RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- “bulutli” hisoblashlar asosida ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta’minlash;
- bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes

yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish;

- elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarini idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;
- mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish doirasida “xizmat sifatida dasturiy ta’minot”, “xizmat sifatida platforma”, “xizmat sifatida infratuzilma” texnologiyalarini keng joriy etish;[54]

Bulutli xizmat o‘rnatilgan dasturga qaraganda, katta hajmli ma’lumotlarni uzatishda sekin ishlashi mumkin. Kamdan-kam hollarda xavfsizlik past darajada, lekin ko‘p hollarda «Cloud» zaxira nusxalarni yaratadi, shuning uchun xavotirlanishga xojat yo‘q. Ma’lumotlarni saqlash uchun qimmatbaho komputer va butlovchi qismlarni sotib olishingiz shartmas, chunki hamma narsa «Cloud»da saqlanadi. Komputerning ishlashi oshadi, chunki ofis ishlarida va boshqa sohalarda «Bulut»li texnologiyalar dasturlarni masofadan boshqaradi, Shuning uchun komputerda bo‘sh joy ko‘p. Texnik xizmat ko‘rsatish muommolari yildan-yilga kamayib bormoqda, chunki jismoniy serverlar soni doimiy ravishda kamayib bormoqda va dasturiy ta’minot doimiy ravishda yangilanib turadi.

Hozirgi kunda quyidagi tarmoq va sohalarda Bulutli hisoblash texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda:

- kompyuter dasturlari
- elektron darsliklar
- simulyatorlar
- diagnostika, sinov va o'qitish tizimlari
- amaliy va instrumental dasturiy ta'minot
- laboratoriya majmualari
- multimedia texnologiyasiga asoslangan tizimlar
- telekommunikatsiya tizimlari (masalan, elektron pochta, telekonferentsiyalar
- elektron kutubxonalar va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki barcha rivojlangan mamlakatlarda Bulutli hisoblash texnologiyalaridan samarali foydalanmoqda. Bu borada O‘zbekistonda ham Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uning eng so‘nggi ilm-fan yutuqlaridan

[54] “RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

foydalangan holda iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsad qilib quyilgan. Bulutli texnologiyalarni iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga tadbiq etishdan keyin quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin.

Birinchidan, biznes, menejment, iqtisodiyot, ta'lim va tadqiqot uchun innovatsion tijamkor imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ikkinchidan, fuqorolar uchun onlayn xizmatlar ma'lumotlaridan osonlik bilan foydalana olish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, xududlarda davlat xizmatlarining davlat tashkilotlari bilan integratsiyalashish jarayonini jadallashtirish va juda katta hajmli ma'lumotlar (Big data) bilan ishlash va ular o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi jarayoni avtomtlashtiriladi. Bu esa ish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
2. Ulugmurodov Farkhod Faxriddinovich. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS USING INTERACTIVE METHODS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *International Journal of Studies in Advanced Education*, *2*(05), 73–75.
3. Faxriddinovich, U. F., & Xasanovich , N. lsmoil. (2023). Ways to Improve the Efficiency of the Public Service System in a Market Economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *4*(6), 72-74
4. Faxriddinovich, U. F., o'g'li, Q. I. K., & o'g'li , A. I. A. (2023). Prospects for the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in the Digital Economy. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *4*(6), 92-94.
5. Ulugmurodov, F. F., & Bahodirovich, H. U. (2023). Prospects of Developing Active Tourism in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, *4*(6), 69-71.
6. https://hozir.org.
7. https://newtravelers.ru.
8. https://library.samdu.uz.

II-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI INNAVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

РЕСПУБЛИКАДА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИНИ ИННОВАЦИОН АСОСДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Мирзаев Қулмамат Жонузакович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси мудири, и.ф.д., профессор,
Эгамкулов Давлатбек Баҳодир ўғли
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, “Иқтисодиёт” факултети ИК-420 гуруҳ талабаси

Аннотация: Республикада транспорт соҳасини инновацион асосда ривожлантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланиб унинг ҳуқуқий-меёрий асосларини илмий-амалий жиҳатларини тадқиқ этиш баён этилган.

Калит сўзлар: Инновация, инновацион транспорт хизматлари, транспорт инфратузилмаси, янги инновацион технологиялар, транспортда инновация.

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини жадал ривожлантирувчи муҳим ҳаракатлантирувчи ричаг сифатида транспорт соҳаси ва шу асосда амалга ошириладиган транспорт хизматларини инновацион асосда ташкил этиш ҳисобланади.

Шундай экан бу борада Ўзбекистон Республикасининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси“ таъкидланганидек:

“Транспорт ва логистика хизматлари бозори ва инфратузилмасини ривожлантириш, темир йўл инфратузилмасини электрлаштириш даражасини 60% га етказиш ва автомобил йўллари тармоғини жадал ривожлантириш”[55] муҳим вазифа сифатида белгиланган.

Тадқиқот натижаларига кўра, иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида транспорт хизматлари иштирокисиз бирорта ҳам ишлаб чиқариш жараёни бўлиши мумкин эмаслиги сабабли транспорт ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнининг ажралмас қисмидир. Шу сабабли транспорт ишлаб чиқариш жараёни таркибида қатнашибгина қолмай, маҳсулотни истеъмолчига етказиб ҳам бериш жараёнида ҳам фаол иштирок этади. Бошқача қилиб айтганда, агар транспорт бирон маҳсулотни ишлаб чиқариш жараёнидан истеъмол жараёнига етказиб бермаса, маҳсулотни тайёр, деб бўлмайди, чунки бундай ҳолатда истеъмол талаби қондирилмаган бўлади. Мазкур

[55] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида” Фармони

транспорт билан боғлиқ жараёнлар инновацион транспорт хизматлари асосида амалга оширилади.

Инновацион транспорт хизмати дейилганда инсоннинг, меҳнат жамоасининг, ҳудуднинг, давлатнинг ҳамда жамиятнинг йўловчи ва юк ташиш билан боғлиқ мавжуд ва янгидан шаклланаётган эҳтиёжини сифатли хизмат кўрсатиш йўллари билан қондиришга қаратилган транспорт ходимларининг нафли (инновацион) фаолияти. Энг аввало эътироф этиш жоизки, инновацион транспорт хизмати йўловчиларни ва юкларни ташиш хизматларини янги замонавий талаблар асосида кўрсатади. Бундай хизматга бир қанча тизилмаларнинг эҳтиёжи бор.

Шу туфайли, инновацион транспорт хизмати фақат инсоннинг эҳтиёжи билан чекланиб қолмасдан, балки, меҳнат жамоасининг, ҳудуднинг, давлатнинг ҳамда жамиятнинг янгиланиб бораётган эҳтиёжини ҳам инобатга олиши зарур. Чунки юқорида келтирилган барча субъектлар инновацион транспорт хизматидан манфаатдор.

Ҳозирги ўсиб бораётган рақобат муҳитида инновацион транспорт хизматларини кўрсатиш барча истеьмолчиларнинг янги транспорт хизматларига бўлган талабини қондиришга қаратилган бўлмоғи лозимдир. Шу туфайли янги транспорт хизматларини қондириш кўп омилларга боғлиқ бўлади.

Инновацион транспорт хизматлари кўрсатишда транспорт корхоналарида ташиш билан боғлиқ турли хизматлар (юк ташиш, йўловчи ташиш каби) амалга оширилади ва улар бошқа бир қатор омилларга ҳамда ўзига хос хусусиятларга боғлиқ бўлади.



1-расм. Республикада йўловчиларни ташиш транспорти хизматлари турлари

Йўловчи ташиш билан боғлиқ хизматлар транспорт хизматларига нисбатан ўзига хос хусусиятларга эга. Транспорт хизмати кенг маънода бўлса, йўловчи ташиш хизматлари ушбу хизматнинг таркибий қисми бўлиб ҳисобланади. Унинг бир қанча турлари мавжуд. Нима бўлганда ҳам йўловчи ташиш транспорти хизматлари такомиллашиб, унинг сифати

ошиб, мазкур соҳада рақобат ва тадбиркорлик муҳити чуқурлашиб боришни тақозо қилади.

Мазкур масала бўйича Ўзбекистон Республикаси алоҳида давлат сиёсати юритилган бўлиб, у жараён тегишли меёрий-ҳуқуқий хужжатлар билан асосланган. Буларнинг барчаси транспорт хизматларини инновацион асосда фаолият юритишини таьминлаб туради.

“Автомобил транспорти тўғрисида”[56]ги Ўзбекистон Республикасининг қонунида юк ва йўловчи ташувчиларнинг бир қанча ҳуқуқларини, мажбуриятларини ҳамда янги хизмат турларини эътироф этган. Буларга қуйидагилар киритилган:

- ❖ умумий фойдаланишдаги барча автомобил йўллари, шунингдек идораларга қарашли умумий фойдаланиш учун очиқ автомобил йўлларининг янги йўналишлари орқали ўтиш;
- ❖ янги жўнатилаётган юк ўз сертификатига мувофиқ эканлигини тасдиқловчи ҳужжатларни олиш;
- ❖ фуқаролар ҳаётига, йўл ҳаракати хавфсизлигига таҳдид солувчи, экология ва санитария нормалари бузилишига ёки бошқа ғайриқонуний ҳаракатларга сабаб бўлувчи ҳолатларда ташишдан воз кечиш каби қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ҳуқуқлар ва мажбуриятлар билан боғлиқ йўналишларга эга бўлиши мумкин(2-расм).

Ташиш хизматларини амалга ошириш бўйича давлат сиёсатининг ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ йўналишлари



2-расм. Транспорт хизматларида давлат сиёсатининг муҳим йўналишлари

Умуман, юқоридагилардан келиб чиқиб Ўзбекистон иқтисодиётини жадал ривожлантиришни инновацион транспорт хизматлари орқали жадал ривожлантириш муҳим иқтисодий имкониятлардан ҳисобланади.

[56] “Ўзбекистон Республикаси автомобил транспорти тўғрисида”ги қонуни. 1998 йил 29 август

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 27.12.2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida bayon etilgan takliflar va xulosalardan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida” qarori, SQ-669-IV-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, PF-60-son
3. “Автомобил транспорти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. 1998 йил 29 август
4. Қ.Ж Мирзаев, Э.Ш. Шавқиев, Б.К. Жанзаков. Инновацион иқтисодиёт. (Уқув кулланма - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»,2020. - 298 бет.

ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ – КОРХОНА ИҚТИСОДИЁТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ БОШ ОМИЛИ

Шавқиев Э. СамИСИ профессори в/б

Бугунги кунда жамият шу даражада тараккий этиб кетдики, унда ўз ўрингa эга бўлишни истаган ҳар кандай корхона рақобатга киришмоғи шарт бўлиб қолди. Эндиликда, рақобатбардош корхоналаргина ўз ҳаётлари давомийлигини саклаб қолишининг аҳамияти ортиб бормоқда.

Ҳозирги пайтда шундай корхоналар пайдо бўлдики, улар бошқа корхоналардан 20-30 йил илгари юришади. Уларнинг бундай илдамлиликка эришишида инноватsion технологияларнинг ўрни ниҳоятда каттадир. Кучли рақобат шароитида – янги инноватsiяларни киритадиган ва малакали кадрларга эга бўлган корхоналаргина ўз ўрниларини топишлари мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 23 декабрда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида мамлакатимиз замонавий юксалишга эришиш мақсадида инноватsion ривожланиш босқичига кирганлигини эътироф этилган. “Инноватsiя – бу келажак дегани. Биз буюк келажагимизни барпо этишни, айнан инноватsion ғоялар асосида бошлашимиз керак. Инноватsion ривожланиш ва рақамли иқтисодиёт йўлига ўтишимиз бежиз эмас. Чунки, замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга, инноватsiяга таянган давлат ютади”[57].

Инноватsiя – корхоналарларда амалга оширилаётган ишлаб чиқаришни, унинг моддий техника базасини янгилаш ҳамда ривожлантириш мақсадида янги ғоялар ва ишланмаларни яратиш, ўзлаштириш ва татбиқ этишга қаратилган махсус фаолиятдир. Фаолият

[57] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 23 декабрь 2017 йил

сифатида – инноватsияларни инсоният меҳнат фаолиятининг барча жабҳаларида қўллаш мумкин. Бу фаолиятни юритиш – жамиятда фан-техника тараққиётига олиб келади.

Фан-техника тараққиёти – корхоналарнинг ишлаб чиқариш фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим омил бўлиб келган ва ҳозирда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Шундай экан, биз фан-техника тараққиётини тадқиқ этишимизни тақозо этмоқда ва бунинг учун унга таъсир этувчи омилларни билишимиз, такомиллаштиришимиз ҳамда ўрганишимиз лозим.

Хусусан, фан-техника тараққиёти омилидан фойдаланиш йўллари:

- ишлаб чиқариш ва меҳнатни механизатsiялаштириш, автоматлаштириш ҳамда комплекс равишдаги механизатsiялаштириш; (диверсификатsiя қилиш, модернизатsiя қилиш)
- асосий технологик жараёнларни роботлаштириш;
- прогрессив, меҳнат ҳамда ресурсларни тежашга йўналтирилган технологик жараёнларни амалиётга киритиш ва улардан кенг фойдаланиш;
- хом ашё ва материаллар (меҳнат предметлари) замонавий турларини яратиш ва улардан фойдаланиш;
- ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, режалаштириш ва бошқариш жараёнларида замонавий ахборот технологияларидан, ҳисоблаш техникасидан фойдаланиш;
- ишлаб чиқариш ва меҳнатни илмий асосда ташкил қилиш.

Фикримизча, фан-техника тараққиёти ютуқларини (инноватsияларни) ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш учун қуйидагилар талаб қилинади:

- фан-техника тараққиётининг айни пайтда зарур бўлган йўналишларини излаш ва аниқлаш;
- пул маблағларини ва бошқа зарур бўлган ресурслар (инвестициялар) излаб топиш;
- замонавий илмий-техникавий ишланмаларга ихтисослашган илмий-тадқиқот институтлари, конструкторлик, технологик ва бошқа илмий муассасалар билан керакли алоқаларни “боғлаш”;
- ўз илмий-техникавий мақсадларининг самаралилигини ҳисоблаб чиқиш;
- ишлаб чиқариш бўлинма (цех, бўлим) ларни фан ва техниканинг энг янги ютуқлари асосида қайта қуроллантириш;
- олимлар, конструкторлар, муҳандис ва ишчиларнинг ижодий руҳда меҳнат қилишлари учун иқтисодий ва социал манфаатдорликни яратиш;
- ижодий гуруҳлар, сифат гуруҳлари ташкил қилинган, яъни фан-техника тараққиёти билан узвий боғлиқ бўлган олий ўқув юртлари, илмий марказ ва лабороториялар билан алоқаларни ривожлантириш.

Корхоналар инноватsion фаолиятига ички ва ташқи омиллар таъсир этади. Ички омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- ишлаб чиқариш базаси ривожланишининг моддий-техник базаси;
- корхона ихтисослиги ва ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг мақсади;
- бошқарув тури ва ташкилий тузилмаси;
- бошқарув услуби ва услубиёти;
- ишлаб чиқаришнинг янгилик даражаси;
- турли хил ходимларнинг талаб қилинган ва мавжуд малакавий даражаси;
- ходимларни рағбатлантириш тизими;
- ходимларнинг инноватsiявий фаоллиги даражаси;
- ташкилий маданият ва бошқалар.

Ташқи омиллар сирасига қуйидагилар киради:

- бозор тузилмалари;
- солиқ тизими;
- қонуний-ҳуқуқий тизим;
- молия-кредит тизими;
- умумиқтисодий, социал ва ташқи сиёсий характерга эга омиллар;
- тарихий ва миллий омиллар.

Юқорида келтирилга ички ва ташқи омиллар ишлаб чиқариш жараёнида замонавий технологияга асосланган, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босадиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш, корхоналар манфаатларини ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлаш, уларнинг экспорт салоҳиятини ошириш ҳамда мамлакат экспорт ҳажмида инноватsion маҳсулотлар улушини кўпайтиришга хизмат қилади.

Бу жараёнларда қуйидагиларга асосий эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- инноватsion фаолиятни ривожлантириш учун зарурий инфратузилмани шакллантириш;
- юқори технологияларга асосланган ишлаб чиқаришни ташкил этиш;
- юқори қўшилган қийматга эга экспортбоп ва импорт ўрнини босадиган маҳсулотларни ишлаб чиқиш;
- ишлаб чиқариш кооператsiясини ривожлантириш орқали юқори технологияга асосланган ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш жарёнларини чуқурлаштириш;
- инноватsion корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотларни халқаро стандартлар бўйича лицензиялаш;
- ташқи иқтисодий фаолият билан боғлиқ молиявий ва бошқа хатарларни суғурта қилишни таъминлаш;
- экспортёрларга ахборот-маслаҳат кўмагини ташкил қилиш ҳамда махсус имтиёзлар тизимини тақдим этиш;

• инноватsion маҳсулотлар ярмаркаси ва кўргазмаларини ўтказиш, рекламани ташкил қилиш ва хорижий давлатларда шерикларни топишга кўмаклашиш;

• рақамли технологиялар асосида ишлаб чиқариш жарёнига босқичма-босқич ўтиш;

• инноватsion фаолиятни амалда қўллайдиган корхоналарга имтиёзли пакетларни тақдим этиш ва божхона имтиёзларини бериш;

• халқаро бозорларда миллий инноватsion маҳсулотлар рақобатбардошлигини ошириш бўйича шарт-шароитлар яратиш зарур.

Инноватsion фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг ушбу йўналиши – фаолияти юқори технологияга асосланган, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босадиган маҳсулот ишлаб чиқарадиган корхоналарнинг экспорт салоҳиятини оширишга ва уларнинг ташқи иқтисодий фаолияти самарадорлигини таъминлашга имкони беради.

Инноватsion фаолият юритишда лаёқатсизлик - корхона иқтисодиётини ўта издан чиқариши ва унинг банкрот бўлишига олиб келиши мумкин.

Инглиз тадқиқотчиларининг фикрича янги ташкил этилган фирмаларнинг 70-80 фоизи фаолият юритишларнинг иккинчи йили охирига бориб тугаб кетади.

Корхона фаолияти самарадорлигини ошириш учун бошқарув ходимлари қуйидаги омилларга эътибор қаратишлари керак:

• бозор талабларига жавоб берувчи юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришда энг кам харажатлар билан ишлаб чиқаришнинг максимал ҳажмини таъминловчи, энг қўлай ишлаб чиқариш жараёнини танлаш;

• ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг тури ва сифатини ошириш ҳамда жаҳон стандартлари даражасига етказиш;

• ортиқча ишлаб чиқариш воситаларининг шаклланишига йўл қўймаслик, энг мақбул бўлган миқдорда ишлаб чиқариш заҳираларини яратиш;

• ишлаб чиқаришга техника ва технологияларнинг сўнгги авлодини жорий этиш асосида маҳсулот сифатини ошириш;

• мавжуд ишлаб чиқариш салоҳияти − асосий ва айланма фондлар ҳамда ишчи кучидан тежамкорлик асосида унумлироқ фойдаланиш;

• бошқарувда − бошқариш, режалаштириш, иқтисодий рағбатлантиришнинг усул ва шаклларини, яъни корхона фаолиятининг бутун хўжалик механизмини такомиллаштириш;

• ишлаб чиқарувчи корхоналар иқтисодий фаолиятни яхши билувчи, саводли ва малакали мутахассисларни танлаш ва уларни жалб этиш.

Корхонанинг самарали фаолият юритишига тўсқинлик қилувчи негатив ҳолатлар:

- ҳаракатсизлик;
- фан-техника ютуқларини корхона фаолиятида қўлламаслик;
- ўз имкониятлари ва ресурсларидан етарлича фойдаланмаслик.

Корхонанинг самарали фаолият юритишида унга раҳбарлик қилаётган шахснинг билими, тажрибаси ва профессионал малакаси, иш юритиш стили ва усуллари фан-техника тараққиётига мос келиши зарур.

Бугун мамлакатимизда шундай амалий тажриба тўпландики, унга кўра, барча фаолият турларида тежамкорликка риоя этувчи, ўз салоҳиятидан унумлироқ фойдаланувчи, замонавий фан ва техника ютуқларига таянувчи, замон билан ҳамнафас ҳолда ҳаракат қилувчи корхоналар бозорларда ўз ўринларига эга бўлишмоқда ва келажакда юқори мавқега эришишлари учун замин яратишмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисидаги” Қонуни,

2.Ўзбекистон Республикасининг “Инноватsion фаолият тўғрисида”ги Қонуни, 2020 йил 24 июль.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 апрелдаги “Инноватsion ғоялар, технологиялар ва лойиҳаларни амалий жорий қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПҚ-3682-
сонли Қарори.

4.Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 23 декабрь 2017 йил.

5.Мирзаев Қ.Ж.,Шавқиев Э.Ш., Жанзаков Б.К. Инноватsion иқтисодиёт: ўқув қўлланма. – Т.: “Инноватsion ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020

6. Шавқиев Э.ва бошқалар. “Корхона иқтисодиёти” фанидан маърузалар курси. (I-II қисмлар) – Самарқанд, СамИСИ, 2016.

ПУТИ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РЫНКЕ ТРУДА

Мусаева Шоира Азимовна профессор кафедры Маркетинга
Усмонова Дильфуза Илхомовна доцент кафедры Маркетинга
Email:musaeva_shoira@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассмотрены приоритетные направления развития образовательных услуг, современное состояние образовательных учреждений, являющихся ведущими субъектами образовательных услуг в нашей стране, и их существующие проблемы, содержание образования и его organizatsia в текущий период.

Ключевые слова:Рынок труда, образовательные услуги, инструмент маркетинга, концепция исследования, цель и миссия.

Abstract: This article examines the priority directions for the development of educational services, the current state of educational institutions, which are the leading subjects of educational services in our country, and their existing problems, the content of education and its organization in the current period.

Key words: Labor market, educational services, marketing tool, research concept, goal and mission.

Важнейшим маркетинговым инструментом принятия управленческих решений в образовательном учреждении являются маркетинговые исследования рынка образовательных услуг. На аналитическом этапе разработки стратегического плана развития образовательного учреждения необходимо заполнить несколько доступных методов изучения рынка образовательных услуг для объединения informatsii с анализом факторов, влияющих на поведение и решения потребителей.

Шу нуқтаи назардан Самарқанд вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, уларнинг фаолияти учун қулай муҳит яратиш борасида амалга оширилаётган тадбирлар 2018 йилнинг 1 январ ҳолатига рўйхатга олинган жами кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектларининг сони 17261 тани ташкил қилди. 2017 йил январ-декабрда ялпи ҳудудий маҳсулотнинг 70,5 фоизи (2016 йил январ-декабрда 72,2 фоиз) кичик бизнес субъектлари томонидан ишлаб чиқарилди. 2017 йилнинг январ-декабрида кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари томонидан:

- 1286,3 минг нафар кишининг бандлиги таъминланди (жами иқтисодиётда банд бўлганларнинг 84,5 фоизи), шу жумладан банд бўлганларнинг 1057,8 минг нафари якка тартибдаги тадбиркор, 228,5 минг нафари кичик корхона ва микрофирмалар ҳиссасига тўғри келди;

- саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми 5088,7 млрд. сўмни (жами саноат ишлаб чиқаришининг 55,5 фоизи) ёки 2016 йилнинг январ-декабрига нисбатан 103,2 фоизни ташкил қилди; - қишлоқ, ўрмон ва балиқ

хўжаликларининг ишлаб чиқарилган маҳсулотлари (кўрсатилган хизматлар) умумий ҳажми 8978,4 млрд. сўмни ташкил қилиб, ўсиш суръати 101,4 фоизни (қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликлари ялпи маҳсулотининг 98,8 фоизи) ташкил қилди. - 1855,1 млрд. сўмлик инвестициялар (умумий инвестициялар ҳажмининг 56,1 фоизи) ўзлаштирилди ва 2016 йилнинг январ-декабрига нисбатан 90,6 фоизга ўсди;

- 2171,1 млрд. сўмлик қурилиш ишлари (қурилиш ишлари умумий ҳажмининг 92,4 фоизи) бажарилди ва 2016 йилнинг январ-декабрига нисбатан 111,0 фоизга кўпайди; - автомобил транспорти юк айланмасининг ҳажми 941,2 млн.тн.км ўсиш суръати 102,8 фоизни (вилоят жами юк айланмасининг 93,8 фоизи) ташкил қилди, ҳамда йўловчи айланмасининг ҳажми 13373,4 млн.кишини ташкил қилиб ўсиш суръати 102,7 фоизга (умумий йўловчи айланмасининг 97,4 фоизи) кўпайди;

- чакана товар айланмаси умумий ҳажмининг 93,0 фоизи ёки 8385,2 млрд. сўми (ўсиш 100,6 фоиз) ва хизматлар умумий ҳажмининг мос равишда 72,4 фоизи ёки 3520,0 млрд. сўми (ўсиш 100,4 фоиз) шакллантирилди;

- 212,6 млн. АҚШ доллари (умумий экспорт ҳажмининг 82,5 фоизи) миқдорида маҳсулотлар (товар ва хизматлар) экспорт қилинди, 504,4 млн. АҚШ доллари (умумий импорт ҳажмининг 60,1 фоизи) миқдорида маҳсулотлар (товар ва хизматлар) импорт қилинди.

Самарқанд вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, уларнинг фаолияти учун қулай муҳит яратиш билан бирга бир қанча муаммолар мавжуд бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

- кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субеъктларига кредитлар ва имтиёзли кредитлар ажратишда;

- кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик билан шуғулланмоқчи бўлганларга ер участкаси ва бинолар ажратишда;

- Самарқанд шаҳар худудида ер участкаларини онлайин орқали савдосини ташкил этишда ва уларни янада такомиллаштиришда;

- кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг бизнес йўналишлари ўзгарганда уларни олдида қурилиш қилиш ёки уларни бўзиб, янги лойиҳалар асосида қайта қуриш ишларини амалга оширишда архетиктура, кадастр, шаҳарсозлик ва шаҳар хокимини қарорларини чиқаришдаги буюракиратик тўсиқларни мавжудлигини олиб ташлаш ва улардаги ҳужжатлар айланиш жараёнини тезлаштириш;

- Самарқанд вилоятининг айрим туманларида йўл комуникatsiяси, айниқса темир йўллари, ичимлик суви, газ, электр энергия ва оқова тизимининг мавжуд эмаслигида (агар мана шу муаммолар ечилса хориждан келаётган инвесторларнинг янада кўпайишига олиб келади);

- Самарқанд вилоятининг айрим туманларида интернет тезлигини сустлиги;

- тадбиркорларининг ҳуқуқий саводхонлиги пастлиги ёки йўқлиги ҳам соҳани ривожланмасликка сабаб бўлмақда.

Ҳаётда барча нарса бир-бири билан боғлиқ. Тадбиркорларнинг нақд пул тушумини виждонан инкассatsiя қилиши фарзандлар таълим тарбияси, йўллар ва шифохоналар, бошқа муҳим инфратузилмаларни барпо этиш каби масалаларни ҳал этишда муҳимдир. Фуқаролар эса, бозорларда ватанпарварлик намоён этиб, ўзимизда ишлаб чиқилган, сифати хорижникидан қолишмайдиган, ҳатто айрим жиҳатлари бўйича уларни ортда қолдирадиган, қолаверса, ҳамёнбоп маҳсулотларни харид қилишса маҳаллий тадбиркорларни қўллаб-қувватлаган, уларга кўмак берган бўлади.

Хулоса қилиб айтиш керакки, бизнинг фикримизча бугунги кунда кўплаб кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш орқали рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш, аҳолининг бандлиги ва турмуш фаровонлигини ошириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мумкин:

- Самарқанд вилоятида иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш учун маҳаллий ҳокимият бошқаруви томонидан тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг зарурий шарт-шароитларини яратиб бериш, ишлаб чиқариш ва истеъмол товарлари вилоят аҳолисининг иқтисодий ҳолатларини эътиборга олган ҳолда нархларининг асоссиз ўсишини олдини олиш зарур;

- кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини ривожлантиришдан асосий мақсад нафақат аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш, маҳаллий ресурслардан самарали фойдаланиш асосида маҳаллий саноат тармоқларини ривожлантириш, балки мамлакатнинг экспорт салоҳиятини ҳам оширишдир;

- вилоят туманлари бўйича кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожланишини таҳлил қилиш асосида туманларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари бўйича туманлардаги унинг иқтисодий ўсиш кўрсаткичи вилоятнинг ўртача кўрсаткичларидан паст ва унинг асосий сабаблари маҳаллий табиий ресурслардан фойдаланмаслиги, инвестиция тушумларининг турли даражада эканлиги, зарурий хом-ашё билан таъминланмаганлиги, хорижий инвестициялар тушумини талаб даражасида эмаслиги кредитга тўланадиган фоизларнинг юқорилигидир;

- вилоятда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик шаклида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, маҳаллий ресурслар асосида ишлаб чиқаришни ташкил этиш кам инвестиция маблағларини талаб этиб, уларнинг бозор коньюнктураси талабларига тез мослаша олишига имкон беради;

- тадбиркор ишлаб чиқариш фаолиятини олиб боришда, ҳуқуқий, сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий омиллар ўзаро боғлиқликда амалга оширилиши унинг самарали инқирозсиз ривожланишини таъминлайди;

- тадбиркорлик субъектларини қишлоқ жойларида, аҳоли зич яшайдиган ҳудудларда жойлаштирилиши бозор иқтисодиётининг барқарор ривожланишини ва ишлаб чиқариш кучларини иш ўринлари билан таъминлашни, маҳаллий хом-ашё ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлайди;

- тадбиркорлик фаолияти ўзининг хусусияти ва турларига қараб ишлаб

чиқариш, тижорат, молиявий ва маслаҳат тадбиркорликларидан иборат бўлиб, улар мустақил субъект сифатида бозор иқтисодиёти шароитида ўзаро боғлиқликда фаолият олиб боришлари зарур. Бунинг учун вилоят туманларида инноватsion молиялаштириш, пул - кредит, ахборот, консалтинг, франчайзинг, инжиринг ва лизинг хизматлари тадбиркорлигини рақобат асосида ташкил этиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O’zbekiston Respublikasining “Kichik va O’rta biznesni boshqarish haqida” gi PQ – 364 – son.
2. “Investitsiya loyihalarini loyiha oldi hujjatlarinin isjlab chiqish sifatinin oshirish to’g’risida”gi 2017 yil 15 martdagi PQ – 2836 sonli O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari.
3. Ulugmurodov, F. F., & Bahodirovich, H. U. (2023). Prospects of Developing Active Tourism in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(6), 69-71
4. Jo’rayev, B. N. (2022). TURIZM KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(8), 15-20.
5. Faxriddinovich, U. F., & lsmoil Xasanovich, N. (2023). Ways to Improve the Efficiency of the Public Service System in a Market Economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(6), 72-74.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИ

Артикова Шохида Илясовна
СамИСИ ўқитувчиси
artikova_1988@mail.ru

Аннотация. Мақола иқтисодиётнинг рақамли технологиялар асосида трансформатsiялашиши шароитида хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятининг самарадорлигини ошириш масалаларига бағишланган.

Калит сўзлар. Рақамли иқтисодиёт, рақамли технологиялар, хизмат кўрсатиш, ялпи ички маҳсулот, экспорт, ахборот-коммуникатsiя технологиялари.

Аннотация. Статья посвящена вопросам повышения эффективности предприятий сферы услуг в условиях трансформатsiи экономики на основе цифровых технологий.

Ключевые слова. Цифровая экономика, цифровые технологии, услуги, валовой внутренний продукт, экспорт, информатsионно-коммуникатsионные технологии.

Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши бугунги кунда барча соҳаларда катта ижобий ўзгаришларга олиб келмоқда. Масалан, жаҳон банки мутахассисларининг тадқиқотлари кўрсатишича, тезроқ Интернетдан фойдаланувчилар сонининг атиги 10 %га кўпайтирилиши миллий иқтисодиёт ялпи ички маҳсулоти ҳажмини ҳар йили 0,4-1,4 %га ошишига туртки бўлмоқда. Жаҳонда рақамли иқтисодиёт ўсишининг суръатлари ҳозирнинг ўзида йилига деярли 20 %ни ташкил этади. Ривожланган давлатларда рақамли иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 7 %га етган. Улар бугунги кунда рақамли иқтисодиётнинг жорий қилинишидан жуда катта фойда кўрмоқда. Жумладан, АҚШ йилига 400 млрд. доллардан кўпроқ «рақамли хизмат»ларни экспорт қилмоқда.

Рақамли иқтисодиётнинг хусусиятларидан бири – бу юқори тезликда маълумотларни қайта ишлаш ҳисобланади. Тезлик ҳамма соҳаларда ўсмоқда, айниқса буюртмаларни бажаришда, маълумотларни жўнатиш ва қабул қилишда яққол намоён бўлмоқда. Бу товар айланишини тезлагининг ошишига ва ўз навбатида, инқирозли ҳолатларнинг камайишига олиб келади.

Бутун дунёда рақамли иқтисодиётнинг риқожланиши жуда юқори суръатларда содир бўлмоқда. Мутахассисларнинг баҳосига кўра, ушбу сектор қатнашчилари яқин келажакда яхши рақамли фойда олишади. Шунингдек, иқтисодиётда ишсизлик даражасининг камайиши, товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш харажатларини қисқаришига эришилади.

Ҳозирда республикамиз иқтисодиётини рақамли технологиялар асосида ривожлантириш ва хизматлар соҳасини модернизатsiялаш жараёнида хизмат кўрсатиш корхоналарини доимий равишда трансформатsияланиб борувчи иқтисодиёт шароитида барқарор ривожланиши, уларнинг хўжалик фаолиятида хизматлар сифати ва самарадорлигини оширишни тақозо этади. Пандемияга қарши курашиш тажрибасини ҳисобга олган ҳолда соғлиқни сақлаш соҳасида рақамлаштиришни кенгайтириш, ҳудудларда электрон клиника ва телемедицина тизимларини жорий этишни якунлаш кўзда тутилмоқда. Банк секторини, жумладан, автоматлаштирилган бошқарув тизимлари ва молиявий технологияларни рақамли трансформатsiя қилиш давом

эттирилди. Қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш учун замонавий қишлоқ хўжалиги технологиялари ва инноватsion ечимларни жорий этиш учун 600 миллион доллардан ортиқ маблағ жалб этилди.

Республикамизда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши жадал суръатлар билан амалга ошмоқда. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши истеъмолчилар талабини тўлиқ ва нисбатан тезроқ қондириш, хизмат кўрсатиш соҳалари ва тармоқларида меҳнат унумдорлигини ошириш имконини беради. Электрон тижорат товарлар ва хизматлар реализатsiясини тезлаштириш асосида инқирозларни олдини олиш имконини беради. Бунда виртуал тўловлар тизими товар айланишини тезлаштиради. Интернет реклама эса ўз навбатида реклама аудиториясини янада кенгайтириб, нафақат маълум бир ҳудуд, балки бутун дунё миқёсида кенгайтириш имконини беради.

Мамлакатда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш даражаси ахборот-коммуникатsия технологияларининг (АКТ) ривожланиш даражасига бевосита боғлиқ бўлиб рақамли иқтисодиётнинг ЯИМдаги улуши, инвестициялар ҳажми, интернет тезлиги, унинг мамлакатимиз ҳудудини қамраб олиши ва аҳоли фойдаланиши учун қулайлиги, электрон тижоратнинг ривожланиш даражаси, электрон ҳукумат тизимида давлат хизматларининг улуши, ташкилотларнинг мутахассислар билан таъминланиши каби турли кўрсаткичлар билан баҳоланади. Бундан ташқари, мамлакатда ахборот технологияларининг ривожланиш даражасини баҳоловчи халқаро рейтинглардаги кўрсаткичлар муҳим аҳамиятга эга.

Жумладан, ахборот ва алоқа хизматлари соҳасида ялпи қўшимча қиймат 2016 йилга нисбатан 2020 йилда 2 бараварга, яъни 4,4 трлн. сўмдан 8,8 трлн сўмгача ўсди.

Рақамли иқтисодиётнинг муҳим мувоффақият омили бўлиб, давлат, тадбирколик ва фуқаролик жамияти учун келгусидаги ҳолатлар ва муаммоларни моделлаштириш ва оператив таъсир кўрсатишни амалга оширишни назарда тутувчи маълумотлар ва бошқарув технологияларининг янги модели ҳисобланади.

2016–2020-йилларда ЯҚҚ таркибида Ахборот ва алоқа хизматлари ҳажмининг ўсиш динамикаси[61]

	2016 у.	2017 у.	2018 у.	2019 у.	2020 у.
ЯИМ, шу жумладан:	242,5	302,5	406,6	510,1	580,2
Тармоқларнинг ЯҚҚ, шу жумладан:	220,1	267,7	361,1	464,9	535,8
ахборот ва алоқа хизматлари	**4,4**	**5,7**	**7,0**	**7,4**	**8,8**

[61] Давлат қўмитаси маълумотлари

Шунга кўра, республикамиз ҳукумати томонидан рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бўйича кенг кўламли чоралар ишлаб чиқилмоқда. Ушбу жараёнда соҳада рақамли технологияларни жорий этиш асосида корхона ходимларини ва ресурсларини самарали бошқариш, хизмат кўрсатиш стандартларига риоя қилиш, кўрсатилаётган хизматларнинг истеъмолчилар талабларига мос келишини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса хизмат кўрсатиш корхоналарида хизмат кўрсатиш жараёнларини илмий асосда ташкил этиш ва иқтисодий фаолиятнинг бевосита ахборот-коммуникatsiя технологияларининг ривожлантирилиши билан боғлиқ бўлган рақамли маълумотлар воситасида хизматлар кўрсатиш самарадорлигини ошириш механизмларини такомиллаштиришни талаб қилади. Хизматлар соҳасининг бундай тараққий этиши эса, мамлакат иқтисодиётининг янада барқарорлашуви ҳамда аҳоли турмуш даражасининг ошишига ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни ошириш бугунги кунда миллий иқтисодиётимиз олдида турган вазифалардан бири бўлиб, рақамли технологиялар асосида сифат ва самарадорликни ошириш йўналишларини ишлаб чиқиш зарруратини келтириб чиқаради.

Фойдаланган адабиётлар

4. Абдурахмонов.Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт), дарслик, Т.: “Меҳнат”, 2004-Б.95.

5. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для вузов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр

ТУРИЗМ КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ОРҚАЛИ ҲУДУДИЙ ТУРИЗМНИНГ ИННОВАЦИОН САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети мустақил изланувчиси +998662408604, aziztukhtamishov@univ-silkroad.uz

Аннотация: Ушбу мақолада туризм кластерларини ташкил этиш орқали ҳудудий туризмнинг инноватsion салоҳиятини ошириш бўйича назарий ёндашувлар, ҳудудларнинг инноватsiя салоҳиятидан унумли фойдаланиш бўйича янгича ёндошувлар, шунингдек миллий иқтисодиётни кластерли ривожлантириш концепцияси ва ҳудуд иқтисодиётининг стратегик кластерли ривожланиш концепциясининг бир-бирига мувофиқлиги бўйича услубий ёндашувнинг моҳияти тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: туризм, ҳудудий туризм, туризм кластери, инноватsiя, инноватsion салоҳият, концепция, услубий ёндашув, ёпиқ занжир, инноватsion инфратузилма, миллий инноватsion тизим.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические подходы повышения инноватsionного потенциала регионального туризма посредством организатsiи туристских кластеров, новые подходы к эффективному использованию инноватsionного потенциала регионов, а также сущность методического подхода к сочетаемости концепции, исследованы кластерное развитие натsiональной экономики и концепция стратегического кластерного развития региональной экономики.

Ключевые слова: туризм, региональный туризм, туристический кластер, инноватsiя, инноватsionный потенциал, концепция, методический подход, замкнутая цепочка, инноватsionная инфраструктура, натsiональная инноватsionная система.

Abstract: This article discusses theoretical approaches to increasing the innovative potential of regional tourism through the organization of tourist clusters, new approaches to the effective use of the innovative potential of regions, as well as the essence of the methodological approach to the compatibility of the concept, the cluster development of the national economy and the concept of strategic cluster development of the regional economy are studied.

Key words: tourism, regional tourism, tourism cluster, innovations, innovation potential, concept, methodological approach, innovation infrastructure, national innovation system.

Мамлакатимизда ҳудудларнинг рақобатбардошлигини оширишга йўналтирилган кластерлар тармоғини яратиш ҳамда инноватsion юқори технологияли кластерларни ташкил этиш масалалари Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини 2025 йилгача бўлган муддатда ривожлантириш концепциясига мувофиқ амалга оширилмоқда.

Кузатишларимиз шуни кўрсатдики, ҳудудларнинг инноватsiя салоҳиятидан унумли фойдаланиш ва уни янада кенгайтиришда туризм кластерларини ташкил этиш қуйидаги имкониятларни беради:

– туризм бизнеси, фан ва давлат бошқарув ташкилотларининг биргаликдаги ҳаракатларининг мувофиқлаштирилиши;

– туристик кластер қатнашчилари фаолиятининг ресурсларга эга бўлиш имкониятини (ахборот, инноватsiя ва технологик) кенгайтириш ҳамда инфратузилма объектларидан биргаликда фойдаланиш йўли билан харажатлар, жумладан, трансакция харажатларини камайтириш асосида самарадорлигини ошириш;

– туризм хизматларининг ишлаб чиқарувчилари ва истеъмолчилари ўртасидаги ўзаро таъсирни кучайтириш асосида инноватsion маҳсулотларни яратиш ва бозорга олиб чиқиш жараёнини жадаллаштириш;

– кластерни шакллантиришда иштирок этувчи инвесторлар учун имтиёзларнинг мавжудлиги сабабли минтақада қулай инвестиция муҳитини шакллантириш;

– янги бизнесни яратиш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларини яхшилаш асосида рақобатни рағбатлантириш;

– туристик маҳсулотни истеъмолчиларга етказиб беришнинг барча зарур бўғинлари битта ҳудудда тўпланиши натижасида қўшилган қиймат ўсишининг ёпиқ занжири шаклланиши.

Бизнинг фикримизча, кластерлаштириш миллий иқтисодиётни кластерли ривожлантириш концепцияси ва ҳудуд иқтисодиётининг стратегик кластерли ривожланиш концепциясига мувофиқ бўлиши лозим ва қуйидаги услубий ёндашувни назарда тутиши керак (1-расм).



1-расм. Ҳудудда туризм кластери ривожланишининг услубий асослари[62]

Бугунги кунда кластер лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган тадбирларни режалаштириш алоҳида аҳамиятга эга. Кластер лойиҳаларини режалаштириш ва амалга оширишда ишлаб чиқувчилар бундай туристик тузилмаларни жойлаштиришни назарда тутишлари зарур. Туризм соҳасида кластерлар туристларни жалб қилиш учун ахборот, экологик, ресурс таъминоти, маъмурий, бошқарув, техник-технологик, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш учун зарур шарт-шароитлар яратмасдан, фақат инфратузилмавий жиҳатдан ривожланмоқда.

Ушбу ёндашувга асосланган ҳолда, биз, мамлакатимизда кластер лойиҳаларини миллий, ҳудудий даражаларда ривожланаётганини кўришимиз мумкин. Ҳудудий туристик кластерлар, асосан, бир ёки бир нечта туристик марказларни ўз ичига олган туристик тузилмалар кўринишида фаолият юритади ва бир қатор хўжалик субъектлари ва корхона ва ташкилотларни ўз ичига олади.

Таъкидлаш керакки, кластер ёндашувининг инноватsion компоненти маъмурий-ҳуқуқий ва сиёсий шароитларга қараганда бутунлай бошқача ички ва ташқи муҳит шароитлари ва омиллари билан белгиланади. Шунга кўра, таҳлил натижалари шуни кўрсатмоқдаки, туризм кластерининг инноватsion салоҳияти инноватsion маҳсулотлар ва ишланмаларни етказиб берувчиларнинг бутун тизими орқали амалга оширилади. Унга қуйидагилар киради: миллий ва ҳудудий тармоқ тузилмалари (вазирликлар, агентликлар, туризм бошқармалари)нинг барча тартибга солиш функциялари; ҳокимият ва бошқарув органлари билан давлат-хусусий шериклик моделига мувофиқ кластер доирасида ҳамкорлик қилувчи ишбилармон доиралар вакиллари; таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланувчи ташкилотлар; туризмни ривожлантириш борасида турли ташаббуслар билан ҳаракат қилаётган маҳаллий ҳамжамият ва ҳ.к.

Бизнинг фикримизча, ҳудудлар туризмини ривожлантиришга нисбатан кластер ёндашувини қўллаш қўшимча равишда қуйидаги шарт-шароитлар ва имкониятларни намоён этади:

– туристик кластерлар ва бошқа ихтисослаштирилган туристик-рекреатsion ҳудудлар доирасида кичик бизнес секторини ривожлантириш;

– миллий ва ҳудудий даражаларда мавжуд туристик ресурслар ва инфратузилма объектлари салоҳиятидан ҳам ички, ҳам хорижий туристларни жалб қилиш учун самарали фойдаланиш;

– маҳаллий аҳоли, кенг жамоатчилик, ҳукумат вакиллари эътиборини мамлакат ва унинг алоҳида ҳудудларида ички ва кириш туризмини ривожлантириш муаммоларига жалб қилиш;

[62] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

– кластер ёндашуви асосида туризм соҳасини ривожлантириш учун давлат-хусусий шериклик механизмлари ва чора-тадбирлар тизимидан фойдаланиш;

– миллий туризм бозорининг хорижий ва маҳаллий инвесторлар учун жозибадорлигини ошириш;

– туризм соҳаси муҳим ҳудудларда туристик кластерлар тизимини яратиш орқали миллий туристик бозорнинг ташкилий-бошқарув тузилмасини оптималлаштириш;

– туризм инфратузилмасини такомиллаштириш, туризм йўналишларининг миллий ва ҳудудий тизимини яратиш, мамлакатнинг асосий ҳудудларида мавжуд туристик ресурслардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш;

– туристларнинг кирувчи ва ички оқимини кўпайтиришда сифатли ва хавфсиз туризм маҳсулотлари ва хизматларига бўлган эҳтиёжни қондириш мақсадида турли соҳалардаги ташкилотлар фаолиятини фаоллаштириш;

– туризм соҳаси учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ҳамда фан ва таълим муассасаларининг мавжуд илмий ва таълим салоҳиятидан самарали фойдаланиш;

– янги иш ўринларини яратиш, айниқса ишчи кучи танқислиги ёки аксинча, ишсизлик даражаси юқори бўлган ҳудудларда бу муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаймизки, ҳозирги вақтда давлатнинг innovatsion сиёсати фаол амалга оширилмоқда, унинг асосий мақсади қулай innovatsion муҳитни, самарали ҳудудий innovatsion тизимларни, ихтисослаштирилган innovatsion инфратузилмани ривожлантириш, innovatsion фаолиятни рағбатлантириш орқали техник-технологик модернизatsiялаш асосида мамлакат ва унинг ҳудудлари иқтисодиётининг саноат ва хизмат кўрсатиш соҳалари сифатида тўлақонли ва самарали миллий innovatsion тизимни шакллантиришдан иборат. Шунинг учун ҳам мамлакатнинг, ҳам алоҳида ҳудудларнинг, айниқса, чекка ҳудудларнинг innovatsion салоҳиятини таҳлил қилиш ва баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) // И.ф.д. дисс. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. 25-26-б.

2. Бойко А.Е. Формирование туристских кластеров как инструмент развития внутреннего туризма в России / А.Е.Бойко // Власть и управление на Востоке России. – 2009. – № 2 (47). – С. 224-228.

3. Курмаев Т.Э. Туристские кластеры как инклюзивное рекреatsионное поле / Т.Э.Курмаев // Проблемы и перспективы развития образования в России. – 2015. – № 37. – С. 177-179.

4. Новичков В.И., Полозков М.Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах //Journal of New Economy. – 2008. – №. 3 (22).– С. 46-49.8.

5. Олланазаров Б.Д. Кластер ёндашуви асосида туристик хизматлар соҳасида инвестицион фаолликни ошириш масаласи // - Т.: “Иқтисодиёт ва инноватsion технологиялар” илмий электрон журнали. -№1, январь-февраль, 2019.

6. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреатsionной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. – 2008. – № 86. – С. 340-344.

7. Портер М. Конкуренция / пер. с англ. под ред. Я. В. Заблоцкого. – М.: Изд. Дом. «Вильямс», 2002. - 496 с. – С. 207.

8. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-б.

9. Шабалина, Н. В. Введение в туристскую кластеризатsiю / Н. В. Шабалина [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.bzm.su/articles/article-05

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5611-сон Фармони. https://lex.uz/docs/4143188

11. Ғуломова Г.П. Туристик кластерларнинг инноватsion муҳити // Иқтисод ва молия. 2019. 11(131), 17-22-бетлар. https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-klasterlarining-institutsional-mu-iti/viewer

12. UNWTO Tourism Highlights. Edition 2017. - Madrid, WTO Publications Department-2018.

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИГА СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИ ТАҚДИМ ЭТИШ АҲАМИЯТИ

Туйчиев Шерхон Шухрат ўғли – катта ўқитувчи, PhD, Тошкент давлат иқтисодиёт университети Самарқанд филиали

Гадаев Жахонгир Мухаммади ўғли – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ассистенти

Аннотация. Мазкур мақолада хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятида солиқ имтиёзларининг аҳамияти методологик таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: Солиқ, солиқ тизими, хизмат кўрсатиш, солиқ имтиёзлари, солиқдан озод этиш, солиқ юки.

Аннотация. В данной статье представлен методологический анализ важности налоговых льгот в предприятиях сферы услуг.

Ключевые слова: Налог, налогообложение, услуг, налоговые льготы, освобождение от налогов, налоговая нагрузка.

Abstract. This article presents a methodological analysis of the importance of tax incentives in service enterprises.

Keywords: Tax, taxation, services, tax benefits, tax exemption, tax burden.

Ҳар қандай давлат унинг хўжалик юритиш тизими қандай бўлишидан қатъий назар, давлат бюджетини даромадлар билан таъминлашда асосий манбалардан бири – бу солиқлар ва солиқсиз тўловлар бўлиб ҳисобланади. Фақат бюджет манфаати нуқтаи-назаридан ўрнатилган солиқларни амал қилиш муддати узоқ вақтни қамраб олмайди. Бу эса муайян даражада солиқ имтиёзларидан фойдаланишни талаб этади.

Шунингдек, республикамиз Президенти томонидан билдирилган фикрлар диққатга моликдир: “Солиқ юкини камайтириш ҳисобига барчага бир хил адолатли солиқ режимини жорий этиш, солиқ имтиёзларини босқичма-босқич бекор қилиш лозим. ... Зеро, берилган имтиёз рақобат муҳитига салбий таъсир кўрсатаётганини тадбиркорларнинг ўзлари ҳам эътироф этмоқдалар” [1].

Солиқ имтиёзлари солиқ тўловчиларга солиқ бўйича турли хил енгилликларни беришини, улар вақтинчалик ва доимий, тўлиқ ёки қисман ва бошқа кўринишларда берилишини ифодалайди.

Солиқ тизимида солиқ имтиёзларидан фойдаланишнинг бир қатор объектив ижтимоий-иқтисодий сабаблари мавжуд бўлиб, улар қуйидагилардир:

Биринчидан, бу солиқ тўловчи (юридик ва жисмоний шахс)ларнинг жамиятда тутган мавқеи, ижтимоий ҳолатини турлича эканлиги;

Иккинчидан, давлат иқтисодиётига таъсир этиб, уни тартибга солиш, уни вазифасини амалга оширишда турли хил дастаклардан фойдаланади. Бу дастакларнинг асосийларидан бири бу жамиятдаги баъзи муҳим соҳаларни ёки солиқ тўловчиларнинг фаолиятини рағбатлантириш мақсадида солиқ имтиёзларини кенг қўллашни эътироф этади. Яъни, давлат солиқ имтиёзлари орқали иқтисодиётни самарали ва қулай бошқариш ёки тартибга солиш имкониятига эга бўлади, бундан кўринадики, солиқ имтиёзлари давлатни ўз функция ва вазифаларини юзага чиқарувчи муҳим дастак сифатида намоён бўлади;

Учинчидан, солиқ имтиёзлари қўлланилишининг асосий сабабларидан яна бири бу миллий даромадни қулай, самарали ва оқилона тақсимлашга эришишдан иборатдир. Яъни, бундан солиқлар сифатида бюджетга жалб этилиши лозим бўлган молиявий ресурслар имтиёз бериш

туфайли бюджетга жалб этилмасдан солиқ тўловчиларнинг ўзларига мақсадли равишда қолдирилади ва шу орқали солиқ тўловларини бюджетга олиш ва уни якка қайта тақсимлаш ишларини осонлаштиради.

В.Г.Пансковнинг фикрича, солиқ имтиёзи – солиқ тўловчиларига бериладиган мақсадли имтиёзли ҳуқуқ ёки иқтисодий, бюджет ва ижтимоий самарадорликни ўрнатиш имкониятига эга бўлган солиқ объекти ва солиқ базасини мақсадли озод этиш [2] деб таъриф берган.

Солиқ имтиёзларининг моҳиятини тўлароқ ёритиш борасида ана шундай турли хил фикрларни келтириш мақсадга мувофиқ [3] [4] [5] [6] [7].

Проф. Қ.А. Яҳёев фикрига кўра, “Солиқ тўловчиларни солиқдан озод этиш, улар тўлайдиган солиқ миқдорини (солиқ базасини) камайтириш ёки солиқ тўлаш шартини енгиллаштириш солиқ имтиёзидир” [8] деб таърифлаган бўлса, унда иқтисодчи Ш.Гатауллин ушбу масалага тўхталиб ўтиб, солиқ имтиёзлари амалдаги қонунларга мувофиқ равишда солиқлардан тўлиқ ёки қисман озод қилишдир (скидкалар, чегириб ташлашлар ва ҳ.к.) [9] деган фикрни илгари сурган.

Юқоридаги фикрларда иқтисодчи олимларнинг фикрларини бир неча таърифий қарашларига тўқнаш келиш ҳолатлари мавжуд, яъни “солиқдан озод этиш”, “солиқ миқдорини (солиқ базасини) камайтириш”, “солиқ тўлов шартини енгиллаштириш”, “солиқлардан тўлиқ озод қилиш”, “солиқлардан қисман озод қилиш”, “солиқ мажбуриятлари ҳажмини тўлиқ ёки қисман қисқартириш” каби ўзига хос иборали ҳолатлар шулар жумласидандир.

Бизнинг фикримизча, бундай терминларни қўллаш солиқ тўловчиларга нисбатан ҳатто чекланган имтиёзлар яратиб бериш ўта қийин. Имтиёзларни турли терминлар орқали мазмун-моҳиятини илмий нуқтаи-назардан асосланган деб ҳам бўлмайди. Қайд этилган терминлар бир йўналишдан фаолият кўрсатиб келаётган корхоналарга нисбатан боқимандалик кайфиятини келтириб чиқариши мумкин. Рақобат муҳити ва уни кучайтириш, солиқ имтиёзларисиз шакллантирилиши лозим. Солиқ амал қилган муносабатларда камчилик ҳам мавжуд бўлиши мумкин. Яъни, солиқларни белгилашда ниманидир эътиборга олишмаслиги солиқ имтиёзини юзага келтириш омили бўлиб қолиши мумкин. Бошқача қилиб айтганда, солиқ муносабатларидаги бўшлиқни солиқ имтиёзлари орқали тўлдириш мумкин бўлмоқда. Аммо бундай бўшлиқни юзага келтирмаслик учун солиқ тўловларини иқтисодий чегарасини оқилона илмий асослаш талаб этилмоқда.

Бизнинг фикримизча, ҳозирги кунда ҳар қандай зарар амал қилиб келаётган имтиёзлар билан боғлиқ бўлса, унда кўринадиган зарар (фоиз кўринишида) бюджетдан қоплаб берилиши мақсадга мувофиқдир. Шундай қилиб имтиёзларни солиқ тўловчиларни у ёки бу харажатларига ёки бошқа омилларига кўра тақдим этиш (ўрнатиш) таъқиқланиши зарур.

Хизмат кўрсатиш майдонида барча солиқ тўловчилар бир хил имкониятга эга бўлишлари лозим. А.Темур “Тузуклари”да ҳам “Солиқлар давлатнинг иқтисодий таянчи ва намоён бўлишидир” [10] деб бежиз айтилмаган.

Шунингдек, Темур тузукларида берилган солиққа тортиш тамойилларига назар ташлайдиган бўлсак, уларнинг асосини ҳам солиққа тортишда яратиладиган қулайликларга эътибор катта. Унга мувофиқ, солиқ тўловчилардан солиқларни аралаш ундиришга диққат қаратилган, “Темур тузуклари”да келтирилишича, “...кимки бирон саҳрони обод қилса, ёки ҳовуз қурса, ё бирон боғ кўтарса ёҳуд бирон ҳароб бўлиб ётган ерни обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олинмасин, иккинчи йили раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили эса солиқ қонун-қоидасига мувофиқ хирож йиғилсин” [10]. Бундан кўринадики, солиқлар бевосита хазинани иқтисодий қудратига боғлиқ бўлиб, унда солиқлар доимо уни тўловчиларини ҳимоя этган, улар манфаатларига хизмат қилган. Яъни солиқ тўловларидан озод этилсин деб айтиш, бу ҳали имтиёз эмас. Балким, хазинага олинмаган маблағ солиқ тўловчини ихтиёрига кўра жамият манфаатлари йўлига сарфланган. Давлатнинг қудратини ошиши ҳам айнан шу ҳолатни юзага келтириши билан боғлиқдир. Биз томондан берилган фикрлар ва мунозараларни юзага келтириб чиқариши мумкин, бунга ишончимиз комил. Бунда мунозараларга акс бўлувчи ўндан ортиқ юқорида келтирилган терминларга ҳам изоҳ бериб ўтиш ҳар қандай ҳолатда ҳам мунозаралардан четда қолмаслик ва эътиборга олиш лозим. Аммо уни уддасидан чиқиши кўп қиррали изланиш ишларини талаб этади.

Шу билан бирга, жамиятжа солиқ имтиёзларини қўлланилиши бўйича муносабат аниқ эмас. Ушбу солиқ элементининг ташқи жозибаси ҳам давлат, ҳам тадбиркорлик учун ҳам, умуман иқтисодиёт учун ҳам жиддий муаммоларни кўринмас қилиб қўймоқда.

Солиқлар ва йиғимлар бўйича кўп миқдорда имтиёзлар мавжудлиги тўловчиларни тенгсиз ҳолатга келтириб, баъзиларини имтиёзлар беришга мажбур қилади ва давлат учун зарарларни қоплаш учун солиқ ставкаларини оширади [11].

Шундай қилиб, амалдаги “имтиёз” ва унга тенглаштирилган терминлардан солиқ тўловчиларни чеклаш лозим ва улар ўрнига амалдаги ҳолатдан келиб чиқиб, кўрилган зарарлар асосланса, унда уларни бюджетдан қоплаб берилиши солиқ тўловларини оптималлаштиришга имконият яратиб берган бўлар эди.

Ўзбекистонда амал қилаётган солиқ имтиёзлари тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга, айрим ижтимоий масалаларни ҳал этишга қаратилган, бироқ айрим иқтисодчи олимлар имтиёзларнинг салбий жиҳатларини мавжудлигини ҳам таъкидлашади. Яъни солиқларга имтиёз бериш тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш билан бирга, тадбиркорларни солиқдан қочиб қолиш йўлларини ҳам очиши, шунингдек, солиқ

имтиёзларини хизмат кўрсатувчиларни лоқайдликка, боқимандалик кайфиятига тушиб қолишига сабаб бўлиши мумкин.

Хизмат кўрсатиш соҳа корхоналарида солиқ имтиёзлари тўлиқ амал қилиши учун бозор иқтисодиёти механизми асослари тўғри йўлга қўйилган бўлиши лозим. Биринчи навбатда, корхоналарнинг имкониятларини кучайтириш зарур. Айнан мана шу мақсадда солиқ тўловчиларга имтиёзлар билан таъсир кўрсатибгина қолмай, балки солиқ юкини пасайтириш, солиқ базасини тартибга солиш каби тадбирларни параллел йўналишда олиб бориш лозим. Солиқ имтиёзларининг берилиш тартиби биринчи навбатда, мамлакатимиздаги мавжуд вазиятдан келиб чиққан ҳолда амалга оширилиши, яъни янги технологияларни жорий этиш, хизмат кўрсатишни кенгайтириш ва техник қайта қуроллантиришга қаратилган имтиёзлар устувор аҳамият касб этиши керак.

Амалда солиқ имтиёзларини тақдим этиш хизматларини кучайтирилишини инновацион соҳани ривожлантиришни рағбатлантириш йўналишида такомиллаштириш уларни оптималлаштиришнинг муҳим йўналиши сифатида қаралмоғи лозим. Бунда таъкидлаш жоизки, инновацион жараёнлар юқори даражадаги ноаниқликлар билан боғланганлигини эътиборга олган ҳолда илмий-тадқиқот ва тажриба конструкторлик ишларини рағбатлантириш тизимини солиқ имтиёзлари тақдим этиш орқали такомиллаштиришнинг ўзига хос йўналишларда амалга оширилиши муҳимдир.

Биринчидан, корхона (ташкилот)лар ўз-ўзини молиялаштириш ҳажмларининг ўсишига ва инновацияларга, инвестициялашга рағбатни кучайтиришга йўналтирилган чора-тадбирлардан фойдаланиш (хусусан, солиқ суммаларини камайтириш, солиқ чегирмаларини жорий этиш, амортизацион имтиёзларни қўллаш ва ҳ.к.);

Иккинчидан, хўжалик юритувчи субъектларнинг молиялаштиришнинг ташқи манбаларини тақдим этилишини енгиллаштириш. Бунда давлат кафолатлари, кредитларни суғурталаш, имтиёзли субсидиялаштириш ва ҳ.к. хизматларни тақдим этилишини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни таъминлаш;

Учинчидан, янги молиявий инструментлардан фойдаланиш усулларини тақдим этиш ва бу борада давлатнинг ролини ошириш;

Тўртинчидан, молиялаштиришнинг ноанъанавий манбаларидан ва шунингдек, хусусий шахсларнинг маблағларидан фойдаланишни кенг йўлга қўйишга ва бундай жараёнлардаги рискларни давлат томонидан ҳимояланишини таъминлаш;

Бешинчидан, имтиёзли хорижий капитални жалб қилиш ва бошқалар.

Солиқ имтиёзларини ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник янгилаш ва диверсификация қилиш, инновацион технологияларни кенг жорий этиш йўналишида такомиллаштириш - уларни

оптималлаштиришнинг асосий замонавий йўналиши эканлигини назарда тутиб, бу борада юқорида ишлаб чиқилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар мамлакатимизда рақобатдошликни таъминлаш учун ишлаб чиқаришни техник ва технологик янгилаш бўйича катта ва кичик лойиҳаларни излаш, бунинг учун зарур маблағ ва манбаларни топиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Шу боис солиқ имтиёзларини тақдим этиш хизматларини давлат томонидан тартиблаштирилиши масаласини айнан шу йўналишда такомиллаштириш ҳозирги пайтда бутун дунё мамлакатлари, жумладан, мамлакатимиз олдида турган ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегиясини асосий йўналишларини белгилашда муҳим чоралардан бири сифатида эътироф этилиши лозим.

Адабиётлар

1. 2019 йилда мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор вазифалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Парламентга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь

2. Пансков В. Г. О некоторых теоретических аспектах содержания понятия «налоговая льгота» // Финансы и кредит. 2014. № 4 (580). С. 48–52.

3. Зайналов Ж.Р. Влияние налоговых льгот на развитие конкуренции на рынке инноваций. //Глобальные проблемы модернизации национальной экономики материалы VI Международной научно-практической конференции (очно-заочной): в 2 частях. 2017 Издательство: Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина (Тамбов). 26-28 апреля 2017 г. - 346-354. https://elibrary.ru/item.asp?id=29283313;

4. Маликов Т.С. Солиқ имтиёзлари хусусида баъзи мулоҳазалар // “Солиқ тизимини такомиллаштириш йўналишлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, ТМИ, ЎзМУ. 2011 йил 26 февраль. – Т., 2011, 28-б.

5. Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли. – Т.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 б.

6. Тошмуродова Б. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 б.

7. Юлдашев О.Т. Ўзбекистон республикасида солиқ имтиёзларини такомиллаштириш йўналишлари и.ф.н. диссертацияси. - Т., 2011. - 22 б. ва бошқ.

8. Яҳёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: Ғафур Ғулом, 2003.

9. Гатауллин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. – Т., 1996. – 74-б.

10. Темур тузуклари. – Т., 1993. – 98-б.

11. Горский И. В. О налоговом регулировании, налоговых льготах и функциях (историко-методологический аспект) // Экономика. Налоги. Право. Изд. Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. 2014, № 3. С. 17-22.

АГРОСЕРВИС СОҲАСИНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

Шералиев Ахрор Содиқович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Агросервис соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш орқали Республикамизда агросервисни инновацион асосда ривожлантириш Республика иқтисодий салоҳиятини оширишда муҳим масалалардан хисобланади. Шу жихатдан мазкур мақолада агросервисни давлат томонидан қўллаб қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари ёритилган.

Калит сўзлар: агрохизмат; агросервис; ташкилий-иқтисодий механизмлар; рақамли иқтисодиёт; аяшил иқтисодиёт; иқтисодий-молиявий.

Республика иқтисодиётининг турли тармоқ ва соҳалари, шу жумладан, агросервис соҳасини самарали ривожлантиришнинг муҳим йўлларидан бири уларни рақамли иқтисодиёт шароитида давлат томонидан тартибга солиш механизмларидан тўғри фойдаланиш муҳим ҳисобланади. Айниқса табиий- иқлим шароитлари ва экин ерлари унумдорлигининг ўзгаришига таъсирчан қишлоқ хўжалигини ривожлантириш борасида, аввал ҳам қайд этилганидек, хизматлар ҳажми, турларини кўпайтириш ва сифатини яхшилашга боғлиқ эканлигини эътиборга олган ҳолда, фикримизча, агросервис соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари ва, шу билан бирга, диверсификациялаш бўйича хорижий тажрибалардан фойдаланиш йўналишларига доир масалаларни таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. Чунки, унинг натижалари қуйидаги муҳим муаммо ва вазифалар ечимлари бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқиш учун асос яратади, яъни:

- рақамли иқтисодиёт шароитида агросервис соҳасига интенсив омил ва инновацион технологиялар жорий қилиш асосида хизматлар самарадорлиги ва сифатини барқарор ошириш;
- фойдаланилмаган ички омил, ресурс ва имкониятлардан самарали фойдаланиш;
- агросервис корхоналарида тўлиқ меҳнат бандлигига эришиш ва унинг самарадорлигини таъминлаш;
- сервис нархларининг барқарор даражасини таъминлаш;
- агросервисни амалга оширувчилар ва улар истеъмолчилари ўртасидаги иқтисодий муносабатларни тизимли тартибга солиш;
- агросервис соҳасини ривожлантиришнинг узоқ йилларга мўлжалланган параметрларини белгилаб олиш;

- агросервис соҳаси ва унинг хизматларидан фойдаланувчи корхона ва ташкилотлар фаолиятларини кооперация ва интеграция механизмларини тадбиқ этиш асосида тизимли ва самарали ташкил қилиш.

Шунинг билан бирга, бизнингча, агросервис соҳасида давлат томонидан тартибга солиш механизмларидан оқилона фойдаланишни ташкил этиш учун унга бевосита ва билвосита таъсир этадиган қуйидаги жараёнлар ва ўзаро алоқалар тизимини эътиборга олиш талаб этилади, яъни:

- агросервис соҳасининг умумжамият ва умумхўжалик фаолият мақсадлари билан боғлиқ ташкилий-иқтисодий жараёнлар, бандлик, инвестициялар жалб қилиш, илмий-тадқиқот ва тажриба-синов ишларини ташкил қилиш, пул муомаси ва нарх сиёсатини такомиллаштириш ва шу кабилар;

- хизмат кўрсатиш соҳаларининг бошқа йирик тармоқлар, яъни, саноат, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, маиший-коммунал, молия каби соҳалар билан ташкилий-иқтисодий муносабатларини рақамлаштириш орқали ташкил этиш ва ривожлантириш;

- соҳада фаолият юритувчи субъектлар ва уларда фаолият олиб борувчи мутахассис ва ишчи-ходимларни ижтимоий қўллаб қувватлаш ва ҳ.к.

Агросервис соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш механизмлари ва муҳим йўналишлари

Иқтисодий-молиявий

- агросервисни ривожланти-риш учун турли хилдаги им-тиёзли кредитлар ажратиш;
- инновацион хизмат турлари учун субсидиялар бериш;
- агросервис хизмат кўрсатиш субъектларига солиқ имтиёз-лари, шу жумладан, хорижий давлатларда кенг қўлланилади-ган солиқ юкини камайтириш, инновация ҳаражатларини со-лиқ олинадиган базадан чиқа-риш, солиқ танаффуси бериш, солиқ туловларини 3-5 йилдан кейин тўлаш, айрим ҳолларда солиқлардан озод қилиш;
- агросервис соҳасини ривож-лантириш учун давлат ва ма-ҳаллий бюджетлардан манзил-ли молия маблағлари ажратиш;
- сифатли сервис хизматлари кўрсатган субъект ва ишчи-ходимларни моддий рағбат-лантириш ва ш.к.

Ижтимоий-маданий

- аҳолига агросервис хизмат-лари кўрсатиш ҳажми ва си-фатини ошириш ҳисобига улар даромадини кўпайтириш;
- ўзини ўзи банд қилган аҳоли қатламига имтиёзлар бериш;
- агросервис ишчи-ходимла-рини ижтимоий-маданий жиҳатдан рағбатлантириш;
- агросервис ишчи-ходимлари-нинг иш ҳақи миқдорини хиз-мат вазифасининг мураккаб-лиги бўйича табақалаш;
- агросервис корхоналари ходимларининг ўз вазифала-рига бўлган муносабатларини эътиборга олган ҳолда юқори тарифли ишларга ўтказиш;
- агросервис корхоналарида коррупцияга қарши тизимли ишларни ташкил этиш ва ҳ.к.

Ҳуқуқий-меъёрий

- агросервис соҳасини ривож-лантиришга оид ҳуқуқий-меъ-ёрий актларни такомиллаш-тириш, давлат миқёсида дастурлар ишлаб чиқиш;
- меҳнат кодексида агросер-вис хизматлари бўйича меъёрлар киритиш;
- агросервис корхоналарини ривожлантиришни давлати-миз раҳбари ва ҳукумати актлари орқали тартибга со-лиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари ва имконият-ларини кенгайтириш;
- агросервис корхоналари ишчи-ходимларининг ҳуқу-қий-меъёрий билимларини ошириш учун тегишли махсус ҳужжатлар тўпламини ишлаб чиқиш ва ш.ў.

1-расм. Агросервис хизматлар кўрсатиш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва ривожлантириш механизмлари.

Тадқиқот жараёнида юқорида асослаб берилган дастурий чора-тадбирлар ва йўналишлар аграр соҳа ва унинг тармоқларига агросервис хизмати кўрсатувчи корхоналарда меҳнат бандлигини тартибга солиш, ишчи кучига бўлган талаб ва таклиф ўртасида мувозанатни бозор иқтисодиёти талаблари асосида тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш имкониятини яратади. Бундай нисбат соҳанинг малакали ишчиларга бўлган эҳтиёжини қондириш билан бир қаторда уларнинг иш ўринларини кўпайтириш ва шароитларини яхшилаш, рағбатлантирувчи меҳнат ҳақлари ва мотивациясини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмларини

такомиллаштиришни тақозо қилади. Шу нуқтаи назардан, бизнинг фикримизча, ташкилий-иқтисодий муносабатларни рақамлаштириш ва инновацион ахборот-коммуникация воситалари жорий этилаётган ҳозирги шароитда ва, албатда келажакда ҳам, агросервис соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва ривожлантириш қуйидаги йўналишлар билан боғлиқ механизмларни ўз ичига олиши лозим (1-расм).

Шу билан бир қаторда, бизнинг фикримизча, республикамиз шароитида агросервис соҳасини ривожлантириш ва унинг қишлоқ хўжалиги корхоналари
самарадорлигини оширишдаги роли ва таъсирига доир индустриал тараққий этган давлатлар тажриба ва механизмларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Таҳлиллар кўрсатишича, уларда давлатнинг иқтисодий-молиявий, таркибий-ташкилий, ижтимоий-маданий, ҳуқуқий-меъёрий механизмлари асосида агро-сервис соҳасини интенсив ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги субъектларига кўрсатиладиган хизматлар тизимига инновацион технологияларни жорий этиш, тармоқлар субъектлари ўртасидаги иқтисодий-ишлаб чиқариш алоқа-ларини рақамлаштириш, хизматлар ҳажми ва сифатини истеъмолчилар эҳтиёжларига мос режалаштириш, трансакция харажатларини камайтириш ва даромадларни кўпайтириш каби йўналишларда бой тажриба тўпланган. Ушбу йўналишлар бўйича хориж тажрибаларини жорий этиш республикамиз аграр соҳаси ва унда фаолият олиб бораётган хўжалик субъектларига, фикримизча, қуйидаги муҳим натижаларга эришиш учун имкониятлар яратади. Жумладан:

биринчидан, агросервис соҳасини инновацион ишланмалар ва техник-технологик воситалар орқали ривожлантиришнинг кейинги босқичлари ва жараёнлари аграр соҳа ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи хўжалик юритиш ҳамда хизмат кўрсатиш субъектлари ўзаро манфаатларини таъминлаш асосида истиқболли тараққиёт йўналишларини белгилаб беради;

иккинчидан, нафақат агросервис корхоналари, балки қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи субъектларда инновацияга асосланган янги иш ўринларини яратиш ва уларда малакали фаолият юритадиган мутахассис кадрларнинг креатив қатламини шакллантириш орқали қишлоқ аҳолисининг меҳнат бандлигини таъминлаш ва даромад манбаларини кўпайтириш учун кенг имкониятлар яратади;

учинчидан, агросервис соҳаси ва хизматлари кўрсатиш корхоналарини давлат томонидан тартибга солиш, қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришда энг замонавий фан ва техника ютуқларини жорий этишни рағбатлантирувчи ташкилий-иқтисодий механизмлардан фойдаланиш йўналишлари ва чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва улар натижаларини қўллашни тезлаштиради;

тўртинчидан, яшил иқтисодиётни барпо этиш ва ривожлантириш шароитида агросервис хизматлари кўрсатиш тизимида рақамли технологияларни ва атроф муҳитга салбий таъсир кўрсатмайдиган хизмат турларини амалиётга жорий этиш асосида тоборо кескинлашиб бораётган экологик муаммоларни ҳал этиш ечимларини топиш имкониятларини яратади;

бешинчидан, маҳсулот (товар) ишлаб чиқарувчи ва уларга агросервис хизмат турлари кўрсатувчи субъектлар ўртасидаги иқтисодий-молиявий, шу жумладан, шартномавий, хизматлар нархлари билан боғлиқ муносабатларни ўзаро манфаатли ташкил этиш йўлларини асослаб беради;

олтинчидан, давлат агросервис соҳаси учун етарли, замонавий кадрлар (бакалавр, магистр, илмий ходимлар) етказиб беришда фаол иштирок этади.

YASHIL MOLIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHI SIFATIDA YASHIL INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SIYOSATI

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna – SamISI, "Investitsiya va innovatsiyalar" kafedrasi dotsenti v.b. n.ruzibayeva0507@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda butun dunyoda yashil moliya mavzusiga katta e'tibor qaratilmoqda. Maqolada yashil moliya barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, yashil investitsiyalar mamlakatning muvozanatli ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi asosiy elementlardan biri ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, korporativ boshqaruv, global moliya, mas'uliyatli moliyalashtirish, yashil investitsiyalar, yashil moliya, ekologik texnologiyalar.

Аннотация. В последние годы теме зеленых финансов во всем мире уделяется большое внимание. В статье подчеркивается, что зеленые финансы являются важным фактором обеспечения устойчивого развития. Также было подчеркнуто, что зеленые инвестиции являются одним из основных элементов, характеризующих сбалансированное социально-экологическое и экономическое развитие страны.

Ключевые слова: экология, корпоративное управление, глобальные финансы, ответственное финансирование, зеленые инвестиции, зеленые финансы, экологические технологии.

Abstract. In recent years, the topic of green finance has received a lot of attention around the world. The article emphasizes that green finance is an important factor in achieving sustainable development. It was also emphasized that green investments are one of the main elements characterizing the balanced socio-ecological and economic development of the country.

Key words: ecology, corporate governance, global finance, responsible financing, green investments, green finance, environmental technologies.

Ekologik va iqtisodiy rivojlanish va yashil investitsiyalar bozorini moliyalashtirish sohasidagi tadqiqotlar chet elda ham, O'zbekistonda ham ko'plab akademik nazariyotchilar va amaliyotchilar tomonidan olib borilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan O'zbekiston va uning hududlari milliy iqtisodiyoti uchun barqaror o'sish modelini shakllantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar kompleksi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, "yashil investitsiyalar" va umuman "yashil moliyalashtirish" masalalari hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Tadqiqot

mavzusini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi olingan natijalarning amaliy ahamiyati bilan belgilanadi, bu esa keyinchalik muvozanatli barqaror rivojlanish uchun potentsial investorlarni jalb qilishga yordam berish uchun yashil moliya bozoridagi joriy investitsiya holatini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro taraqqiyot banklari “yashil” loyihalarni turli moliyaviy vositalardan (“yashil” kreditlar, obligatsiyalar va boshqalar) foydalanish orqali ekologik jihatdan sog‘lom va barqaror bo‘lgan barcha faoliyatlar deb tushunadilar. Shunga asoslanib, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishda foydalaniladigan barcha moliyaviy vositalar “yashil” moliya[1], “yashil” investitsiyalar, jarayonning o‘zi esa “yashil” moliyalashtirish yoki investitsiyalar deb ataladi. Jahon banki guruhi tomonidan taqdim etilgan yashil moliya asosini tavsiflovchi siyosat bayonnomasi tayyorlandi[2]:

1) davlat (soliqlar, jamg'armalar va boshqalar) va xususiy (aksiyalar, aktsiyalar, cheklar va boshqalar)ga bo'lingan moliyalashtirish manbalari;

2) ishtirokchilarni, shu jumladan milliy va ijro etuvchi hokimiyat organlarini moliyalashtirish; davlat korxonalari; institutsional va xususiy investorlar; xayriya tashkilotlari; shaxslar va fuqarolik jamiyati institutlari;

3) moliyalashtirish vositalari - o'z va qarz mablag'lari; grantlar; kafolatlar va sug'urta.

Moliyalashtirish manbalarini hisobga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda “yashil” iqtisodiyotni davlat tomonidan moliyalashtirish bilan bir qatorda, uni turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsiyalash ham keng tus olmoqda. Zamonaviy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, hozirgi vaqtda jamiyatning ekologik hayotini yaxshilash va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishga ko'maklashish uchun yangi moliyalashtirish manbalarini izlash ishlari olib borilmoqda. “Yashil” moliyalashtirish masalasi hozirda butun dunyoda inson faoliyatining barcha sohalariga integratsiyalashgan. Aksariyat xalqaro tashkilotlar ob'ektiv voqelikka va muvozanatli barqaror rivojlanishga erishish muammosiga amal qilib, o'z faoliyat doirasiga ekologik komponentni kiritadilar. Iqtisodiy munosabatlarning “inson farovonligi va ijtimoiy tengligini oshirish, ekologik xavf va ekologik defitsitlarni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keladigan iqtisodiyot sifatida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi nazariy asoslashni talab qiladi.

So'nggi o'n yillikda ishlab chiqarishning yuqori intensivligi va dunyodagi ekologik vaziyatning yomonlashuvini hisobga olgan holda, kompaniya faoliyatini baholash va kapitalni investitsiyalashda barqaror rivojlanish omillariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy mualliflar M.Adams, B.Tornton, M.Sapexri[3] o‘z asarlarida barqaror rivojlanish omillariga alohida e’tibor beradi. Shuningdek, kapital qo'yish to'g'risida qaror qabul qilishda moliyaviy va nomoliyaviy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni V.I.Barilenko, O.V.Efimova, E.V.Nikiforova[4] kabi olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda barqaror va mas'uliyatli investitsiyalarning

muvaffaqiyati so'nggi yillarda boshqaruv ostidagi aktivlarning o'sishini hisobga olgan holda juda ta'sirli ko'rinadi. Ammo eng ilg'or bozorlarda ham mas'uliyatli moliyaning kirib borishi hali ham yetarli emas.

Shu bilan birga, statistik ko‘rsatkichlarni umumlashtirish bo‘yicha ochiq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ham milliy, ham xalqaro tizimlar atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarga iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga sarmoya kiritish nuqtai nazaridan ma’lumotlarni boshqa tasnifda taqdim etadi.

Global "yashil" iqtisodiyotning ko'lami hali ham nisbatan kichik bo'lib, jahon yalpi ichki mahsulotining atigi 2,7% - 3 foizini tashkil etadi, bunday investitsiyalardan olingan foyda qariyb 1,5 milliard dollarni tashkil etadi, ish bilan ta'minlanganlik 10 million kishini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Yaponiyada sezilarli darajada yuqori. Bu davlatlar sarmoyalarning asosiy qismini yashillashtirishni rivojlantirishga yo'naltirmoqda. Ushbu sektorning rivojlanishi ikkita kichik sektor tufayli amalga oshiriladi: institutsional va investitsion, asosiy investitsiyalar G20 mamlakatlarida kuzatilmoqda va bunday siyosatning asosiy vazifasi barqaror va muvozanatli o'sishni ta'minlashdan iborat. Gap nafaqat ba'zi moddiy ne'matlarga ega bo'lish, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash, balki toza havo, toza suv, arzon energiya haqida bormoqda - ko'plab mamlakatlarda bu borada katta muammolar mavjud. Yashil moliya mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari va mahalliy maqsadli dasturlarni amalga oshirish orqali byudjetni moliyalashtirish;

2) investitsiyalar bo'yicha daromadlarni yo'qotish xavfini tenglashtiruvchi vositalardan foydalangan holda xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirish. ideal holda, investitsiyalarning asosiy qismi tashkilotlar tomonidan ekologik “yashil” loyihalar uchun jalb qilingan xususiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilishi kerak.

Investitsion ekologik loyihalarni asosan “yashil” moliyalashtirishning davlat vositalaridan foydalanishga e’tibor korxonalarni “yashil” texnologiyalarni joriy etishga yetarli darajada rag‘batlantirmayapti. “Yashil” moliyalashtirish tizimi ikki soha – moliya bozori va barqaror rivojlanish maqsadlari chorrahasida rivojlanmoqda: biznes jarayonlarini tashkil etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, moliyalashtirishni jalb qilish, investitsiya strategiyasini tanlash. Maqsadlar va investitsiya strategiyalari o'rtasidagi munosabatni tushunish risklarni boshqarishga yordam beradi, shuningdek, shakllantirilayotgan portfellar orqali barqaror rivojlanishga erishishga hissa qo'shadi [5]. Yashil moliya tizimining tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan investitsiyalar

Shunday qilib, global kontekstda yashillashtirish jarayoni barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy elementi sifatida qaraladi. Bu jarayonga tobora ko'payib borayotgan mamlakatlarning jalb etilishi global kelishuvlarning shakllanishiga olib keladi, ular nafaqat shartnomaga a'zo har bir davlatdan yashil iqtisodiyotga o'tish siyosatini rasman e'lon qilishni talab qiladi, balki sanoat ishlab chiqarishini ko‘kalamzorlashtirish, tabiiy resurslardan, transport va boshqa infratuzilmalardan foydalanish, milliy moliya tizimini “yashillashtirish” sohasidagi real harakatlar bilan bu niyatlarning amaliy tasdig‘idir. Bu borada ko‘plab davlatlar allaqachon muhim qadamlar qo‘ygan.

Yashil investitsiyalar uchun xususiy kapitalni oshirish uchun yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish kerak. Ishbilarmonlik muhiti, qonun ustuvorligi va investitsiya rejimi yashil investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi boshqa omillar qatorida muhim jihatlardir. Moliya sektorining barcha davlat va xususiy subyektlari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlar muvozanatli moliyalashtirish tizimini talab qiladi.

Ushbu sohani rivojlantirish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun milliy yashil moliya bozorini tartibga solish yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladigan yashil investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi. Ushbu siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda, bizning fikrimizcha, ushbu maqolada tasvirlangan muammolarni hal qilishga ustuvor ahamiyat berish zarurligini, shuningdek, biz shakllantirgan tavsiyalarni hisobga olish kerak.

Mas'uliyatli investitsiyalarni, xususan yashil moliyani rivojlantirish kapital bozorining umumiy investitsiyalarining o'sib borayotgan qismini tashkil etadi. Ushbu yondashuvning nisbatan yangiligini hisobga olgan holda, mas'uliyatli investitsiyalar tamoyillarini qo'llash bo'yicha mahalliy tajribada turli xil talqinlar va asosiy baholash mezonlarini aniqlashning yagona uslubiy asosining yo'qligi bilan bog'liq bir qator uslubiy nomuvofiqliklar mavjud. Maqolada "yashil" vositalarni baholashning turli yondashuvlari qisqacha ko'rib chiqiladi va tavsiflanadi, ularning har biri muammoli masalalarni o'z ichiga oladi. Yangi moliyaviy vositalarga o'tish davrining murakkabligi yaxshi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida ichki qonunchilik tizimiga moslashtirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ситник А.А. “Зеленые” финансы: понятие и система. // Актуальные проблемы российского права. 2022. Т. 17. № 2 (135). С. 63-80
2. “Зеленое финансирование” в России: создание возможностей для “зеленых” инвестиций: аналитическая записка.
3. Adams M., Thornton B., Sepehri M. The impact of the pursuit of sustainability on the financial performance of the firm. Journal of Sustainability and Green Business, 2012, vol. 1.
4. Barilenko V.I., Efimova O.V., Nikiforova E.V. and oth. Informacionno-analiticheskoye obespechenie oustoichivogo razvitia ekonomicheskich soubiektov. Moscow, publishing house RU Science, 2015. (In Russ.)
5. Dobbs P., Mishke Y. Kak sochranit trillion dollarov v god [How to save a trillion dollars in a year]. Vestnik McKinsey, 2013, no. 28, p. 78-89.

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ш.Ж.Маматкулова-
СамИСИ доценти

Аннотация. Ушбу мақолада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарини ривожлантиришда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш йўллари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, тадбиркорлик, маркетинг, инноватsiя, стратегия, рақобат.

Аннотация. В данной статье освещены способы использования маркетинговых стратегий в развитии малого бизнеса и частных предприятий.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, маркетинг, инноватsiи, стратегия, конкуренция.

Abstract. This article highlights ways to use marketing strategies in the development of small businesses and private enterprises.

Key words: small business, entrepreneurship, marketing, innovation, strategy, competition.

Республикамиз иқтисодиётининг устувор соҳаси бўлган кичик бизнеснинг ривожланиши, мамлакатимиз ижтимоий – иқтисодий соҳаларидаги кўплаб вазифаларнинг ҳал этилиши омилидир. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга кенг йўл очилганганлиги бугун мамлакат иқтисодиётининг жадал ривожланишини таъминламоқда. Инноватsion иқтисодиёт шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг аҳамияти ошиб бормоқда. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг мамлакатимиз ялпи ички маҳсулот ишлаб чикаришдаги улуши йилдан-йилга ортиб бормоқда. Бугунги кунда улар

томонидан кўплаб замонавий ишлаб чиқариш, сервис ҳамда бошқа турдаги хизмат кўрсатиш объектлари ишга туширилиши натижасида аҳолининг турмуш даражаси яхшиланиб, маҳалла ва қишлоқларимиз обод бўлмоқда. Шу боис кейинги йилларда мазкур соҳани янада ривожлантириш мақсадида қатор янгиликлар, имконият ва имтиёзлар яратилмоқда. Конъюнктураси тез ўзгарувчан бозорларда қатнашувчи, бизнес оламига энди кириб келаётган кичик бизнес корхоналарининг ривожланиши, бевосита хўжалик фаолиятининг самарадорлигига боғлиқ бўлиб, бунга маркетинг фаолияти ҳам муҳим таъсир кўрсатади. Маркетинг назариясига кўра, истеъмолчига таъсир этувчи омиллар бошқариладиган ва бошқарилмайдиган гуруҳларга бўлинади. Маркетологлар бошқариладиган омиллардан фойдаланилган ҳолда, харидорларнинг онгига таъсир этиш натижасида истеъмолчиларда айнан шу товарни харид қилишга мойилликни шакллантиради. Демак, инсон эҳтиёжи ташқи омилларга берулавчан, айниқса маркетинг мажмуасининг элеменларига таъсирчандир. Масалан, тикувчилик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи кичик ёки хусусий корхоналарда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг нархини ва таннархини ўзгартирмаган ҳолда моделни, қўшимча безаклар бериш натижасида харидорларни тезроқ жалб этиш мумкин. Бунда нарх омили ўзгармаса ҳам, талаб ҳажми ошади. Ушбу ҳолатда маркетинг комплексининг маҳсулот элементига ўзгартириш киритилишининг ўзиёқ харидорларга ушбу товарга бўлган қизиқишни кучайтиради ва ўз-ўзидан бозорда сотиладиган маҳсулотнинг ҳажми ошади. Шунинг учун ишлаб чиқариш дастурида маҳсулот турларини режалаштиришда маркетинг тадқиқотларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Бозор иқтисодиёти шароитида маркетингнинг функцияси – талаб ва таклиф мувозанатини сезиларли мувофиқлаштириш борасида эркин ва рақобатли алмашиш фаолиятини ташкил этиш имкониятларини яратишдан иборат. Тадбиркорлик кичик бизнес корхоналарини ишлаб чиқарилаётган қайси товарни истеъмолчи сотиб олмоқчи эканлигини маркетинг ёрдамида аниқланиши сотувчи сифатида истеъмолчига қайси товар унинг истеъмол талабини қондира олади, қайси хизмат турини кўрсатиш истеъмолчи истаги эканлигини билиш лозим. Бозорда маҳсулот сотилиш ҳажмининг ошиши маркетинг самарасини ифодалайди. Маркетинг самараси – бу ишлаб чиқарувчи ёки сотувчининг маркетинг тадбирлари натижаси бўлиб, у савдо ҳажмининг ўсиши, фойда, бозор улуши каби кўрсаткичларда ўлчанади. Демак, маркетинг тадбирлари натижасида умумий фойдадаги ва савдо ҳажмидаги самарани ўзгартириш мумкин. Маркетинг самарасининг унга эришиш учун сарфланган маблағларга нисбати – маркетинг тадбирларининг иқтисодий самарадорлигини келтириб чиқаради. Истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини аниқлаш ва ўрганиш, товар ва хизматларни, эҳтиёжларни қоплаш учун мослаштириш, уларнинг рекламаси билан шуғулланиш, шунингдек уларни керакли миқдорда

етказиб бериш маркетингнинг асосий вазифасидир. Маркетинг фаолиятининг тамойиллари ва асосларини билиш тадбиркорлик ишларида хавф-хатарни камайтиришга, мавжуд шароиту, вазиятларнинг энг мақбулини танлаб олишга, ишлаб чиқаришнинг ва сотувнинг маҳсулот сифати юқори бўлгани ҳолда фойда бериб туришини таъминлашга, турли гуруҳлардаги харидорлар учун тўғри келадиган баҳоларни билишга ёрдам беради.

Кичик бизнес корхоналарида маркетингни қўллаш, айниқса маркетинг стратегияларини тадбиқ этиш муҳим аҳамият касб этади. Маркетинг стратегияси корхоналар имкониятларини бозордаги ҳолатга мувофиқлаштириш, қўйилган мақсадларга эришишнинг комплекс воситаларини белгилашдан иборатдир.

Маркетинг стратегиясининг вазифаси корхонанинг барча фаолият турларини ривожлантириш, кўпайтириш, ва самарадорлигини таъминлаш йўналишларини мунтазам аниқлаш ва қайта мўлжаллашга қаратилган. Қуйида корхоналар танлаши мумкин бўлган асосий маркетинг стратегияларини кўриб чиқамиз:

Бозорларни ривожлантириш стратегияси. Унинг мақсади – мавжуд товарларнинг янги бозорларга киритиш йўли орқали сотиш ҳажмини ўстиришдир.

Товарлар орқали ривожланиш стратегиялари. У корхона фаолият юритувчи бозорларга мўлжалланган янги ёки сифати яхшиланган товарларни ишлаб чиқиш ҳисобига сотишни ўстиришга йўналтирилган. Бу стратегия товарнинг вазифалари ва таснифлари сонини ошириш ҳамда бунинг ҳисобига бозорни кенгайтириш, турли сифат даражадаги товарларнинг янги моделлари ёки вариантларини ишлаб чиқиш, товар хусусиятини янгилаш орқали намоён бўлади.

Юқорида қайд этилганидек, фирма стратегиялари асосан сотиш ҳажми улушини ёки фойдани ўстириш мақсадларига қаратилади. Ўсиш мақсадлари уч даражада ифодаланиши мумкин:

1) Асосий бозорга нисбатан ўсиш.

2) Ишлаб чиқариш занжирига кўра ўсиш – асосий фаолиятга нисбатан “олдинга” ёки “орқага” интегратsiя ва интегратsion ўсиш.

3) Одатдаги фаолият зонасидан ташқаридаги имкониятларига асосланган диверсификатsiя воситасида ўсиш.

Бозорга кириб бориш стратегияси. Бунда мавжуд бозорларда сотиш ҳажмини оширишга ҳаракат қилинади. Унга турли усуллар орқали эришиш мумкин, яъни: бирламчи талабни ривожлантириш; ўз бозор улушини ошириш; бошқа бозорларни қўлга киритиш; ўзини бозордаги ҳолатини ҳимоя йўли орқали тиклаш; сифатини яхшилаш, яъни товарнинг ўз функцияларини хусусиятлар йиғиндиси ёки тўплами сифатида бажарилишини яхшилаш; ташқи воситалардан фойдаланган ҳолда мавжуд товарлар турларини кенгайтириш.

Интегратsion стратегия фирма ишлаб чиқариш ва сотиш занжирида ўзи учун стратегик муҳим бўлган бўғинларни назорат қилиб бориб, ўз самарадорлигини ошира олганида оқланиши мумкин. Бунда “олдинга” ва “орқага” бўлган интегратsияларни ҳамда горизонтал интегратsияни фарқлаш керак бўлади:

“Орқага” бўлган интегратsия стратегиялари – таъминотнинг стратегик жиҳатдан муҳим манбаини ҳимоя қилиш ва янги технологияни ўрганиш учун фойдаланилади.

“Олдинга” бўлган интегратsия стратегиялари сотиш каналлари устидан назоратни таъминлаш мақсадида фойдаланилади.

“Горизонтал” интегратsия стратегиясининг мақсади – муайян рақобатчиларни топиш ёки уларни назорат қилиш йўли билан фирма ҳолатини кучайтиришдир.

Рақобатчилик стратегиялари – рақобатчиларни таҳлил қилиш фирманинг энг хавфли рақобатчиларига нисбатан қандай рақобат афзалликларини қўллаш имконини аниқлаш.

“Диверсификатsия орқали ўсиш стратегияси” – фирма ўзи фаолият юритган саноат занжири доирасидан ташқарига чиққан ҳолда технологик ёки тижорат режасида бўлган фаолиятларни тўлдирувчи янги фаолият турларини излайди.

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, инноватsion иқтисодиётни шакллантиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарида маркетинг стратегияларини қўллаш, уларнинг даромадлилигини ошириш орқали рақобатбардошлигини таъминлашга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони, ПФ-сон 28 январь 2022йил.

2 Эргашходжаева Ш.Ж., Қосимова М. Юсупов М.А. Маркетинг асослари.Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2019 й.-305 бет.

3 Эргашходжаева Ш.Ж., Самадов А.Н., Тармоқлар ва соҳалар маркетинги. Дарслик. –Тошкент.Иқтисодиёт, 2019 й. 136 бет.

4 Kotler F. Osnovi marketinga. 5-ye izd./F.Kotler, A.Gari. – M.: Vilyams, 2016.-752 s.

1. Sharipov I.B. Marketing. O‘quv qo‘llanma – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 148 b.

ИНФОРМАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ МАРКЕТПЛЕЙСОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ахтамова Мохигул Эркиновна и/о доцент СамИЭС кафедры “Менеджмента” Зиёдиллоева Фарахноз Нарзиллоевна студентка 2 курса, СамИЭС Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассматривается значение цифровой экономии и её развитие в стране, а также теоретические аспекты и принципы необходимости и значения Маркетплейсов в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, пандемия, маркетплейс, Uzum market.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va uning mamlakatda rivojlanishi, shuningdek, O‘zbekistonda Marketplacesning zarurligi va ahamiyatining nazariy jihatlari va tamoyillari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pandemiya, bozor, Uzum bozori.

Abstract: This article discusses the importance of digital economy and its development in the country, as well as the theoretical aspects and principles of the need and importance of Marketplaces in Uzbekistan.

Keywords: digital economy, information and communication technologies, pandemic, marketplace, Uzum market.

Сегодня в современной экономике успехи деятельности любого предприятия, в первую очередь, характеризуются показателями оперативного и эффективного принятия управленческих решений, которые связаны с оперативным доступом к необходимой информации в системе ИКТ. Вследствие этого, развитие и внедрение новых ИКТ очень важен для предприятий республики, что позволяет на современном этапе компаниям информационного сектора обрести особый статус лидеров, обеспечивающих экономику информационным ресурсом. В республике реализуются комплексные меры по активному развитию цифровой экономики, а также широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий во все отрасли и сферы, прежде всего, в государственное управление, образование, здравоохранение и сельское хозяйство.

На сегодняшний день глава государства, правительство республики уделяет особое внимание развитию ИКТ и его массового внедрения во все сферы жизнедеятельности общества. Этому способствует принятый Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации от 05.10.2020 г. №УП-6079. Распространение цифровых технологий предопределяет приоритетные направления развития истории, общества, экономики большинства государств. Одновременно с этим наблюдается глобальная

революция в информационно-коммуникационном пространстве. Стремительная цифровизация затронула все сферы жизни человека. А значит, она повлияла и на государство в политическом, культурном, экономическом, финансовом, социальном полях.

Цифровая экономика представляет собой деятельность, основанную на новых институтах и соответствующих им экономических отношениях, связанную с развитием цифровых технологий, и состоящую из сервисов, предоставляющих онлайн-услуги и электронные платежи, обеспечивающих электронную коммерцию. Развитие интернета в целом, увеличение доступности мобильных технологий, а также рост интенсивности использования мобильного интернета способствовали расширению возможностей взаимодействия в режиме «онлайн» между производителями и потребителями различных товаров и услуг за счет скорости, простоты и удобства обслуживания. Развитие цифровых технологий позволяет осуществлять взаимодействие в дистанционном формате, что приводит к созданию цифровых платформ – маркетплейсов.

Основная классификация маркетплейсов строится на разделении их по типам взаимоотношений с покупателями.

Тип B2B (от англ. business-to-business) подходит оптовым поставщикам: бизнес покупает у бизнеса. Такая разновидность сотрудничества реализуется на маркетплейсах Alibaba, Indiamart, Capterra.

На маркетплейсах типа C2C (от англ. customer-to-customer) сделки проводятся между физическими лицами, когда продавец и покупатель оговаривают условия сделки, которая в результате принесет выгоду обоим: например, Авито, Юла, Bla Bla Car, Couchsurfing.

Самой распространенной моделью применения маркетплейсов является B2C (от англ. business-to-customer),

когда юридическое лицо (продавец) предоставляет услуги или продает товар физическому лицу. Примерами такого типа маркетплейсов являются Wildberries, Ozon, Joom, Lamoda, Беру и др.

Развитию маркетплейсов способствует использование открытых интерфейсов (Open API), которые являются ключевым элементом для эффективной интеграции финансового рынка в условиях структурных сдвигов в экономике и позволяют обеспечивать передачу и получение информации между различными информационными системами, используя протоколы обмена данными.

Маркетплейсы могут обеспечить легкий доступ к покупкам благодаря многоканальному подходу. Социальные сети — самый востребованный канал среди иностранных пользователей. Покупатели все чаще обращаются к ним, чтобы узнавать о брендах, связываться с ними и заказывать товары непосредственно в социальных сетях, например, во время прямых эфиров.

Также и в нашей стране начал свою деятельность маркетплейс под названием "Uzum market". Сегодня Uzum объединяет маркетплейс, сервис рассрочки и два банка, один из которых – крупнейший в стране частный финансовый институт, а второй – лидирующий цифровой банк.

В основе стратегии Uzum – создание платформы, которая обеспечит уникальный пользовательский опыт и создаст стимул для роста предпринимательской активности.

Синергия сервисов в рамках экосистемы создает преимущества для жителей даже самых отдаленных регионов страны – огромный ассортимент товаров становится доступным, при этом у покупателя есть возможность выбирать, как оплатить товар. В то же время предприниматели получают удобные инструменты для решения текущих задач: дистанционное банковское обслуживание, расчетно-кассовое обслуживание и даже кредитование на развитие своего дела на Uzum Market. Экосистема помогает жителям даже отдаленных населенных пунктов страны получить доступ к огромному ассортименту товаров, удобным финансовым сервисам и банковским услугам, в то же время индивидуальные предприниматели с помощью Uzum могут начать продавать свои товары по всей стране, привлечь новых клиентов с помощью повышенного кешбэка и получить удобные инструменты для ведения бизнеса.

«Основными драйверами роста стали и расширение географии работы маркетплейса, и увеличение ассортимента. В этом году уже открыли более 20 новых пунктов выдачи заказов, всего же их сейчас более 80 по всей стране. Сейчас на платформе представлено порядка 250 тыс. товаров, а к декабрю ассортимент расширится до 800 тыс. единиц. К концу года товары Uzum Market с доставкой за один день смогут получить жители уже 126 населенных пунктов», – пояснили «Курсиву» представители маркетплейса.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года № ПФ-60;

2. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации от 05.10.2020 г. №УП-6079.

3.Отакузиева З.М., Бобохужаев Ш.И. Роль и развитие информационной экономики // «Radiotexnika, telekommunikasiya va axborot texnologiyalar: muammolari va kelajak rivoji». Сборник статей международной научно-практической конференции. 1-том. Ташкент, 21-22 мая 2015 года.

4. Официальная страница Узум маркета

5. Официальный сайт указов, приказов, законов lex.uz

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Беҳзод Рахматуллаевич Рахматуллаев – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий тенденциялари транспорт ва туризм хизматлари мисолида очиб берилган.

Калит сўзлар: хизмат кўрсатиш соҳаси, тенденциялар, оила фаровонлиги, иқтисодий ривожланиш, иқтисодий ўсиш, драйвер, оилавий тадбиркорлик.

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ

Аннотация. В данной статье раскрываются основные тенденции развития сферы услуг на примере транспортных и туристических услуг.

Ключевые слова: сектор услуг, тенденции, благосостояние семьи, экономическое развитие, экономический рост, движущая сила, семейное предпринимательство.

THE MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR

Annotation. This article reveals the main trends in the development of the service sector on the example of transport and tourism services.

Keywords: service sector, trends, family welfare, economic development, economic growth, driving force, family entrepreneurship..

Жаҳонда хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиб бориши мамлакатлар иқтисодий ўсишида хизмат кўрсатиш ҳажми улушининг ошаётганлиги, оила фаровонлигини таъминлашда янги хизмат турларига бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги, шуиингдек мамлакатлар миллий иқтисодиётлари таркибининг ўзгариши ҳамда иқтисодий фаолиятнинг барча йўналишларини трансформatsiялашишига олиб келмоқда. «Иқтисодий жиҳатдан тараққий этган давлатларда ялпи ички маҳсулот таркибида хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши 65-80 %ни, илм-фан ва инноватsion фаолиятни инвестициялашга сарфланаётган маблағлар ҳиссаси эса 3,0 %ни ташкил этмоқда. Шунингдек, ривожланган давлатларнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги бандлар улуши 70,0 %дан зиёдни ва тўғридан-тўғри инвестициялар ҳажмининг 40,0 %и хизмат кўрсатиш соҳасига тўғри келмоқда»[88]. Шу жиҳатдан ҳам бугунги кунда хизмат кўрсатиш ва сервис корхоналарини ривожлантиришнинг асосий тенденцияларини ўрганиш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Бугунги кунда республикада хизмат кўрсатиш корхоналарини барқарор ривожланиши, уларнинг хўжалик фаолияти самарадорлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланган хизмат кўрсатиш интенсивлигини

[88] http://stats.oecd.org/

таъминлашга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. « ... кичик бизнес – бу маҳаллага, туманга янги муҳит олиб кирадиган, одамларимизга шиʻоат берадиган катта кучдир.

Иқтисодиёти жадал ривожланаётган кўплаб давлатларда иш ўринларининг 70-80 фоизи шу соҳа вакиллари томонидан яратилмоқда. Барча нуфузли компаниялар тарихи ҳам айнан кичик ва ўрта бизнесдан бошланган.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда микро-бизнес ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш бўйича катта амалий ишлар қилинди. Дастурлар орқали микро-бизнесни молиявий қўллаб-қувватлашга ҳар йили 1 миллиард доллардан зиёд маблағ йўналтиряпмиз. Натижада бугун ҳар бир маҳаллада камида 40-50 нафар янги тадбиркор пайдо бўлиб, минглаб доимий иш ўринлари яратилмоқда. Лекин кичик бизнесни манзилли қўллаб-қувватлаш, уларга зарур шарт-шароитлар яратиш борасида бундʻай муҳит ҳали тўлиқ шаклланиб улгурмади, десак, адолатдан бўлади»[89]. Бу вазифаларни ҳал этишда хизмат кўрсатиш корхоналарининг ресурс салоҳиятини ошириш омилларини аниқлаш, хизмат кўрсатиш жараёнларини бошқаришнинг самарали усулларини жорий этиш, хизмат кўрсатиш сифати ва рақобатбардошлигига эришиш, корхоналар фаолиятини ташкил этишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш каби йўналишларда илмий-тадқиқотларни чуқурлаштириш долзарб ҳисобланади.

Хизматларнинг тез суръатлар билан ўсиши ва уларнинг хилма-хиллиги иқтисодий назарияда маълум тизимлаштиришни талаб қилади, бу турли мезонларга кўра таснифлаш асосидаги типология орқали ифодаланади. Хизматларни маълум бир хусусият асосида бирлаштириш уларнинг ўзига хос хусусиятлари ва иқтисодий моҳиятини, ривожланиш ва ўзгариш қонуниятларини ажратиб кўрсатиш имконини беради, бундан ташқари, хизматларнинг статистик ҳисоби муаммосига, шунингдек, айрим тармоқларни аниқлашга аниқ ёндашиш имконини беради.

Ф.Котлер хизматни бир томоннинг бошқасига тақдим этиши мумкин бўлган ва асосан номоддий кўринишда бўлган ҳар қандай тадбирлар ёки фойда сифатида тушунтиради[90].

С.Хеллер хизматни етказиб берувчининг барча зарур ресурсларни синхронлаштириш, истеъмолчилар эҳтиёжларини қондириш учун моддий, ҳуқуқий ва бошқа шароитларни яратишни ўз ичига олган фаолиятга тайёрлиги деб таърифлайди[91].

М.М.Мухамедовнинг фикрича, «Хизмат» тушунчасининг мантиқий мазмун-моҳияти шундаки, у инсон фаолияти маҳсули сифатида

---

[89] Тадбиркорлик ривожини янада юксак босқичга кўтариш – устувор вазифамиздир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 18 августдаги мамлакатимиз тадбиркорлари билан очиқ мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи**.** https://president.uz/uz/lists/view/6561

[90] Котлер Ф. Основы маркетинга. М.: Прогресс, 1991. С. 638.

[91] Янсен, Ф. Эпоха инноваций: пер. с англ. М.: 2002. – С. 9.

меҳнатнинг бошқа турларидан ўзида алоҳида бир муҳим хусусиятни мужассамлаштирганлиги билан ажралиб туради. Хизматлар – кишилар ўртасидаги бевосита, тўғридан-тўғри, яъни моддий шаклдаги воситаларсиз ўзаро фаолият – неъмат, ишлаб чиқариш, истеъмол муносабатларини ифодалайди.[92]

И.И.Эргашевнинг фикрича, иқтисодий категория сифатида хизматларни турли авлод ва турли мактаб иқтисодчилари томонидан турлича талқин этилишига қарамасдан, хизматнинг икки томонлама тавсифини ифодаловчи икки асосий белгисини кўрсатиш мумкин. Бир томондан, «хизмат – бу самарали фаолиятнинг ўзига хос тури эканлиги, иккинчи томондан, хизматни фаолиятнинг аниқ натижаси сифатида моддий неъматлар кўринишида ифодаланмайди ҳамда муайян иқтисодий ва ижтимоий фойдалилик даражасини ифодалайди»[93].

Хизмат кўрсатиш соҳаси тенденцияларини ўрганишда транспорт хизматлари мисолида кўриб чиқамиз. Мамлакатимизда транспорт хизматларини ўсиш истиқболлари аввало, саноатни транспорт воситалари, шу жумладан енгил машиналар, оғир юк машиналари, темир йўл ҳаракатланувчи таркиби, контейнер терминаллари билан техник жиҳозлаш билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, транспорт тарифлари, уларнинг кўпайиши ички транспорт транспортининг логистика хизматлари билан уйғунлашувига олиб келиши мумкин. Шунингдек, мамлакатимизда вилоятлараро ва мамлакатлараро йўналишларда кўплаб транспорт турларидан фойдаланиш асосида транзит йўлакларини яратиш ҳисобланади. Шуни таъкидлаш керакки, ушбу истиқболли йўналишларни амалга ошириш, бошқа йирик мамлакатларда бўлгани каби, хўжалик юритувчи субъектлар ва давлат томонидан катта инвестициялар ва молиявий харажатлар келиб чиққан тақдирдагина мумкин бўлади. Бундан ташқари, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг транспорт хизматлари соҳасида муаммоларнинг келтириб чиқарган асосий сабаблардан бири бу транспорт воситаларининг ҳаракатланишидаги йўл инфратузилмаси билан боғлиқлигидир. Бу эса транспорт хизматларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишда фаолиятни рақамлаштиришни ҳам тақозо қилади. Бундан ташқари, транспорт соҳасида ушбу фаолиятни давлат томонидан тартибга солиш механизмини ҳам такомиллаштиришга эҳтиёж сезади. Масалан, бир қатор ҳудудлараро йўл инфратузилмасини яхшилаш, транспорт ва экспедиторлик фаолияти, аралаш транспорт, транзит транспорт ва бошқа жараёнлар билан боғлиқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

---

[92] Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари (монография). – Самарқанд: Zarafshon, 2017. – 300 б., 46-б.

[93] Эргашев И.И. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион-инвестицион жараёнларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш. // Дисс. PhD. – Самарқанд: СамИСИ, 2018. 28-б.

Хизмат кўрсатиш соҳасида туризм хизматларининг ўрни ҳам катта ҳисобланади. Чунки, турим хизматларининг кўрсатилиши нафақат, туризм ҳажмининг ошишига, балки хизматлар соҳасининг бошқа турларидан ҳам фойдаланилади. Масалан кириш ва ички туризм ҳақида тўхталиб ўтадиган бўлсак, сўнгги йилларда чет эллик ва Ўзбекистонлик сайёҳлар сони кескин ошди, аммо мамлакатимизда туризм бизнесини ривожлантириш истиқболлари асосан мамлакатимиз фуқароларининг фаровонлигининг ўсиши (чет элга саёҳат) ва маҳаллий туризм саноатининг моддий базасининг ривожланиши билан белгиланади, бу ҳам моддий инфратузилмага катта сармоя киритишни талаб қилади. Ўзбекистон Республикасидан туристик хизматларни экспорт қилиш (чет эллик сайёҳларни жалб қилиш) хизматлар экспортини ривожлантиришнинг истиқболли йўналиши бўлиб, келажакда сезиларли барқарор даромад олиш манбаларини яратишга хизмат қилади. Шунга қарамай, ушбу йўналишнинг ривожланиши мамлакатдаги умумий иқтисодий вазиятнинг барқарорлиги транспорт, алоқа ва меҳмонхона хўжаликлари иқтисодиётининг ривожланиши билан боғлиқдир. Хорижий давлатларнинг тажрибаси шуни кўрсатадики, сайёҳлик хизматлари экспорти, айниқса саноат инфратузилмаси мавжуд бўлмаган жойларда кўплаб иш ўринларини таъминлайди. Шу нуқтаи назардан, хизматларни тақдим қилиш ва уларни кўрсатиш жараёнида сифатни таъминлаш ҳамда тенденцияларни ўрганиб таҳлиллар асосида хулосаларга келиш муҳимдир. Шунингдек иқтисодиётнинг трансформatsiялашуви шароитида ушбу хизматлар рақамли технологиялар воситасида доимий такомиллашади ва ривожланиб боради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда ПФ-60-сонли “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги ПҚ-104-сонли “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.
3. Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.
4. Қувондиқов Ш.О. Хизмат соҳасида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди. Дис. автореферати. Самарқанд: СамИСИ, 2008.- 23 б.
5. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари (монография). – Самарқанд: Zarafshon, 2017. – 300 б., 46-б.
6. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж. Пардаев О.М. Хизматлар сохаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: “Иқтисод-молия ”, 2014. - 384 б.

7. Тўхлиев Н., Ўзбекистон иқтисодиёти. - Т.: Ўқитувчи, 1994 ва 1998.

8. Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // “Сервис” журнали. Самарканд: 2009, 1-сон. – 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.

ИҚТИСОДИЁТНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЎРНИ

Нарзикулова Шахноза Хошимжоновна
Самарқанд давлат университети
“Тармоқлар иқтисодиёти” кафедрасини
илмий тадқиқотчиси

Аннотация. ушбу мақолада савдонинг хўжалик механизми, унинг жамиятдаги тутган ўрни, хусусиятлари, бажарадиган вазифаларига алоҳида урғу берилган. Шу билан биргаликда саноат корхоналари тараққиётга эришишнинг қўлай ва самарали йўли эканлиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: савдо, бозор иқтисодиёти, рақобат, товар, рейтинг, олди-сотди, меҳнат, ер, капитал, фан-техника, ахборот.

Аннотация. В данной статье подчеркивается экономический механизм торговли, ее роль в обществе, ее характеристики и функции. При этом подчёркивалось, что промышленные предприятия являются удобным и эффективным способом достижения развития.

Ключевые слова: торговля, рыночная экономика, конкуренция, товар, рейтинг, торговля, труд, земля, капитал, наука и техника, информация.

Abstract. This article emphasizes the economic mechanism of trade, its role in society, its characteristics and functions. It was emphasized that industrial enterprises are a convenient and effective way to achieve development.

Key words: trade, market economy, competition, product, rating, trade, labor, land, capital, science and technology, information.

2019 - 2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясининг амалга оширилиши натижасида иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада, шу жумладан қишлоқ хўжалиги, энергетика, қурилиш, таълим, соғлиқни сақлашда инновацион ва технологик ривожланишни таъминлаш ва рағбатлантириш борасида катта ютуқларга эришилди. Булар жумласига республикамиз 81 та индикатор бўйича баҳоланадиган Глобал инновацион индекси рейтингида 2015 йилга нисбатан 36 та поғонага кўтарил. Инновация ва илм-фан соҳаларига Давлат бюджетидан ажратиладиган йиллик маблағлар ҳажми 2018 йилга нисбатан 3 бараварга оширилди ва 1,5 триллион сўмга етказилди.

ёш олимлар 2018 йилда 6,5 минг нафар бўлган бўлса, 2022 йилда уларнинг сони 10,8 минг нафарни ташкил этди, яъни бир ярим бараварга ўсди ҳамда охирги 4 йилда инновацион фаолиятни молиялаштириш бўйича махсус институтлар (инновацион жамғармалар, венчур ташкилотлар ва бошқалар) сони 28 тага етказилди.

Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари билан бир қаторда хизматлар соҳаси чуқур кириб бормоқда.

Шу жиҳатдан олиб қарайдиган бўлсак, дунё иқтисодиётида хизматлар соҳаси ҳозирги кунда жуда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда. Хизматлар соҳасида саноат корхоналарини барқарор ривожланиши ҳам дунё иқтисодиётига салмоқли таъсир кўрсатади. Жумладан, жаҳонда жами иш ўринларининг 40%дан кўпроғи айнан савдо хизматларига тўғри келиши буни тасдиқлаб турибди[94]. 2019 йилда дунё бўйлаб экспорт қилинган товар ва хизматлар ҳажми 19 триллион долларни ташкил этди[95]. Аммо 2020 йилда бошланган COVID - 19 пандемияси савдо хизматларининг дунё бўйлаб илк марта пасайишига олиб келди.

Бутун дунёда савдо алоқаларининг ривожланиши билан бирга мамлакатларнинг урф - одатлари ҳам кенгайиб, ҳам такомиллашиб борган, турли корпорациялар ўртасида бу соҳада мавжуд бўлган фарқлар аста-секин барҳам топган. XIX аср бошларида савдо алоқалари учун янги давр бошланди. Францияда буюк француз инқилобидан кейин сиёсий тузум ўзгариб, янги савдо қонунчилиги вужудга келди. Шу туфайли 1807 йилда француз Савдо кодекси қабул қилинди (Code de Commerce). Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистон ҳам жаҳон цивилизацияси марказларидан бири сифатида халқаро савдо-сотиқ муносабатлари ривожининг тарихида салмоқли мавқени эгаллаган. Марказий Осиё ҳудудларида савдо-иқтисодий алоқалар тарихи ўзининг юксалиш ва гуллаб-яшнаш чўққилари ҳамда инқирозга юз тутиши билан тавсифланувчи, қадимий даврлар нафасини ўзида акс эттирувчи муайян босқичларни босиб ўтган.

Эътиборли жиҳати шундаки, савдо бозор иқтисодиётининг таркибий ажралмас қисми бўлмиш «Бозор»нинг бир соҳаси сифатида истеъмол товарларини ишлаб чиқаришдан истеъмолчиларга олди-сотди жараёни орқали етказишдек мукаммал функцияни бажаради. Савдо жараёнида бозорнинг барча элементлари иштирок этади, яъни таклиф, баҳо ва талаб. Савдода рақобат орқали бу элементлар мувофиқлаштирилади.

---

[94] WTO (2019), World Trade Report 2019: The Future of Services Trade, Geneva: WTO. Trade in services is defined in the General Agreement on Trade in Services (GATS) as comprising four modes of supply: 1 – cross-border supply; 2 – consumption abroad; 3 – commercial presence; and 4 – movement of natural persons.

[95] • Worldwide export trade value 1950-2020 | Statista

Савдо жараёнида рақобат орқали ушбу элементлар мувофиқлаштирилади. Савдо жамият иқтисодиётининг кўп тармоқлари ва ҳар хил истеъмолчилар билан иқтисодий алоқага чиқади, ўзининг бошқарув ташкилий тузилмаларини тузади, савдонинг турлари (улгуржи, чакана каби) шахобчалари ҳар хил воситачилар вужудга келади. Бу жараёнда аҳолига товар сотиш билан бир қаторда товарларни сотиш, уйларига етказиш, истеъмолни ташкил қилиш билан боғлиқ бўлган хизмат амалга оширилади. Савдога хос тадбиркорлик ривожланади, алоҳида воситачилар гуруҳи вужудга келади. Молиявий субъектлар билан алоқалар ўрнатилади, иқтисодий-молиявий воситалар ишлатилади.

Халқаро тажрибаларни ўрганиб, рақобатни олиб кириш мумкин бўлган монополия соҳаларига хусусий сектор учун йўл очиш ва шу орқали рақобат муҳитини шакллантирилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳозирги вақтда жаҳоннинг етакчи давлатлари тараққиёти учун саноат корхоналарини барқарор ривожланишининг инги босқич хос бўлиб, бу босқичда иқтисодий ўсиш омилларининг роли ва ўрни ўзгармоқда. Анъанавий ҳисоблаб келинган уч: меҳнат, ер, капитал омилларига фан-техника таррақиёти омили ҳам қўшилди, ахборот ва билимлар эса энг муҳим ресурсларга айланди. Иқтисодиёт бевосита ана шу асосда шаклланиб, ушбу иқтисодиётда инсон ва унинг салоҳияти ҳал қилувчи вазифани бажармоқда.

Буюк мутафаккиримиз Абу Али ибн Сино: “инсон бошқаларнинг эҳтиёжларини қондириши сабаблигина инсон бўлади, бошқалар ҳам шундай йўл тутади. Биров экин экади, бошқа одам нон ёпади, учинчиси кийим тикади, тўртинчиси игна ясайди ва ҳамма бир-бирининг эҳтиёжини қондириш учун тўпланади”[96] деб кўрсатган.

Эътиборли жиҳатлари шундаки, савдо ташкилий-таркибий тузилиши нуқтаи назардан жаҳон амалиётида бир-биридан фарқланадиган ҳар хил шаклларга ва турларга бўлинади.

Мулк шаклидан келиб чиқиб савдо хусусий, жамоавий тадбиркорлик, якка тадбиркорлик, давлат ва аралаш шаклларга бўлинади. Товарларни ишлаб чиқаришдан истеъмолчиларга қараб силжиш нуқтаи назаридан улгуржи ва чакана савдога турланади.

Худудий ташкилланиш жиҳатидан ташқи ва ички савдога бўлинади. Шу билан биргаликда савдо яна, улгуржи ва чакана савдо ташкилий-ҳуқуқий жиҳатлари, товар бўйича ихтисослашиши, савдо шахобчаларининг типланиши, товарларни сотишни такомиллаштириш усулларга қараб ҳар хил бўлади. Савдонинг хўжалик механизми, унинг жамиятдаги тутган ўрни, хусусиятлари, бажарадиган функцияларидан келиб чиқади.

[96] Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Т.: Ўқитувчи, 1979. -С.120.

Шиддат билан ривожланиб бораётган ижтимоий-иқтисодий тараққиёт, техника ва технологияларнинг ривожлантириш билан бирга аҳолининг турмуш фаровонлигини юксалтиришга, моддий ва маънавий эҳтиёжларини кенгроқ ва сифатли равишда таъминлашга зарурат келтириб чиқармоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар миллий иқтисодиёт самарадорлигини оширишга қаратилганлиги билан аҳамиятли бўлса, унинг таркибий қисми бўлиб ҳисобланган савдо хизматлари соҳасини ривожлантириш – аҳолига кўрсатилаётган савдо хизматлари сифатини ошириш ҳамда турли хилдаги талабларини қондиришдаги муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 25 январь.

2. Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Т.: Ўқитувчи, 1979. -С.120.

3. Langley C.J. The Evolution of the Logistics Concept // Journal of Business Logistics, 1979.№2, vol 7.

4. Р.Оливер и M.Webber “Supply Chain Managment”: Logistics catches up with strategy// Christohee M/Logistics. The Strategic Jsseus L: Chapman and Hall, 1982. P. 63-75

5. Памбухчиянц О.В. Основы коммерческой деятельности. Учебник / О.В.Памбухчиянц - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков И.К», 2014.-284 с.

6. Дашков Л.П. Организация труда работников торговли [электронный ресурс]: Учебник/ Л.П.Дашков. -5-е изд., перераб. и доп. – М.: Дашков и К, 2010-240 с. Организация, технология и проектирование предприятий (в торговле).

7. WTO (2019), World Trade Report 2019: The Future of Services Trade, Geneva: WTO. Trade in services is defined in the General Agreement on Trade in Services (GATS) as comprising four modes of supply: 1 – cross-border supply; 2 – consumption abroad; 3 – commercial presence; and 4 – movement of natural persons.

8. Worldwide export trade value 1950-2020 | Statista

XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI IMPORT HAJMINI SAMARALI BOSHQARISH

Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktaranti
nafisa.m3434@gmail.com

Annotatsiya. Maskur maqolada Samarqand viloyatida xizmat ko’rsatish so korxonalari faoliyatning import tahlili va amaliyotdagi o’zgarishlar, mulohazalar va takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko’rsatish korxonalari, export, import, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot, aholi bandligi, xizmat ko'rsatish sohasi.

Аннотация. В данной статье описаны импортный анализ деятельности сервисных предприятий Самаркандской области и изменения на практике, замечания и предложения.

Ключевые слова: предприятия сферы услуг, экспорт, импорт, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт, занятость населения, сфера услуг.

Abstract. This article describes the import analysis of the activities of service enterprises in the Samarkand region and changes in practice, comments and suggestions.

Keywords: service sector enterprises, export, import, gross domestic product, gross regional product, employment, service sector.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, yangilanishlar va o’zgarishlar iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy va ijtimoiy o’sishni ta’minlash va yanada aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish korxonalari jahon iqtisodiyotining asosiy sohasi sifatida o‘zining salmoqli hissasiga ega hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida jahonda xizmatlar ko’rsatish korxonalarini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishni konseptual yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yurtimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, xususan davlatimiz Prezidentimizning tashabbuslari bilan O‘zbekistonni 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish “Konsepsiyasi” yangi O‘zbekistonni barpo etishda 2030 yillarda xalqaro bozorlar konyukturasiga moslashuvchan qobilyatini amalga oshirishda muhim o‘rin tutdi. Shu sababdan xizmatlar eksportini oshirish hamda ularning mavjud muammolarini bartaraf etishda. Aynan xizmat ko‘rsatish korxonalari importini samarali boshqarishni talab etadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ayonki YaIM tarkibida aynan xizmat ko‘rsatish korxonalari yetakchi o‘rinni

egallaydi ya’ni mahsulotining 60-70 foizi xizmat ko‘rsatish korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatimizning rivojlanishida hamda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tishida albatta xizmat ko’rsatish va servis korxonalarining import va eksport o’rni va ro’li ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish korxonalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, qishloq joylarda xizmatlar korxonalarini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon takomillashtirishda avvalombor, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ko’plab korxonalar boshqaruv samaradorligini oshirish va ularni boshqarilishini tartibga solish borasida ko’plab yangi va muhim qarorlar va qabul qilishni talab etadi. Prezidentimizning 2022–2026 yillarda mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonida [97]

“Hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini rivojlantirish.

Respublika hududlarida savdo va yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish.

Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish.”

Xizmat ko'rsatish korxonalari - aholi bandligini ta'minlash, yangi-yangi ish o'rinlarini yaratishda ulkan ahamiyatga ega soha hisoblanadi. Joylardagi aholi daromadlarining real o'sishi bu avvalo, xizmatlar rivojidan yaqqol ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan biz asosiy e'tiborni xizmatlar korxonalarini rivojlantirishga va iqtisodiyot tarkibida uning rolini kuchaytirishga qaratamiz. Ushbu korxonalar nafaqat, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinlarini ta'minlashga, balki aholi daromadlarini oshirishga bog’liq hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda xizmat ko’rsatish korxonalarini nafaqat bizning mamlakatimizda balki xorijiy mamlakatlarda ham keng ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakat miqyosida xizmat ko’rsatish korxonalariga ehtiyoj ortib bormoqda hamda biz xizmatlar importiga alohida e’tibor beradigan bo’lsak bu ko’rsatkich kun sayin yuqorilab borayotganiga guvoh bo’lamiz. Bu

[97] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarda mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni

ko’rsatkich oxirgi yillarda keskin farq qilib kelmoqda. Shu jumladan mamlakatimizning qadimiy shaharlaridan biri bo’lgan Samarqand viloyati misolida ko’radigan bo’lsak, xizmatlar importi 2023 yil yanvar, fevral oylari quyidagi jadval asosida tahlil qilishimiz mumkin.

1-Jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko’rsatish korxonalari importi 2023[98]

Xizmatlar	**Jami import hajmi %**
Jami	0.2%
Transport	95.7%
Turizm	4.3%
Telekomunikatsiya	0%
Tadbirkorlik bn bog’liq xizmatlar	0%

Bunda 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **0,5** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** %ini tashkil etgan. va o‘tgan yilga nisbatan **2,5** barobarga ko‘paygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**95,7** %), boshqa safarlar (turizm) xizmatlari (**4,3** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**0,0** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (**0,0** %) ga tegishli bo‘lmoqda.

Bundan ko’rinib turibdiki, viloyatda xizmat ko’rsatish korxonalariga talab ortib bormoqda. Ayniqsa transport sohasidagi xizmatlarga talab yuqori. Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport xizmatlariga bo’lgan talab birinchi navbatda xizmat sifati bilan belgilanadi. Ushbu xizmat turining import hajmining yuqoriligi bir tomondan viloyatda transport xizmatini salohiyati birmuncha yetarli emasligidan dalolat bersa boshqa tomondan esa viloyatning so’ngi yillarda bozor iqtisodiyoti sharoitida keskin ham iqtisodiy ham ijtimoiy rivojlanishi ta’sir etib kelmoqda. Kelgusiga xizmatlar importi hajmining kamaytirish va hamda eksport hajmini oshirish uchun sohalarda birmuncha o’zgartirishlar olib borishni talab etadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda ushbu muammolarni bartaraf etilishi iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o‘z vaqtida boshlangan, chuqur o‘ylangan va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ishlarni yo‘lga qo‘yish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va natijada mamlakat aholisining turmush darajasini ko‘tarilishi va daromadlarini oshishiga olib keladi.

[98] https://www.samstat.uz

Har bir mamlakat rivojlanishning muqobil usullarini izlashga harakat qiladi va shu orqali mamlakatda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan texnika yutuqlaridan unumli foydalanadi. Bizning mamlakatimiz ham, dastlabki kunlardan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar va usullardan maqsadli foydalandi. Biroq, aholi talabining turlicha o‘zgarishi oqibatida, iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunga kelib, mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmat ko’rsatish korxonalarini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va keng ko‘lamda foydalanish kerak ekanligini ko‘rsatmoqda. Sababi xizmat ko‘rsatish korxonalari iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda lokomativ vazifasini bajaradi. Shu asosdan kelib chiqib xizmat ko‘rsatishning mazmun mohiyatini to‘laroq anglash zarurati yanada kuchayadi hamda bugungi kunda xizmatlar eksportni rivojlantirish bu rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismi bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarda mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni
2. Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi bandligi. Monografiya / G‘.S.Mustafoev – Samarqand.: SamISI, 2022. – 190 bet.
3. T-75 Transport servisi. Darslik –T.: “ Fan va texnologiya “ 2015, 264 bet
4. Glazev S.Yu. Teoriya dolgosrochnogo texniko-ekonomicheskogo razvitiya. M.: VlaDar, 2013
5. Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Cycle. Massachusetts Institute of Technology. 2014. – P. 555.
6. https://stat.uz
7. https://www.samstat.uz
8. https:// lex.uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI

Orzu Rajabov Toshkent axborot texnologiyalar Samarqand filiali o’qituvchisi

Annotasiya: mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika xizmatlarini rivojlantirishning yo’nalishi sifatida raqamlashtirish masalalari o’rganilgan. Mamlakatda logistika xizmatlarini rivojlanish tendentsiyasi, logistika xizmatlariga bo’lgan talabning oshishi asoslanib, logistika xizmatlarini raqamlashtirishdan kutilayotgan asosiy natijalar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, logistika, ta’miton zanjiri, sun'iy intellekt, narsalar interneti, blokcheyn, bulutli texnologiyalar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bugungi bosqichida nafaqat sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki ularni sotish bozorlarini kengaytirish, eksportni rivojlantirishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatda ishlab chiqarish hajmining oshishi, moddiy resurslar hajmining oshishi logistika xizmatlarini rivojlantirishni dolzarblashtirmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi ““O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risidagi PF-158 sonli farmonida ham O’zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integrasiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish maqsadi belgilangan.

Ushbu maqsadni amalga oshirilishi bevosita raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida logistika xizmatlarini rivojlantirish bilan bog’liqdir. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish zamonaviy global taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ko‘plab davlatlar, jumladan, O’zbekiston ham bu sohaga faol investisiya kiritmoqda.

Biroq “raqamlashtirish”, “raqamli transformatsiya” va “raqamli iqtisodiyot” kabi tushunchalar ancha yangi va murakkab bo‘lib, ularning ta’riflari bo’yicha turli qarashlar, yondashuvlar shakllanib bormoqda.

Dunyoning yetakchi sotsiolog va iqtisodchilaridan biri D. Kastels raqamlashtirishni “... iqtisodiyot va jamiyatning turli jabhalarini o‘zgartirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni” deb ta’riflaydi [3].

R. Florida iqtisodchi va sotsiolog, raqamlashtirishni yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarini yaratish uchun texnologiya va raqamli vositalardan foydalanish qobiliyati bilan bog'laydi [2].

Jahon iqtisodiy forumi asoschisi K. Shvab raqamlashtirishni “... ishlab chiqarish, boshqaruv va aloqaning yangi shakllarini yaratish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish” deb ta’riflaydi [4].

Ushbu qarashlardan kelib chiqib, biz iqtisodiyotning muhim sohasi bo’lgan logistika xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo’nalishi sifatida raqamlashtirishni belgilab oldik. Logistika xizmatlarini raqamlashtirish davlatning bozori va iqtisodiyotining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish, transport va logistika, savdo va moliya kabi turli tarmoqlari o‘rtasidagi integratsiyaning yuqori darajasi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bu yanada samarali ta'minot zanjiri, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada aniq rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Yana bir muhim xususiyat – sun'iy intellekt, narsalar interneti, blokcheyn va bulutli texnologiyalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda “aqlli” logistika ta'minot zanjirlari kontseptsiyasi faol rivojlanmoqda. Bu esa tovar harakati tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, tovar yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini beruvchi raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda.

Logistika xizmatlarini raqamlashtirish transport va savdo tashkilotlari bilan integrasiyalangan platformalarni yaratish bilan bog’liq. Logistika xizmatlarini raqamlashtirishning bunday yondashuvi yuk va transport haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun raqamli platformalardan foydalanishga asoslangan. Asosiy g'oya yuk va transport takliflarini yagona platformada birlashtirish va ularni muvofiqlashtirishni ta'minlashdan iborat. Bunday platformalar logistika xizmatlarini optimallashtirishga, yuk tashish xarajatlarini kamaytirishga, yetkazib berishning shaffofligi va ishonchliligini oshirishga hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishga yordam beradi.

Biroq, transport, savdo tashkilotlari va logistika kompaniyalari o’rtasida tashkil etiladigan platformalardan samarali foydalanish uchun bir qator texnologik, tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilish kerak. Masalan, ma'lumotlarning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, platformada ishlashning aniq qoidalari va tartiblarini o'rnatish kerak.

Tashkiliy integratsiya platformadan logistika faoliyatida samarali foydalanish imkonini beradigan yangi biznes modellari va boshqaruv tuzilmalarini yaratishni o'z ichiga oladi. Masalan, platformadan foydalanish qoidalarini belgilash, tariflar va komissiyalar tuzilmasini aniqlash, shuningdek, platformadagi logistika jarayonlari ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tashkil etish amalga oshiriladi.

Texnologik integratsiya turli logistika tizimlarini bog'laydigan va yuk oqimlarini samarali boshqarishni ta'minlaydigan yagona texnologik platformani yaratishni o'z ichiga oladi. Masalan, buyurtmalarni avtomatik qayta ishlash, yuk oqimlarini monitoring qilish va transport vositalari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan dasturiy yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Logistika integratsiyasi platformada yuk oqimlarini boshqarish uchun samarali jarayonlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Masalan, omborlarni boshqarish va yuklarni marshrutlash tizimini rivojlantirish, shuningdek, avtotransport vositalaridan samarali foydalanish va omborlarni maksimal yuklanishini ta’minlash zarur.

O’zbekiston logistika xizmatlarini rivojlantirishda raqamli infratuzilma va raqamli texnologiyalarini faol rivojlantirmoqda. O’zbekistonda logistika xizmatlari rivojlanishining eng muhim tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

– global savdo aloqalarini kengayishi va xalqaro savdo hajmini oshishi, bu esa yanada murakab va moslashuvchan logistika yechimlarini talab qilmoqda;

– elektron tijorat va elektron savdoning o’sishi logistika xizmatlariga bo’lgan ehtiyojning o’sishiga olib kelmoqda;

– yuk oqimlari hajmining oshishi logistika xizmatlari samaradorligini oshiradigan, logistika xarajatlarini kamaytiradigan omborlarni boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan omborlardan foydalanishni oshirish;

– “yashil” iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, ekologik toza transport vositalari va yetkazib berish jarayonlarini tashkil etish dolzarblashib bormoqda.

Logistika xizmatlarini raqamlashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, 2030 yilgacha bu jarayon to’liq amalga oshirilishi belgilangan. 2030 yilgacha O’zbekistonda transport va logistika xizmatlarini raqamlashtirishdan kutilayotgan asosiy natijalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– samaradorlikni oshirish, logistika markazlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlarini optimallashtirish, tashish vaqtini qisqartirish, ombor xarajatlarini kamaytirish kabilar hisobiga logistika xizmatlari samaradorligini oshirishi mumkin;

– xarajatlarni kamaytirish, logistika jarayonlarini raqamlashtirish tovarlarni tashish va saqlash xarajatlarini kamaytirish, resurslardan foydalanishni yaxshilash, xatolar sonini kamaytirish va tovarlar yo'qotishlarini kamaytirish imkonini beradi;

– xizmatlar sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar logistika xizmatlari, shuningdek, logistika provayderlari xizmatlari sifatini oshirishi va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirishi mumkin;

– savdo hajmi oshishi, tranzit yuklar hajmining oshishi, buyurtmalarni o’z vaqtida bajarish, kerakli hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, yetkazib berish tizimi samaradorligini oshishi;

– atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish: transport va logistika ta'minoti zanjirlarini raqamlashtirish chiqindilarni kamaytirish, yo'nalishlarni optimallashtirish, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish va boshqa chora-tadbirlar orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Babaev Nasimdjan. Current Issues of Organization and Management of Commodity Resources. International Journal of Development and Public Policy. 2021, 297-300 pp.

2. Florida R.L. The Rise of the Creative Class. - New York: Basic Books, 2004. – 512 p.

3. Reis J., Amorim M., Melão N., Cohen Y., Rodrigues M. Digitalization: A Literature Review and Research Agenda // Lecture Notes on Multidisciplinary Industrial Engineering: In book: Proceedings on 25th International Joint Conference on Industrial Engineering and Operations Management – IJCIEOM. 2020. – p. 443-456.– doi: 10.1007/978-3-030-43616-2_47.

4. Schwab K., Davis N. Shaping the Fourth Industrial Revolution. - N.Y., 2018.

HUDUDLARDA TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Orzuqulova Zumrad Abduxoliq qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,
zumrad.orzuqulova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarda transport-logistika xizmatlarini samaradorligini oshirish imkoni beruvchi ko'rsatkichlarning zarurligi va ularni qo'llashdagi o'ziga xosliklari bayon etilgan. Hududlarda samaradorlikni baholash ko'rsatkichlarni qo'llashning milliy iqtisodiyotimiz uchun ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: transport-logistika xizmatlari, logistika mazkazlari, tashish va saqlash, samaradorlik ko'rsatkichlari, hudud samaradorligi, sanoatlashish darajasi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotdagi barcha jarayonlar bosqichma – bosqich raqamlashtirilayotgan bir vaqtda transport-logistika xizmatlari ham raqamli texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirishning yangi imkoniyatlarini kashf etib bormoqda. Mamlakatimiz o'zining joylashgan o'rniga ko'ra ham tarixiy ham zamonaviy yo'llar kesishmasida qulay hab rolini bajarish imkoniyatiga ega. Mana shunday imkoniyatdan foydalanib, mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritayotgan logistik markazlar, tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini aniqlash orqali mazkur hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi darajaga olib chiqish mumkin.

Logistik markazlar faoliyatini mamlakat miqiyosida va hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak mamlakatimizda hozirgi kunda transport-logistika xizmatlarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish maqsadida 5 ta asosiy xalqaro logistik markazlar tashkil etilgan. Ular Navoiy xalqaro intermodal logistik markazi-habi, Angren, Termiz, Toshkent va Pop xalqaro logistika markazlaridan iborat. Bundan tashqari hozirgi kunda «O‘ztemiryo‘lkonteyner» AJ tarkibida 28 ta logistik markaz ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mazkur markazlardan 24 tasi bevosita «O‘ztemiryo‘lkonteyner» AJ rasmiy saytida xaritada aks ettirilgan[99] va ular 4 ta kategoriya bo‘yicha alohida belgilar bilan belgilangan. Bu logistik markazlarning 10 tasida bojxona omborlari mavjud bo'lgan, 15 tasi katta hajmdagi yuk konteynerlari, o‘rtacha hajmdagi yuk konteynerlari, barcha turdagi vagon va xizmatlarni ko‘rsatuvchi (ular orasida 9 tasi faqat shu kategoriyada kolgan 6 tasi esa ham bojxona omborlari ham katta xajmdagi yuk konteynerlari, o‘rtacha hajmdagi yuk konteynerlari, barcha turdagi vagon va xizmatlarni ko‘rsatuvchi 2 ta kategoriyani o‘zida jamlaydi). 5 tasi barcha turdagi vagonlarga va yuklarga xizmatlarni ko‘rsatuvchi, 4 tasi esa kata

[99] https://www.utk.uz/#mapuzb

hajmdagi yuk konteynerlari va barcha turdagi vagon va xizmatlarni ko‘rsatuvchi markazlar bo‘lib bu 4 ta markaz bojxona omborlariga ega bo‘lgan markazlar kategoriyasini ham o‘z ichiga olgan. Geografik joylashuv nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, mamlakatimizning shimoli-sharqiy qismida logistik markazlar ancha zich joylashgan bo‘lib, g‘arbga borgan sari ular ancha siyraklashgan. Viloyatlar kesimida qaraydigan bo‘lsak, logistik markazlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida 1 ta, Xorazm viloyatida 2 ta, Buxoroda 3 ta, Navoiyda 1 ta, Samarqandda 1 ta, Qashqadaryoda2 ta, Surxandaryoda 1 ta, Jizzaxda 1ta, Sirdaryoda 1 ta, Toshkentda 6 ta, Namanganda 1ta, Andijonda 2 ta, Farg‘onada 2 tasi joylashgan. Bu markazlar temir yo’l transportiga asoslangan yuk tashishlar va saqlash bilan harakterlanadi. Bu logistik markazlarining aynan mamlakat poytaxtida joylashganlari ancha yetakchi va xizmat ko’rstaish qamrovi kata ekanligi bilan ajralib turadi. Poytaxdan uzoqlashgan sari viloyatlardagi logistik markazlar faoliyati samaradorligi pasayish tendensiyasiga ega. Bu muammoni bartaraf etish va barcha hududlarni mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqish uchun Qozog’istondagi yangi avlod logistik markazlarini rivojlantirishning “nur prinsipi” tajribasini mamlakatimizda joriy etish aqsadga muvofiq bo’ladi. Bu nurli prinsipning mohiyati faqat markazdagi logistik markazlar emas balki barcha hududlardagi logistik markazlar bir xilda rivojlanishini ta’minlashdir. Buning uchun barcha logistik markazlar belgilangan davlat dasturidagidek jihozlanishi, zaruriy infratuzilmalar yaratilishi, raqamlashtirilishi, o’zi joylashgan hududning qamrab olish darajasi yuqori bo’lishi kerak. Bundan logistik markazlar foydalanuvchilari sifatida sanoat korxonalari, qishloq xo’jalik korxonalari, tadbirkorlar va tashish va saqlash xizmatini ko’rsatuvchi korxonalar bo’lib, ularning faoliyati dinamikasini kuzatib boorish orqali hududlardagi transport logistika xizmatlarining ahvoli, istiqbolini ko’rish mumkin.

Hududlardagi transport-logistika xizmatlarining joriy holati va yillar davomidagi dinamikasini kuzatish va prognoz qilish uchun biz quyidagi 7 ta ko’rsatkichni taklif qilamiz. Bunda aynan logistik markazlar faoliyatini emas balki tashish va saqlash bilan shug’illanayotgan korxonalar faoliyati nuqtai nazaridan yondoshamiz. Bunga sabab logistik markazlar har bitta viloyatda mavjud emas va bu umumiy ko’rsatkich sifatida hisob-kitob ishlarini olib borishga to’sqinlik qiladi.

Hududlardagi tashish va saqlash korxonalari faoliyati samaradorligining sifat ko’rsakichlari:

1. Hududdagi tashish va saqlashda faoliyat yuritayotgan korxonalarining jami korxonalar sonidagi ulushi
2. Hududdagi sanoat korxonalarini qamrab olganlik darajasi
3. Faoliyat yuritish darajasi
4. Faoliyatning tugatilish darajasi
5. Faoliyatning zarurlik darajasi
6. Faoliyatning istiqbolilik darajasi

7. Faoliyat ko’rsatmayotgan korxonalarning ro’yxatdan o’tgan korxonalar dagi ulushi

Bu ko’rsatkichlar nafaqat bir hudud miqiyosida balki butun respublika miqiyosida ham hisoblash mumkin.

Logistik markazlar faoliyatini tahlil qiladigan bo’lsak, unda ularning jami yil davomida ko’rsatgan xizmati hajmida qaysi xarajatlar ustunlik qilishi, ularni kamaytirishning optimal yo’llarini toppish orqali amalga oshiriladi, Bunda markazning o’zini hududidagi jami sanoat va qishloq xo’jaligi korxonalaridan qanchasiga xizmat qilishi, jami xizmatlarning har bir ishchiga to’g’ri keladigan ulushi, foydaning har bir ishchiga to’g’ri keladigan ulushi, har texnikadan foydalanish darajasi kabilar inobatga olinishi kerak. Shu o’rinda aytib o’tish kerakki barcha hududlarni teng darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ham nazariy ham amaliy jihatdan imkonsiz. Chunki aynan bir xil hududlar mavjud emas. Hududlarning o’ziga xos xususiyatlari ham bunga to’sqinlik qiladi. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Maydoni
2. Aholisi
3. Geografik joylashuvi
4. Saoatlashish darajasi
5. Qishloq xo’jaligiga ixtisoslashuv darajasi
6. Temir yo’l vokzallari va aeroportlarning mavjudligi
7. Yo’l infratuzilmasining holati
8. Mamlakat YAIMdagi ulushi
9. Bandlik darajasi
10. Outsorsing xizmatlarining mavjudligi
11. Bojxona-chegara punktlarining mavjudligi
12. Iqlimi

Mana shunday o’ziga xosliklar tufayli har bir hududga mos keluvchi umumiy yondashuv yoki yagona samaradorlik ko’rsatkichini joriy etish natijaning ishonchliligini pasaytiradi. Logistik markazlar odatda temir yo’l kesishmalari, aeroportlar yoki bojxonalarga yaqin joylarda barpo etilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Har bir hududda mos ravishda tekis taqsimlanish asosida logistik markazlarning barpo etilishi ayrim hududlarda texnikaning bekor turib qolishi, resurslarning samarasiz foydalanishiga olib keladi. Logistik markazlarni barpo etishdan ko’ra tashish va saqlash korxonalari, outsorsing koxonalarini tashkil etish bu hududlar uchun maqsadga muvofiq bo’ladi.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida shuni guvohi bo’ldikki, aynan logistik markazlar ko’p joylashgan hududlarda tashish va saqlash korxonalarining soni ham mos ravishda yuqori bo’lar ekan. Bu moslikni aynan korrelatsiya funksiyasi yordamida 2020-2022 yillar uchun tekshirib ko’radigan bo’lsak, sanoat korxonalari soni va tashish va saqlash korxonalari soni o’rtasidagi korrelyatsiya koeffisienti uchta yil uchun o’rtacha 99 % ni tashkil etadi. Qishloq xo’jaligi korxonalari soni bilan bog’liqligini ifodalovchi

korrelyatisya koeffitsienti 96 %ni tashkil etadi. Bundan ko’rinib turibdiki ham sanoatlashuv darajasi yuqori bo’lgan hududlarda bunday korxonalarning rivojlanishida qulay infratuzilma yaratish va logistik markazlar faoliyatini takomillashtirish zarur.

Hududlardagi samaradorlikni aynan transport va logistika xizmatlari samaradorligini oshirishni tahlil qilishda xalqaro tan olingan indekslarning natijalarini tahlil etish ham zarur. Bunday ahamiyatli indekslar xalqaro miqiyosda 3 ta LPI, GCI, EMLI hisoblanadi. Bulardan faqat LPI indeksda mamlakatimiz mavjud. Aynan shu indeksning o’zi samradorlikni ifodalovchi asosli yagona manba sifatida qarab bo’lmaydi. Bunga sabab bu indeks subyektiv fikrlarga asoslangan. Hamda qo’llaniladigan matematik usullar aynan aniqlik bilan emas balki interpolyatsiya va asosiy komponentlar metodidan foydalanilgani uchun ayrim davlatlardagi haqiqiy holat yuzaga chiqmay qoladi. Eng muhim jihati LPI indeksi so’rovnomasida asosan xorijlik xizmatdan foydalanuvchilar va xalqaro ekspertlar davlatga 6 ta punkt bo’yicha baho beradilar. Bizning fikrimizcha mamlakatimizga avvalo ichki imkoniyatlarni baholash uchun mahalliy transport-logistika samaardorligini baholash ko’rsatkichlari yoki milliy samaradorlik indeksi zarur. Bu indeksni tuzishda biz taklif qilgan ko’rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

2. Ibragimov F.A. va Karriyeva V.K. «Transport-logistika klasteri bo‘yicha xorij tajribalari va uni O‘zbekistonda qo‘llash amaliyoti» «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy elektron jurnali, 2020 № 4

3. Cosimo Magazzino , Andrew Adewale Alola, Nicolas Schneider The trilemma of innovation, logistics performance, and environmental quality in 25 topmost logistics countries: A quantile regression evidence Journal of Cleaner Production Volume 322, 1 November 2021, 129050 https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2021.129050

4. Orzuqulova Z.A. O‘zbekistonda transport-logistika sohasi: bugungi holati, muammolar va ularning yechimlari “Logistika va iqtisodiyot” 2022 yil

№ 2 -son 361-369 b

5. Yergobek D.K., Axmetova Z.B., Mұsa Q.A., Idiris S.S. “Факторный анализ перспектив развития логистических центров нового поколения в Республике Казахстан” Vestnik KazATK № 4 (123), 2022 123-133 b

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO‘RSATISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xalimov Shaxboz Xalimovich –
SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Maqolada raqamlashtirish jarayoni qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, texnologik va biznes imkoniyatlarini yangi bosqichga ko‘tarishning asosiy omili sifatida qaraladi. Qishloq joylarida xizmatlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan va tavsiflangan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari, xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiy samaradorlik*

Аннотация. *В статье процесс цифровизации рассматривается как основной фактор повышения эффективности оказания услуг в сельской местности, поднятия технологических и бизнес-возможностей на новый уровень. Выделены и описаны особенности организации обслуживания в сельской местности.*

Ключевые слова*: цифровизация экономики, цифровые технологии, информационные системы, предоставление услуг, экономическая эффективность.*

Abstract*. In the article, the process of digitization is considered as the main factor for improving the efficiency of service delivery in rural areas, raising technological and business opportunities to a new level. Specific features of the organization of services in rural areas are highlighted and described.*

Key words*: digitization of the economy, digital technologies, information systems, service provision, economic efficiency*

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish boshqaruv, ijtimoiy va biznes jarayonlariga raqamli texnologiyalarni izchil joriy etish bilan uzviy bog'liqdir. Raqamli texnologiyalardan faol foydalanish IT-sohasidan boshlab, barqaror iqtisodiy rivojlanishning, jumladan, qishloq xo‘jaligining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi, bu esa qishloq joylarda bandlikning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan samarali foydalanish muammosi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar nafaqat uni zudlik bilan hal etish zarurligini, shuningdek, bir tomondan, uni hal qilish uchun omillar va shart-sharoitlarni aniqlash, boshqa tomondan, mamlakatning qishloq joylarini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashni anglatadi.

Bizning fikrimizcha, tizimni shakllantirishning uchinchi tomonni, ya'ni qishloq va qishloqlar salohiyatini oshirish uchun innovatsion platforma yaratishni aniqlash kerak. Agrosanoat majmuini quvib rivojlantirish paradigmasi va aylana iqtisodiyoti modelini amalga oshirish doirasida qishloq iqtisodiyoti va aholisining innovatsiyalarga mos kelishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Qishloq xo‘jaligi qishloq rivojiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy-moliyaviy natijalarining qoniqarsizligi qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida uzoq muddatli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Mavjud tendentsiyalarni hisobga olgan holda, raqamli tafovut shahar va qishloq joylarida imkoniyatlarning chuqur nomutanosibligiga, migratsiyaning yangi to'lqinlariga va qishloq xo'jaligi viloyatlarining yanada degradatsiyasiga olib keladi[100].

Qishloq xo'jaligi ko'plab hududlarda hudud iqtisodiyotining asosiy tarmog'idir. Bugungi kunda innovatsiyalar telekommunikatsiya va sanoat sohalarida jamlangan. Internet tarmog‘i orqali axborot resurslaridan foydalanish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun kompensatsiya mexanizmiga aylanishi mumkin, biroq ayni paytda qishloq aholisining raqamli kompetensiyalarining yo‘qligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga ilg‘or innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu qishloq xo'jaligida yanada turg'unlikka olib keladi.

Bugungi globallashuv sharoitida qishloq joylarda kontseptual yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Qishloq aholisi allaqachon transport xizmatlari ko'rsatish, turar-joy va noturar joylarni ijaraga berish, bog'larni haydash va boshqalar bilan shug'ullanadi. Qishloq xizmatlari bozorini yanada to'liq rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish zarur:

- xalq amaliy san’ati;
- maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlar;
- qishloq xo'jaligi turizmi;
- yovvoyi meva va rezavorlar, dorivor o'simliklar va boshqa tabiiy xom ashyolarni xarid qilish va qayta ishlash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha xizmatlar;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish va binolarni qurish

O‘zbekiston Respublikasining ko'plab tarkibiy tuzilmalarida ushbu sohalar allaqachon turli darajadagi muvaffaqiyatlar bilan ishlab chiqilmoqda, ammo ushbu turdagi xizmatlarning rivojlanishi tizimli xususiyatga ega emas. 1-jadvalda qishloq joylarda xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'nalishlari keltirilgan, bizning tahlilimiz asosida ushbu yo'nalishlarning afzalliklari, shuningdek, ularning rivojlanish bosqichlari va xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga imkon bergan chora-tadbirlar umumlashtirilgan.

[100] Mikova N.S. Analiz sistem monitoringa razvitiya ekonomiki znanij i informacionnogo obshchestva [analysis of monitoring systems for the development of the knowledge economy and the information society], Intellekt. Innovacii. Investicii [Intellect. Innovation. Investments], 2011, No. 2, pp. 53–63.

1-jadval

Qishloq joylarda xizmatlar bozorini rivojlantirish yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Afzalliklar	Bosqichlar va tadbirlar
Xalq amaliy san'ati (yog'ochga ishlov berish, kulolchilik, savat, supurgi, bog'dorchilik,kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, tikuvchilik, naqqoshlik, uy-ro'zg'or buyumlari yasash, hunarmandchilik)	- ishlab chiqarishni tashkil etish va ekspluatatsiya qilishga kichik kapital qo'yilmalar; - qishloq xo'jaligi xizmatlar sohasida mavsumiy ravishda band bo'lgan ishchilarni yil davomida qo'shimcha ish bilan ta'minlash; - uy ishlarini tashkil etish; - arzon materiallar va qayta ishlangan materiallardan foy-dalanish; - aholining turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlari vakillarini ishlab chiqarishga jalb qilish	- mehnatning ijodiy tabiati, ishlab chiqarilgan mahsulotning o'ziga xosligi va qo'l mehnatining yuqo-ri ulushidan iborat bo'lgan ishlab chiqarish xususiyatlarini aniqlash; - tabiiy monopoliyalar mahsu-lotlari va xizmatlari uchun soliq-lar va tariflar bo'yicha imtiyozlar olish imkonini beruvchi xalq badiiy hunarmandchiligi tashkilo-ti maqomini olish imkoniyati; - imtiyozli kreditlar olish, foiz stavkalarini subsidiyalash imko-niyati; - sotish strategiyasini ishlab chiqish
Aholiga maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatishni tashkil etish	- ko'pgina qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilma vayron qilingan, shu sababli aholi bandligini ta'minlash bilan birga qishloq aholisiga yuqori sifatli maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ko'rsatish dolzarb vazifa hisoblanadi; - har bir qishloqda kiyim-kechak, poyabzal, maishiy texnika, elektr jihozlarini ta'mirlash ustalari bor, ular "yer ostida" xizmat ko'rsatishni amalga oshiradilar. Ma'muriy usullar bilan "soyadan" olib chiqish samarali emas	- aholiga xizmatlarni ko'rsatuvchi yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarni aniqlash; - qishloq aholisini maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsa-tish bilan bog'liq kasblarga o'qitishni tashkil etish; - aholi punktlari o'rtasida xizmat-lar ko'rsatish bo'yicha shartnoma-lar tuzish (tumanlararo hamkor-lik); - imtiyozli kreditlar olish, foiz stavkalarini subsidiyalash imkoniyati
Agroturizm (shu jumladan baliq ovlash, ovchilik, sayyohlarni tarixiy va madaniy obidalarga, mevalar yig'ish joylariga kuzatib borish, fermer xo'jaliklari va bog'larni ijaraga berish)	- rivojlangan turizm infratu-zilmasi hududlar iqtisodiyotiga foydali ta'sir ko'rsatadi, soliq tushumlarini oshiradi; - bitta sayyohga xizmat ko'rsa-tish uchun uchtaga yaqin ish o'rni zarur, bandlik muammo-lari	- sayyohlarni joylashtirish uchun qishloq uylarini tanlash, mehmon uylari infratuzilmasini rivojlan-tirish; - turar joy xizmatlarini ko'rsatuv-chi mahalliy aholini o'qitish; - oziq-ovqat korxonalari, trans-port, savdo, aloqa,

	samarali hal etilmoqda; - qo'shimcha xizmatlarning keng doirasi; - mahalliy ishlab chiqaruv-chilardan turistlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish	sog'liqni saqlash va boshqalar faoliyatini muvofiqlashtirish; - tijorat sayyohlik agentligi yoki notijorat tashkiloti shaklida bozor integratorini yaratish; - umumiy kitobchada yoki veb-saytda reklamani tashkil etish

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan xizmatlar ulushi bir tomondan, ixtisoslashuv va hududlarning ehtiyojlari ta'sirida, ikkinchidan, hududlarda mavjud zahiralar tufayli o'zgaradi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini qishloq joylarida ish o'rinlarini saqlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish imkonini beradigan texnologik, tovar ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga undaydigan qoidalarni ishlab chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlarni mavjud ishchi kuchining malakasini saqlab qolish va rivojlantirish bilan birga jamlash zarur.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omil – iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdir. Ayni paytda raqamli iqtisodiyotda yangi texnologiyalar faol joriy etilmoqda, infratuzilma va ta’lim rivojlanmoqda, bu esa uning jadal o‘sishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz hukumati tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasiga xorijiy investorlarni faol jalb etilmoqda, bu esa qishloq joylarda tobora ko‘proq yangi texnologiyalarni joriy etish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur tajribani o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda. Qizig‘i shundaki, xizmat ko‘rsatish sohasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida YaIMning asosiy manbai hisoblanadi. Shunday qilib, xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi turlicha bo'lib, mamlakatning iqtisodiy tuzilishi va rivojlanishidagi farqlarni aks ettiradi. Xizmat ko‘rsatish sohasiga sarmoya kiritish va uni qo‘llab-quvvatlash orqali hukumatlar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda davom etishi va o‘z fuqarolarining farovon kelajagini ta’minlashi mumkin.

Misol uchun, AQSh dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasi yaxshi rivojlangan. 2021-yilda ushbu tarmoq (qo‘shilgan qiymat) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 77,6 foizini tashkil etdi. 2021 yilda Shveytsariya yalpi ichki mahsulotida xizmat ko‘rsatish sohasining qo‘shilgan qiymati 71,92 foiz, Buyuk Britaniyada 71,46 foiz, Fransiyada 70,34, Avstraliyada 65,65, Germaniyada 62,88, Braziliyada 59,38, Xitoyda 53,31%, Rossiyada – 52,91% foizni tashkil etdi[101].

[101] The Global Economy https://ru.theglobaleconomy.com

O‘zbekistonda 2021-yilda xizmatlarning qo‘shilgan qiymatining YaIMdagi ulushi 39,6 foizni, 2022-yil uchun dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 41,5 foizni tashkil etdi[102].

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning drayveri - robototexnika sohasidagi yutuqlar, bu avtonom robot tizimlari, aqlli issiqxonalar va aqlli fermalarning tarqalishiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligi yerlarini qayta ishlash va ishlov berishda uchuvchisiz transport vositalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Chorvachilikda hayvonlarning hayot aylanishini boshqarish, sog‘lig‘ini doimiy nazorat qilish, oziqlantirish va parvarishlashni sozlash uchun robot tizimlari, Internet of Things texnologiyalari, shuningdek, katta ma’lumotlar tahliliga asoslangan intellektual tizimlar ham qo‘llaniladi. Dunyoda qishloq xo‘jaligining raqamli transformatsiyasining muhim tendentsiyasi kichik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida fermer xo‘jaligini boshqarish uchun raqamli platformalar va virtual yordamchilarning tarqalishi hisoblanadi. Bu yechimlar fermerlarga ishni rejalashtirish, ekin tanlash, ishlab chiqarishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, shuningdek, buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha tavsiya va amaliy maslahatlar beradi.

Raqamli yechimlar logistika va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda qo'llaniladi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun kuzatuv va sifat nazorati tizimlari, aqlli shartnomalar, shuningdek, kichik biznes tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va sotish uchun bozorlarni o'z ichiga oladi.

Raqamlashtirish bir qator bilvosita va ijtimoiy samaralarga erishish imkonini beradi, jumladan, shahar va qishloq joylari o‘rtasidagi hayot sifatidagi nomutanosiblikni kamaytirish, kichik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining oziq-ovqat tizimlariga iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash va qishloq aholisini raqamli savodxonlikni oshirish va ularning vakolatlarini kengaytirish vositalari bilan ta'minlash zanjirlari.

Yangi O‘zbekistonda agrosanoat majmuasi mahalliy ishlab chiqarishning kuchli o'sishini namoyish etmoqda, ammo qishloq joylarida xizmatlar ko‘rsatishning yanada oshishiga raqamlashtirishning past darajasi va raqamli yechimlardan foydalanish to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan qishloq joylarida xizmatlar ko‘rsatishni raqamlashtirish jarayonini rivojlantirishda inson resurslarining strategik rolini oshirish va uni yangi texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy bosqichga olib chiqish masalalari birinchi o‘ringa chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mikova N.S. Analiz sistem monitoringa razvitiya ekonomiki znanij i informacionnogo obshchestva [analysis of monitoring systems for the development of the knowledge economy and the information society], Intellekt. Innovacii. Investicii [Intellect. Innovation. Investments], 2011, No. 2, pp. 53–63.
2. The Global Economy https://ru.theglobaleconomy.com

[102] Веб-сайт Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан: https://stat.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 22.08.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish pf-194-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 373-son Qarori.

5. The Global Economy https://ru.theglobaleconomy.com

6. Веб-сайт Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан: https://stat.uz

ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ РИВОЖИДА ОБОДОНЛАШТИРИШ ХИЗМАТЛАРИ

Хайитов Жамшид Холвоевич
“Рақамли иқтисодиёт” кафедраси ассистенти. jamshidhayitov@sies.uz.

Аннотация. ушбу мақолада ободонлаштириш хизматларига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, кўплаб ривожланган давлатларда қаттиқ маиший чиқиндини қайта ишлашда бир неча давлат бошқарув органлари иштирок этиб, маҳаллий даражадаги органлар асосий ўринни эгаллашлари масалалари ўрганилган.

Калит сўзлар: ободонлаштириш, қаттиқ маиший чиқинди, хизматлар, фуқаролар ҳаёти, соғлиғи, атроф-муҳит, давлат.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено совершенствованию услуг, а также вопросу того, что во многих развитых странах переработкой твердых бытовых отходов занимаются несколько органов государственного управления, причем основное место занимают органы местного уровня.

Ключевые слова: благоустройство, твердые бытовые отходы, услуги, жизнь граждан, здоровье, окружающая среда, государство.

Abstract. This article pays special attention to improving services, as well as the fact that in many developed countries several government bodies are involved in the processing of solid waste, with local authorities occupying the main place.

Key words: improvement, municipal solid waste, services, citizens' lives, health, environment, state.

2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида белгиланган вазифаларга мувофиқ аҳолининг ҳаёт даражасини янада юксалтириш, таълим сифатини илғор халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, барқарор иқтисодий ўсишга эришиш ҳамда камбағалликни қисқартириш

борасидаги ислоҳотларимизни янги босқичга олиб чиқиш[103] энг долзарб масалалардан бири сифатида юзага келди. Мамлакатимизда мавжуд шаҳарлар ва қишлоқларидаги аҳоли сонининг кўпайиши ўз – ўзидан ободонлаштириш хизматларига бўлган талабни ошишига олиб келади. Эътиборли томони, барча давлатлар аҳоли сони, иқлимий, жуғорфий ва бошқа ижобий ва салбий шароитлардан қатъий назар ўзлари учун зарур бўлган санитария–гигиеник шароитларни ва аҳолининг меҳнати, маиший турмуши ҳамда дам олишлари учун зарур қулайликларни юксак даражада таъминлашлари учун ободонлаштириш хизматларидан фойдаланмасликнинг иложи йўқ.

Бугунги кунда бутун дунёда чиқиндиларнинг фуқаролар ҳаёти ва соғлиғига, атроф-муҳитга зарарли таъсирининг олдини олиш, чиқиндилар ҳосил бўлишини камайтириш ва улардан хўжалик фаолиятида оқилона фойдаланилишини таъминлашга қаратилган катта лойиҳалар амалга оширилмоқда. Сабаби ҳар йили дунё бўйлаб 2 миллиарддан ортиқ қаттиқ маиший чиқинди ҳосил бўлади ва улардан камида 33 фоизи экологик жиҳатдан хавфсиз бўлмаган усуллар билан қайта ишланади. Ўртача киши бошига кунлик тўғри келадиган маиший чиқинди 0,74 кгни ташкил этади, ҳудудлар кесимида унинг қуйи ва юқори чегаралари 0,1 дан 4,5 кг оралиқда тебраниб туради[104].

Шарқий Осиё ва Тинч океани ҳудудида дунё чиқиндисининг 23 фоизга яқин қисми шаклланса, бу кўрсаткич Яқин Шарқ ва Шимолий Африка давлатларида энг кам – 6 фоизни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 апрелдаги қарори билан 2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегияси тасдиқлангани юртимизда ҳам бу борадаги ишларнинг самарадорлигини оширишда муҳим қадамлардан бири бўлди. Ҳужжат қаттиқ маиший чиқиндини қайта ишлашнинг самарали ва замонавий тизимини яратишни кўзда тутади.

Стратегияга мувофиқ, 2019-2028 йиллар давомида умумий ҳажми 2.188,2 млн. АҚШ долларига тенг миқдорда инвестиция киритилиши режалаштирилган. Стратегияни бир неча босқичларда амалга ошириш кўзда тутилган[105]. Жумладан, биринчи босқич (2019-2021 йиллар)да қаттиқ маиший чиқинди билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги қонунчилик базасини ва иқтисодий тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш, қаттиқ маиший чиқиндиларни тўплаш ва олиб чиқиб кетиш бўйича хизматларнинг самарали ташкиллаштирилишини таъминлаш мақсадида санитария жиҳатидан тозалашнинг моддий-техник

[103] https://lex.uz/docs/6396146

[104] https://consumer.gov.uz/faoliyat/targibot-tadbirlari/qattiq-maishiy-chiqindilarni-boshqarish-tizimlari-dunyo-va-ozbekistonda-qanday-tartibda/

[105] https://oldparliament.gov.uz/uz/events/opinion/35751/

базасини ва инфратузилмасини ривожлантириш, тўлов интизомини мустаҳкамлаш, қаттиқ маиший чиқинди билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасида экологик таълим тизимини ривожлантириш учун методик ва ахборот таъминотини яратиш белгилаб берилган.

2022-2028 йилларга мўлжалланган иккинчи босқичда қаттиқ маиший чиқиндиларни саралаб йиғиш бўйича инфратузилмани ривожлантириш, полигонларни оптималлаштириш, қайта юклаш станциялари ва чиқиндиларни қайта ишлаш объектларини қуриш, чиқиндилар билан боғлиқ ишларни комплекс амалга ошириш кластерлари фаолиятини такомиллаштириш, уларнинг қаттиқ маиший чиқиндиларни қайта ишлаш бўйича салоҳиятини ривожлантириш кўзда тутилган.

Эътиборли томони, кўплаб ривожланган давлатларда қаттиқ маиший чиқиндини қайта ишлашда бир неча давлат бошқарув органлари иштирок этиб, маҳаллий даражадаги органлар асосий ўринни эгаллайди. Маҳаллий органлар чиқиндиларни тўплашда, ташишда ва қайта ишлашда муҳим аҳамият касб этади. Улар, шунингдек чиқиндини олиб кетиш учун тўлов миқдорини белгилаш ваколатига эга бўлиши мумкин, чиқиндиларни йўқ қилиш, қайта ишлашга лицензия ва рухсатнома бериш аксарият ҳолларда давлат ёки унинг ҳудудий ваколатли органлари томонидан амалга оширилади.

Бугунги кунда мамлакатимиз туризмга йўналтирилган давлатлар қаторига қўшилар экан бизнинг фикримизча албатта ободонлаштириш хизматларини ҳам алоҳида бир хизмат тури сифатида ривожлантириш хизматларни ривожлантиришга бевосита давлат иштирокини жорий этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Республика аҳоли пунктларини ободонлаштириш ишларини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.01.2013 йилдаги 4-сон Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.08.2017 йилдаги ПҚ-3182-сонли Қарори, Ҳудудларнинг жадал ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашга доир устувор чора-тадбирлар тўғрисида. https://lex.uz/docs/3302438.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга МУРОЖААТНОМАСИ. (2020 йил 24 январь). https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar)

4. Б.А. Ходжаев (раис), А.Р. Тохтаев, Ш.Т. Шоназаров, Х.Х. Очилов. **“**Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш**”** / Ўзбекистон

Республикаси Давлат Архитектура ва қурилиш қўмитаси – Тошкент, 2009-177 б.

5. Хмельченко, Е.Г. Роль управления благоустройством территории в формировании имиджа города / Е.Г. Хмельченко, К.И. Заиц // Вестник университета. – 2017. – № 4. – С. 38–42.

6. Конышева, Л.А. Благоустройство территории муниципального образования как метод повышения качества жизни населения / Л.А. Конышева // Фундаментальные и прикладные исследования: проблемы и результаты: материалы Международной конференции. – 2017. – С. 552–556.

7. https://lex.uz/docs/6396146

8. https://consumer.gov.uz/faoliyat/targibot-tadbirlari/qattiq-maishiy-chiqindi-larni-boshqarish-tizimlari-dunyo-va-ozbekistonda-qanday-tartibda/

9. https://oldparliament.gov.uz/uz/events/opinion/35751/

KORRELYATSION-REGRESSION MODELLARDAN BIZNES-JARAYONLARINING IQTISODIY TAHLILI VA PROGNOZLASHDA FOYDALANISH YO‘LLARI

Umida Ziyadullayevna Raximova Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o‘qituvchisi umida_raximova1712@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ish o‘rganilayotgan hodisalar orasidagi bog‘lanishni natijaviy belgi bilan muhim omillar o‘rtasidagi ishonchli miqdoriy nisbatlar orqali ifodalash va istiqbolni belgilash uchun korrelyatsion-regression modeldan foydalanib, natijaviy belgining bashoriy ko‘rsatkichlarini yoki berilgan ehtimol bilan ular yotadigan ishonchli kenglikni hisoblashdan iboratdir.

Tayanch iboralar. Korrelyatsiya, xodisa, regressiya, model, bashorat

Ijtimoiy-iqtisodiy xodisalar juda murakkab bo‘lib, ular orasida ko‘pincha korrelyatsion bog‘lanishlar mavjud. Bir o‘lchovli *X* belgining har bir qiymatiga boshqa o‘zgaruvchi *Y* taqsimoti mos kelsa, bunday bog‘lanish korrelyatsiya deb ataladi. Korrelyatsion tahlilda hodisalar orasidagi bog‘lanishning zichlik darajasi aniqlanadi. U korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash, ularning muhimligi, ishonchliligini baholashga asoslanadi.

Korrelyatsion-regression model - bu o‘rganilayotgan hodisalar orasidagi bog‘lanishni natijaviy belgi bilan muhim omillar o‘rtasidagi ishonchli miqdoriy nisbatlar orqali ifodalashdir.

Korrelyatsion - regression model deb shunday regressiya tenglamasiga aytiladiki, u o‘rganilayotgan hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni natijaviy belgi bilan muhim omillar o‘rtasidagi ishonchli miqdoriy nisbatlar orqali ifodalab beradi. Uning determinatsiya va regressiya koeffitsientlari mohiyatan bog‘lanishning sotsial-iqtisodiy tabiati haqidagi ilmiy nazariyaga to‘la mos bo‘lib, ishonchli oraliq ehtimoliga ega bo‘ladi.

Korrelyatsion-regression modellarni tuzish uchun statistika nazariyasi va amaliyoti tomonidan qator tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- omil sifatida olinadigan belgilar natijaviy belgi bilan sabab-oqibat bog‘lanishda bo‘lishi kerak;

- omil qilib olinayotgan belgilar natijaviy belgining tarkibiy elementi yoki uning funksiyasi bo‘lmasligi lozim;

- omil sifatida olinayotgan belgilar bir birini takrorlamasligi, ya’ni kolleniear bo‘lmasligi kerak (korrelyatsiya koeffitsienti >0,8 bo‘lmasligi shart);

- natijaviy belgi qanday to‘plam birligiga tegishli bo‘lsa, omil belgilarni ham unga nisbatan olish ma’qul;

- regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillar soni “*m*” to‘plam birliklar soni “*n*” dan kam bo‘lishi kerak. Odatda, ko‘p o‘lchovli regressiya tenglamalari uchun $m/n \geq 11$ bosh komponentlar usuli uchun $m/n \geq 7$ tavsiya etiladi.

Regressiya tenglamasining matematik shakli bog‘lanish tabiatiga to‘la mos bo‘lishi kerak.

Regresiya tenglamasini matematik ifodalash shakli real sharoitda faktorlar bilan natija orasidagi bog‘lanish tabiatiga to‘la mos bo‘lishi, uyg‘unlanishi lozim. Agar omillar va natijalar orasida additiv bog‘lanish bo‘lib, biror omil bo‘lmaganda ham natija ro‘yobga chiqaversa, tenglama $\hat{Y}_{1\ldots k} = a_0 + \sum_{j=1}^{k} a_j x_j$ shaklda, agar biror omilsiz natija yuzaga chiqa olmasa, tenglama multiplikativ shaklda $\hat{Y}_{x_j} = a_0 \prod_{j=1}^{k} a_j x_j$ bo‘lishi lozim.

Istiqbolni belgilash uchun regression modeldan foydalanish bashorat qilishda kutiladigan omil qiymatlarini tenglamaga qo‘yishdan iboratdir. Tenglamani hisoblash asosi bo‘lib xizmat qilgan axborotda faktor belgi ega bo‘lgan qiymatdan katta darajada farqlanuvchi bashariy qiymatlarini tenglamaga qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki omilning boshqa sifatga tegishli darajalarida tenglama parametrlari o‘zgacha qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Istiqbolni nuqtali baholashning amalga oshish ehtimoli kichik. Regressiya tenglamasiga omillarning kutiladigan qiymatlarini qo‘yib aniqlangan prognoz (istiqbol daraja) nuqtali prognoz (istiqbolni baholash) deb ataladi. Bunday istiqbol baholashning amalga oshish ehtimoli juda kichikdir. Shuning uchun istiqbol baholashni uning o‘rtacha xatosini yoki etarli darajada katta ehtimol bilan prognozning ishonchli kengligi (oralig‘i)ni aniqlash bilan birga olib borish kerak. Omil belgi qiymati X_k ga teng bo‘lganda regressiya chizig‘ining bosh to‘plamdagi holatining o‘rtacha xatosi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M\hat{y}_{\bar{x}} = \delta_{xy}\sqrt{\frac{1}{n} + \frac{(x_k - \overline{x})^2}{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \overline{x})^2}}$$

bu yerda $M_{\bar{y}_x}$ - regressiya chizig‘ining bosh to‘plamdagi holatining o‘rtacha xatosi $x=x_k$ ga teng bo‘lganda;

n - tanlanma hajmi;

x_k - omilning kutiladigan qiymati;

δ_{qoldiq} - erkin darajalar soni bilan bosh to‘plamdagi regressiya chizig‘i natijaviy belgi o‘rtacha kvadratik tafovutining baholanishi, ya’ni:

$$\delta_{колдик} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \hat{y}_{x_i})^2}{n-m}}$$

m - tenglama parametrlari (koeffitsientlari) soni.

Regressiya chizig‘i istiqbolining ishonchli chegaralarini aniqlash uchun uning o‘rtacha xatosini erkin darajalar soni *n-m* va ishonchli ehtimol 0,95 (α=0,05) bilan aniqlangan t-St'yudent mezonining kritik (jadval) qiymatiga ko‘paytirish керак $\Delta_{prognoz} = t_{jad} * M \hat{y}_{xk}$.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Айвазян С. А. Прикладная статистика и основы эконометрики: Учебник. -М.: ЮНИТИ, 2003

2. Горбунов В.К. Математическая модель потребительского спроса. -М.: Экономика, 2004. Доугерти К. Введение в эконометрику. -М.: ЮНИТИ, 2001

3. Замков О.О. и др. Математические методы в экономике. -М.: Дело и Сервис, 2004.

4. Эконометрика. Учебник. /под ред. проф. И.И.Елисеевой. -М.: Финансы и статистика, 2004.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI MAVJUD ICHKI IMKONIYATLAR XISOBIGA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Axmedov Jamol Axmedovich Oziq-Ovqat va qishloq xo‘jaligi soxasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktoranti

Globbalashuv jarayonida axolini ekologik xavfsiz sifatli va arzon ozik-ovkat mahsulotlari bilan ta’minlash xozirgi davrning aktual muammolaridan biridir. Jaxon mikyosida axolini ozik-ovkat bilan ta’minlash uchun milliardlar mablaglar talab klinadi. Qadimdan to xozirgacha bulgan davrgacha axolini reproduktiv sog‘ligini, uzoq umr kurishini ta’minlashda bu omil muxim rol uynaydi. Mamlakatimizda axolini xavfsiz ozik-ovkat bilan ta’minlash xar doim asosiy masala bulib kelgan.

Taraqqiyot strategiyasining asosiy yunalishlaridan biri xam aynan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilganligi bejizga emas.

Xozirgi globballashuv jarayonida dunyo axolisini keskin kupayib borayotganligi, axoli soning maltus nazariyasi buyicha oshib boryotganligi xamda axolining oziq-ovqat maxsulotlariga bulgan kundalik extiyoji ya’ni talabning oshib borishi bilan izohlandigan bu jarayon murakab ijtimoiy-iktisodiy

masalalardan hisoblanib oziq-ovqat bilan ta’minlashda kuyidagi omillarga asosiy e’tiborni karatish kerak :

Birinchidan dunyo xalqlarini xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun butun dunyo xalqlari birgalikda xarakat qilishlar ya’ni ular urtasida yagona iktisodiy xamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun xalqaro oziq-ovqat tashkilotini tuzish xamda davlatlararo qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan ozik-ovkat mahsulotlari va axolining istemol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari xajmi tug‘risidagi ishonchli axborot almashinuvini ta’minlash kerak;

Ikkinchidan mamlakatlar planetar masshtabda oziq-ovqat masalasini xal qilmasdan ya’ni dunyo axolisini oziq-ovqatga bulgan extiyojini ta’minlamasdan turib taraqqiy qilgan davlatlar safiga qushilishi mushkuldir.

Mamalakatimizda xam bu soxada ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ish olib borilmoqda jumladan qishloq xo‘jaligida tub burulishlar amalga oshirilmoqda O‘zbekiston Respublikasi agrar mintaqa xisoblanganligi sababli axolini oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lgan talabini xamda xarbiy oziq-ovqat ta’minoti bazasini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lib oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash darajasi bo‘yicha

-Ta’minlangan oziq-ovqat xavfsizligi darajasidagi mamlakat xisoblanadi ya’ni qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish davlatning ichki extiyojlarini asosan qondiradi va iste’mol axolining zaruriy minimal darajasidan yuqori bo‘lib mamlakat ishlab chiqaruvchilari tomonidan ta’minlanadi.[1]

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda asosiy tarmoq bo‘lgan qishloq xo‘jaligining rivojlantirilishi ko‘p jixatdan suv resurislari qay darajada mavjudligi va samarali foydalanishga bog‘liq .

Bugungi kunda Respublikamizda suv resurislaridan samarali foydalanish ularni boshqarish tizimini takomillashtirish va modirnizatsiya qilish jadal ravishda olib borilmoqda 2018 yilgacha Respublika bo‘yicha suv tejovchi texnalogiyalar asosida sug‘oriladigan ekin maydonlari 28 ming gektarni tashkil etgan bulsa bu kursatkich 2023 yilga kelib 1 milion gektarni tashkil etib jami sug‘oriladigan yer maydonining 27 foizini tashkil etadi taxlillarga kura 2025 yilga borib respublikamiz bo‘yicha 2 milion gektarni jami sug‘oriladigan yer maydonining54 foizinida suv tejovchi texnalogiyalar joriy etiladi shu bilan birga respublikamizda suvni tejovchi texnalogiyalarni va butlovchi qisimlarini mahalliy sharoitda ishlab chiqaruvchi korxonalar son 2023 yil xolatiga kura 50 tagacha yetdi. Suvni tejovchi texnalogiyalar asosida maxsulot yetishtirilayotgan ekin maydonlarida suv 50 foizga, meniral ug‘itlar 30 foizga, yoqilg‘i-moylash materiallari 35 foizga, ish haqqi 25 foizgacha kamayshiga erishish mumkin. [2]

Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bulgan talabini qondirish va xarbiy oziq-ovqat bazasini ta’minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni xomashyo bilan ta’minlash jarayonida qishloq xo‘jaligidagi g‘alla va erta bahorgi ekinlardan bushagan maydonlarida takroriy ekinlar joylashtirish va ulardan mahsulot yetishtirish hisobiga qishloq xo‘jalik

mahsulotlari xajmini oshirish hamda mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish muhim axamiyat kasb etadi.

1.Abulqosimov Xasan Pirnazarovich.,Saidaxmedova Nodira Ilxamovna. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari.iqtisod va moliya 2021 y 1 (137)

2. Yangi O‘zbekiston gazitasi 2023y 14 iyun 116-son 4 bet

Qishloq xo‘jaligida takroriy ekinlarni ekish va mahsulot yetishtirishdan kuzlangan asosiy maqsad quydagilar.

1) O‘zbekiston Respublikasi agrar mintaqa hisoblanganligi va tab’iy iqlim sharoitidan hamda qishloq xo‘jaligidagi mavjud ekin maydonlarining ichki imkoniyatdan kelib chiqgan xolda Aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlariga bulgan talabini qondirish,

2) Bugungi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasining 48% aholisi qishloq joylarda yashaydi mexnatga yaroqli aholining aksar qismi (3718000 kishi) qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritib kelmoqda qishloq joylarida yashovchi aholining daromadlarini oshirish va ularni mavsumiy mexnat bilan ta’minlash

3) Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan va suv resurslaridan unumliy foydalanish, tuproqning unumdorligini oshirish va yer degridatsiyasiga qarshi kurashish.

4) Davlat zimmasidagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va xarbiy oziq-ovqat ta’minoti yukini kamaytirish, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish xajmini oshirish va ularning eksport xajmini oshirish.

Dexqon xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish investitsiya, vaqt, bilim va mexnat kunikmasi hamda texnik resurislarini talab etuvchi mo‘rakkab jarayon xisoblanadi. Dexqon xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayoni ekin maydoniga ekinlarni joylashtirish, urug‘ unib chiqgandan to pishib yetiulguniga qadar bulgan vigitatsiya davri va xosilni yeg‘ib olish, saqlash, qadoqlash va istemolchilarga yetkazib berish kabi uch bosqichga bulinadi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida takroriy ekinlarni joylashtirish jarayoni dexqonchilik mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’ektlardan quyidagi jixatlarga aloxida etibor qaratishni talab etadi.

– Hududning ta’biy iqlim sharoitidan kelib chiqgan xolda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarida takroriy ekin sifatida joylashtirilishi kuzlanayotgan ekinlarning hosildor va ertapishar navlarini tanlash zarur. Ushbu bosqichda urug‘ navining O‘zbekiston Respublikasi hududlarida ekish uchun tavsiya etilgan ekinlarning davlat reestiriga kiritilgan, sinov natijalarida yuqori ko‘rsatgichga erishilgan, urug‘ning shu xududning tuprog‘iga, ta’biy iqlim sharoitiga tez moslashuvchan va kasalliklarga chidamlilik darajasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu urinda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida takroriy ekin sifatida ekish mumkin bulgan karoshkaning “sante” hamda “simfoniya” navlarini tahliliga etibor qaratsak 2001 yilda davlat reestiriga sante 9703873 raqami bilan Andijon (2), Buxoro (3), Jizzax (4), Namangan (6),Samarqand (8), Sirdaryo (10) va Toshkent (11) viloyatlari bo‘yicha

kiritilgan. O‘shbu navning xususiyatlari 2000 yilda xosildorligi gektaridan 39 tonna ta’mi 5,0 ball, o‘rta ertapishar nav, o‘suv davri 80-90 kun, kasalliklarga chidamli. Kartoshkaning simfoniya navi 2001 yilda Davlat Reestiriga 9938119 raqami bilan Andijon (2), Jizzax (4), Namangan (6),Samarqand (8), Sirdaryo (10) va Toshkent (11) viloyatlari bo‘yicha kiritilgan. O‘shbu navning xususiyatlari 2000 yilda xosildorligi gektaridan Toshkent viloyatida 18 tonnani, Andijon viloyatida 24 tonnani tashkil etgan, ta’mi 5,0 ball, o‘rta kechki nav, o‘suv davri 130-135 kun, kasalliklarga chidamli, qurg‘oqchilik va issiqqa bardoshli tuganakning urtacha vazni 200-230 g, ko‘rinishi bir tekis va chiroyli yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib Respublikamizning janubiy hududlaridagi hamda xavo harorati kuz mavsumining oxirlariga borib pasayish extimoli bulgan hududlaridagi suv ta’minot qiyinroq bulgan ekin maydonlarida kartoshkaning simfoniya navini takroriy ekin sifatida joylashtirish maqsadga muvofiq biroq iyun’, iyul’ oylaridagi xavo xaroratini oshib ketishini hisobga olib tuproqning namlik darajasini miyorda saqlash chorasini oldindan kurib qo‘yish yokiy ayni usha vaqtning oxirlariga tug‘rilab ekin maydonlariga urug‘ni joylashtirish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar.

1. Aholini oziq-ovqat mahsulotiga bulgan talabini qondirish kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olganligi qishloq xo‘jaligi yerlarining xususiyati va hududning ta’biy iqlim sharoitidan kelib chiqib ekin turlarini mintaqa va hududlar bo‘yicha joylashtirishning ilmiy asoslangan dasturini ishlab chiqish zarur; qishloq xo‘jalik mahsulotlarini joylashtirish jarayonida vaqtdan oqilona foydalanishni xamda qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumliy foydalanishni ko‘zlagan xolda zamonaviy axborot texnalogiyalari dasturiy manitoring tizimini joriy etish xamda qishloq xo‘jaligi yerlarida qanday ekin turlari va qancha xajimdagi ekin maydonga joylashtirilgani to‘g‘risidagi axborotni qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’ektlarning o‘zlari joylashtirishi va ular o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’ektlarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida berilayotgan imtiyozlar turini yanada oshirish lozim va shu bilan birgalikda fermer xo‘jaliklarining g‘alla hamda erta baxorgi ekin maydonlaridan bo‘shagan va o‘zlari foydalanmayotgan yerlarni takroriy ekin sifatida ijaraga olo‘vchi sub’ektlarning faoliyatini qonun bilan himoyalangan shartnomaviy tizimini xamda ularning yer va suv uchun to‘lov miqdorini belgilash maqsadga muvofiqdir. O‘tgan yillar davomida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini joylashtirish jarayoni markziy rejalashtirish asosida olib borilganligi sababli qishloq xo‘jaligi yerlarida joylashtirilgan ayrim turdagi ekinlarni bo‘zish holatlari mavjud edi. Ushbu xolatdan zarar kurgan sub’ektning ko‘rgan zararini qoplash kafolatlanmagan edi. Qishloq xo‘jalik yerlaridan qisqa muddat davomida ijara asosida foydalanayotgan sub’ektning faoliyatini qonun bilan himoyalanishi ularga bir qator imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda ularning ishonchini oshishiga olib keladi.

3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad kishilik jamiyatini oziq-ovqat mahsulotiga bo‘lgan extiyojini qondirishning o‘zi bulib qolmasdan balkiy oziq-ovqat mahsulotlarini insonlarning sog‘ligi va hayotiga jiddiy tasir ko‘rsatishini xam inobatga olish zarur. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonida mineral o‘g‘itlardan foydalanishda miyor darajasiga jiddiy etibor qaratish lozim chunkiy inson istemol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmida turli xil kasalliklar kelib chiqishida yoki kasalliklarni yengishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi shuning uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda tuproqning umdorligidan kelib chiqgan xolda kimyoviy mineral ug‘itlardan foydalanishni va kimyoviy mineral ug‘itlarni qullash jarayonini nazorat qilishni ilmiy tashkil etish zarur.

4. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va ularni xajmini oshirish, sifatini yaxshilash hamda aholini mexnat bilan bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari yaqinida xususiy biolabaratoriya va agrokansalting markazlarini tashkil etish, ularning texnik va dasturiy ta’minotlari, biolabaratoriya bino inshoatlari qurilishi uchun imtyozli kreditlar ta’sis etish zaro‘r. Shuningdek ularning kasbiy faoliyatini ximoya qiluvchi va tartibga soluvchi qarorlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respblikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respblikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Pf-4947-sonli farmoning 1-ilovasi.

2. Abulqosimov H.P.,Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va yunalishlari. Monagrafiya. – T.: “fan va texnalogiya”, 2017 yil.

3. Saidova D.N.,Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va Oziq-ovqat xavfsizligi. O‘quv qullanma. – T.: O‘zFA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi nashriyoti, 2016 yil.

4. Umirzoqov U.P.,Toshboyev A.J., Rashidov J.,ToshboyevA.A., Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. – T.: “iqtisod va moliya” nashriyoti 2008 yil.

5. Абдуg‘анийев А., Абдуg‘анийев А.А. Qишлоq хўжалиги иқтисодиёти. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамg‘армаси нашриёти, 2004 йил

6. Эргашев Р.Х. Qишлоq хўжалиги иқтисодиёти. Ўqув qулланма. – Т.: Экстремум пресс нашриёти 2011 йил

7. Сайдахмедова Н.И. Бозор иқтисодиёти шароитида озиқ-овqат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиһатлари ва йуналишлари. Монография. – Т.: “фан ва техналогия”, 2018 йил.

8. Абулqосимов Хасан Пирназарович.,Саидахмедова Нодира Илхамовна. Ўзбекистонда озиқ-овqат хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари.иқтисод ва молия 2021 й 1 (137)

ТАННАРХ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ МАҚСАДИ ВА ТАВСИФИ

Ташназарова Дилфуза – Тошкент давлат аграр университети ўқитувчиси, PhD

Аннотация. Ушбу мақолада таннархи бухгалтерия ҳисобининг таърифи, унинг замонавий вазифалари келтирилган. Компаниялар бошқарув тизимида таннарх бухгалтерия ҳисобидан олиниши мумкин бўлган нафлар санаб ўтилган.

Калитли сўзлар: таннарх, таннарх бухгалтерия ҳисоби, менежментлик бухгалтерия ҳисоби, стандарт кост, таннарх ҳисобининг вазифалари

Аннотация. В данной статье представлено определение бухгалтерского учета затрат, его современные задачи. Перечислены в системе управления компанией выгоды, которые можно получить от бухгалтерского учета затрат.

Ключевые термины: себестоимость, учет затрат, управленческий учет, нормативная себестоимость, задачи учета затрат.

Abstract. This article presents the definition of cost accounting, its modern tasks. The benefits that can be derived from cost accounting are listed in the company's management system.

Key terms: cost, cost accounting, management accounting, standard cost, functions of cost accounting

Хорижий тажрибаларда таннархи бухгалтерия ҳисоби Ҳозирги кунда таннарх бухгалтерия ҳисоби тизим сифатида юзага келмоқда. Бизнинг амалиётимизда ҳозирги кунга қадар харажатлар ҳисоби ва маҳсулот таннархини калькуляция қилиш тушунчалари амал қилмоқда. ББу эса қарашларни ўзгартиришни, хориж тажрибасидаги таннарх бухгалтерия ҳисобини жорий қилиш, дарсликларни ўрганиш ва тадқиқ қилишни тақозао этади.

Таннарх бухгалтерия ҳисоби тизими **-** бу таннарх объектига доир бўлган ахборотларни ўлчаш, ёзувини амалга ошириш, таҳлил ва интерпритация қилиш ҳамда таннарх ҳисоботини тузишда қўлланиладиган мунтазам-даврий жараёнлар ва процедуралар мажмуасидан иборатдир.

Таннарх бухгалтерия ҳисоби бошқарув (менежментлик) ҳисобининг энг муҳим таркибий қисми бўлиб, у нафақат менежментни ахборот билан таъминлайди, балки менежментлик ҳисобининг бошқа таркибий қисмлари учун ҳам ахборот манбаи ҳисобланади. Шу боис, таннархи бухгалтерия ҳисоби бошқарув (менежментлик) ҳисобининг фундаментини, яъни унинг асосини ташкил этади десак айнан ҳақиқат бўлади.

Таннарх ва менежментлик бухгалтерия ҳисобига оид дарсликда таннарх ҳисобининг вазифалар (objectives)ларига қуйидагилар киритилган:

(1) Маҳсулотлар ва операциялар таннархига оидлигини белгилаш учун барча харажатларни таҳлил этиш ва таснифлаш;

(2) Ҳар бир бирлик маҳсулот, иш, операциялар, жараёнлар ва бўлимлар ва сервис хизматларининг ишлаб чиқариш таннархини белгилаш учун стандарт таннархни жорий этиш;

(3) Менежментга хўжасизлик (самарасиз фаолият) ва чиқимларнинг турли хил кўринишлари, жумладан, материаллар, вақт, харажатлар ёки машина ва асбоб-ускуналар ва дастаклар билан боғлиқ чиқимлар масштаби тўғрисида кўрсатмалар тақдим этиш. Қониқиш ҳосил қилмайдиган натижаларнинг сабаблари таҳлили тўғирлашлар киритишга ҳам қаратилиши мумкин;

(4) Молиявий йил давомида менежмент учун уйғун бўлган вақт интервалида, масалан, ҳар ҳафталик, ҳар ойлик, ҳар чораклик ва бошқа вақт оралиғида нафақат бутун бир ягона бизнес бирлиги бўйича, балким бўлимлар ёки маҳсулотлар бўйича ҳам даврий фойда ва зарарлар счети ва баланс ҳисоботлари маълумотларини тақдим этиш. Фойда ва зарарларнинг асл сабаблари деталли очиқланиши учун фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботда жами сумма уни келтириб чиқарувчи кўрсаткичлар бўйича баён этилади.

(5) Ҳақиқий таннарх тўғрисидаги рақамларни баҳоланган кўрсаткичлар билан солиштириш ҳамда менежментга улар томонидан келгуси рақамларни баҳолашларни, котировкалар учун тақдим этиш ва нархларни белгилаш (price-fixing policy) сиёсатини амалга оширишда ёрдам бериш;

(6) Турли даврлар ва маҳсулот ишлаб чиқаришнинг турли ҳажмларида таққосланадиган таннарх тўғрисидаги ахборотлар тайёрланиши;

(7) Захиралар ва бошқа материлларнинг узлуксиз ҳисоб тизими орқали (perpetual inventory) фойда ва зарарлар тўғрисидаги счет ҳамда бухгалтерия баланси захираларни муддатдан ташқари инвентаризациясини ҳамда омборхоналарни текшириш натижаларини олмасдан туриб тузиш ҳамда қисқа вақт интервалида тўғирлашларни киритиш имкониятлари таъминланиши керак. Бундан ташқари, ушбу тизим орқали ишлаб чиқаришни режалаштириш ва омбордаги ҳар хил камомадлар ва йўқотишларга барҳам берилиши ҳам таъмин этилиши лозим;

Менежерларнинг таннарх бухгалтерия ҳисобини ташкил этишдан оладиган нафларини қуйидаги омилларда белгиланиши қайд қилинган.

1. Таннарх ҳисоби савдо инқирози ва савдо рақобати кучайган даврда ёрдам беради – савдо инқирози даврида ташкилотда муқаррар юзага келиши мумкин бўлган зарарга йўл қўймаслик керак. Бундай шароитда менежмент ресурсларни иқтисод қиладиган йўлларини ахтариб топиши, материаллардан чиқинди чиқишини максимал камайтириш, ишчи ходимларнинг иш вақтидан самарали фойдаланиш, нархларни камайтириш борасида қарорлар қабул қилишда таннарх ҳисоби маълумотларини синчковлик билан таҳлил қилиши талаб этилади. Ташкилот нафақат

инқирозда омон қолиши, балки фаолиятини давом эттириш ҳамда иқтисодий ўсишни таъминлаши керак бўлади. Бу талабларга фақат мақбул (адекват) бошқарув ҳисоби тизими жавоб беради;

2. Таннарх ҳисоби нархларнинг ўзгармаслигини белгилайди - талаб ва таклиф қонуни нархларни белгилашда салмоқли таъсир кўрсатсада, таннарх ҳисоби маълумотлари нархни шакллантиришда асосий омил бўлиб қолади. Ишлаб чиқарувчи нархни ўзгартириш бўйича қарорлар қабул қилишда ўзининг таннарх ҳисобига оид ёзувларидан зарурий кўрсатмаларни олади;

3. Таннарх ҳисоби ҳисоб объектлари бўйича баҳолашларни амалга оширишда ёрдам беради – мақбул (адекват) таннархга оид ёзувлар ҳисоб объектларини баҳолаш ҳамда тендерларда котировка ўтказишда қарорлар қабул қилишда ишончли ахборотлар билан таъминлайди;

4. Таннарх ҳисоби ишлаб чиқаришни тўғри йўлдан йўналтиришга ёрдам беради – таннархга оид тўғри ахборотларнинг тақдим этилишии менежментга рентабелли ёки рентабелсиз фаолиятни фарқлаш имкониятини беради. Фойдани рентабелли фаолиятга аҳамият қаратиш ҳамда самрасиз фаолиятга барҳам бериш орқали максималлаштириш мумкин бўлади;

5. Таннарх ҳисоби йўқотишларни бартараф этади – таннарх ҳисоби таннархни деталли юритишга асосланади. Бу эса қайси таннарх элементидан ортиқча сарф-харажатлар юзага келаётганлигини ва у қайси омил ҳисобидан шаклланганлигини аниқлаш ҳамда йўқотишларнинг турли кўринишларига барҳам бериш имкониятини беради.

6. Таннарх ҳисоби таққослаш имкониятини беради – таннархга оид ёзувларнинг ҳаққоний юритилиши таққослаш учун таннарх тўғрисида ахборотларни таъмин этади, қайсики менежментга келгусидаги фаолият йўналишларини белгилаб олишга ёрдам беради;

7. Таннарх ҳисоби фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботни тузиш учун маълумотларни тақдим этади – мақбул таннарх ҳисобига оид ёзувлар менежментни уларга қўлай бўлган вақт интервалида фойда ва зарарлар ва бухгалтерия балансини тайёрлаш учун зарур бўлган ахборотларни таъмин этади;

Таннарх бухгалтерия ҳисоби тизимини ташкил этишда ҳисобга олиш лозим бўлган омилларига қуйидагилар киради:

1.Ташкилотнинг масштаби;

2.Ишлаб чиқариш жараёни турлари;

3.Ташкилот томонидан ишлаб чиқарилган турли хил маҳсулотларнинг миқдори;

4. Таннарх ахборотларига нисбатан муносабат;

5.Ташқи ўзгарувчилар, жумладан қонунлар ва тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.

Хулоса қилиш мумкинки, таннархи бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, унинг бошқарувда вазифаларини белгилаб бериш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Executive programme COST AND MANAGEMENT ACCOUNTING Printers/October, 2015/5000. 5-6-p.
2. Heitger, Lester E. Cost accounting. 1993. https://www.amazon.com/Cost-Accounting-Lester-Heitger/dp/0070279918

MUNDARIJA:

I-QISM		
I-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI INNAVATSION ASOSDA RIVOJLANISHINING NAZARIY METODOLOGIK MASALALARI		4
Po‘latov M.E., Mirzayev K.Dj., Boboqulov S.B.	Raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyatning ahamiyati	4
Асланова Д.Х., Узакова В.С.	Формирование атрибутов выпускника вуза, как залог успешного его трудоустройства	8
Эргашев Р.Х.	Меҳнат самарадорлигига инсон ресурсларининг таъсири	12
Мирзаев К.Ж., Шералиев А.С.	Ўзбекистонда агрохизматни инновацион асосда ривожлантириш масалалари	16
Кувандиков Ш.О., Худаярова М.Ш.	Аҳолининг тадбиркорлик фаоллигини оширишга таъсир этувчи омилларнинг ижтимоий-иқтисодий моҳияти	20
Шавқиев Э.	Ишлаб чиқариш инфратузилмаси субъектларининг инновацион ривожланиши	23
Jomonqulova E.F.	Iqtisodiyotida axborotlashtirishning mamlakat tutgan o’rni	30
Ruzibayeva N.X.	Raqamli iqtisodiyotda xizmat innovatsiyasining nazariy asoslari	34
Akramova M.R.	The importance of teaching vocabulary	39
Ахтамова М.Э.	Рақамли иқтисодиёт шароитида туризм бошқарув тизимини инновацион асосда ривожлантириш масалалари	43
Юлдашова Н.З.	Агросервис соҳасида рақамли иқтисодиётнинг аҳамияти	47
Bozorov D.B.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida maishiy xizmat ko’rsatish sohasining rivojlanish omillari va shart-sharoitlari	52
Ташназарова Н.	Иқтисодий самарадорлик тушунчаси таърифини такомиллаштириш	56
Boboqulov S.B.	Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini innovatsion mohiyati	63
Musayev B.Sh.	Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning nazariy asoslari	66
Erdonov M.E.	Xizmat ko’rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati tushunchasi va mohiyati	69
Umurova M.A.	Xizmat ko’rsatish korxonalarida samaradorlik	

	boshqaruvini takomillashtirishning ijtimoiy – iqtisodiy mazmuni	71
Jabborova Z.	Turzim sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati	75
Сайдуллаев Ш.З.	Савдо корхоналари рақобатбардошлигини баҳолашга назарий ёндашувлар	78
Михлиев Ж.М.	Хизматлар соҳасида оилавий тадбиркорликни “маҳаллабай” ишлаш тизими орқали ривожланишини такомиллаштиришнинг иқтисодиётдаги ўрни	85
Ulugmurodov F.F., Ismoilov K.B.	Raqamli iqtisodiyotda bulutli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o‘rni	88
II-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI INNAVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		91
Мирзаев Қ.Ж., Эгамкулов Д.Б.	Республикада транспорт хизматларини инновацион асосда ривожлантириш имкониятлари	91
Шавқиев Э.	Инновацион ривожланиш – корхона иқтисодиётини юксалтиришнинг бош омили	94
Мусаева Ш.А., Усмонова Д.И.	Пути организации и развития маркетинговых исследований на рынке труда	99
Мардонов Б.Б.	Ҳудудлар тараққиётига хизмат кўрсатиш соҳасининг таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятларини баҳолашнинг интеграл усули	105
Джульматова С.Р.	Цифровая экономика как фактор повышения качества жизни	109
Ахроров З.О.	Молиявий ресурсларни ташкил этишда солиқ муносабатларини ташкил этишнинг аҳамияти	112
Қўзибоев Б.А., Ибрагимов Б.Р.	Самарқанд вилоятида кичик бизнес ва тадбиркорликнинг ҳолати, муаммолари ва ечимлари	116
Артикова Ш.И.	Рақамли иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти	122
Тўхтамишов А.Қ.	Туризм кластерларини ташкил этиш орқали ҳудудий туризмнинг инноватsion салоҳиятини ошириш масалалари	125
Туйчиев Ш.Ш., Гадаев Ж.М.	Хизмат кўрсатиш корхоналарига солиқ имтиёзларини тақдим этиш аҳамияти	130
Шералиев А.С.	Агросервис соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий	

	механизмлари	136
Ахтамова М.Э.	Рақамли иқтисодиёт шароитида зиёрат туризмида хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион асосда ривожлантиришнинг муаммо ва ечимлари	141
Ashurova O.Y. Qo'chqorov I.	Investitsiya faoliyatini boshqarishning asosiy yo'nalishlari	145
Imomov S.M.	The impact of travel web platforms on the tourism industry	148
Xoliqov N.A.	Ziyorat turizmi destinatsiyalarini rivojlantirishning xorij tajribasi	155
Ашурова О.Ю., Очилов Ф.	Роль цифровой экономики в повышении качества и эффективности услуг	159
Зиявитдинов Х.Х.	Значительные направления повышения конкурентоспособности ресторанных услуг	164
Мукумова Н.Н.	Возможности развития рынка услуг высшего образования в условиях цифровой экономики	168
III-SHO'BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH		173
Bakayev Z.T., Rabbimov M.M., Haydarov J.B.	Tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari. (samarqand viloyati misolida)	173
Ruzibayeva N.X.	Yashil moliya bozorini tartibga solish yo'nalishi sifatida yashil investitsiyalardan foydalanish siyosati	178
Маматкулова Ш.Ж.	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик корхоналарини ривожлантиришда маркетинг стратегиясидан фойдаланиш	182
Ахтамова М.Э., Зиёдиллоева Ф.Н.	Информационное развитие маркетплейсов в условиях цифровой экономии в узбекистане	186
Рахматуллаев Б.Р.	Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий тенденциялари	189
Нарзикулова Ш.Х.	Иқтисодиётнинг барқарор ривожланишида саноат корхоналарининг ўрни	193
Muradullayeva N.D.	Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini import hajmini samarali boshqarish	197
Rajabov O.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	200
Orzuqulova Z.A.	Hududlarda transport-logistika xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlari	204

Xalimov Sh.X.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos jihatlari	208
Хайитов Ж.Х.	Хизматлар соҳаси ривожида ободонлаштириш хизматлари	213
Raximova U.Z.	Korrelyatsion-regression modellardan biznes-jarayonlarining iqtisodiy tahlili va prognozlashda foydalanish yo‘llari	216
Axmedov J.A.	O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligidagi mavjud ichki imkoniyatlar xisobiga oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini bartaraf etish yo‘llari	218
Ташназарова Д.	Таннарх бухгалтерия ҳисоби мақсади ва тавсифи	223

«INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO'PLAMI

(I-QISM)

(2023 yil 20-sentyabr)

"STAP-SEL" MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2023.

ISBN: 978-9910-9795-7-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **"STAP-SEL" MChJ.** nashriyot - matbaa ijodiy bo`limi, Samarqand.

9685

Qog'oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog'ozi.
"Times New Roman" garniturasi.
Nashr bosma tabog'i 14,5
Buyurtma № 0075A/23. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo'limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko'chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-9795-7-6

